

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M.X. RASULOV, G.A. MIRZAYEVA

TEMIR YO'L TRANSPORTIDA HARAKATNI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2007*

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiglashtiruvchi
Kengash nashrga tavsiya etgan

Taqrizchilar:

R.Ya. Abdullaev — ToshTYMI

«Yuk-tijorat ishlari texnologiyasi va stansiyalar» kafedrasi mudiri,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

I.S. Komolov — Toshkent temir yo'l kolleji direktori.

R.M. Muhamedov — «O'zbekiston temir yo'llari» DATK Tashishni
tashkil etish Boshqarmasining boshlig'i.

32839
10 3g.

Ushbu o'quv qo'llanma temir yo'l transportidan foydalanish ishlarini tashkil etish va boshqarish masalalariga bag'ishlangan. O'quv qo'llanmada temir yo'l transportidan foydalanish ishlarning asoslari, bekatlarning ishini tashkil etish, poyezdlar harakati jadvalini va poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, temir yo'lning o'tkazish qobiliyatini hisoblash, yo'lovchilar harakatini tashkil etish, poyezdlar harakatini boshqarish va boshqalar haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Y **0301080000-124** – 2007
360/04/-2006

ISBN 978-9943-05-018-1

© Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-y.

| | |
|-------|---|
| 20.07 | Alisher Navciy nomidagi O'zbekiston Mif |
| A695 | |

KIRISH

O'zbekistonning iqtisodiy poydevorini yanada mustahkamlashda transport tarmog'ining, eng avvalo, temir yo'l transporti taraqqiyotining ahamiyati kattadir. Hozirda temir yo'l transporti ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar temir yo'l-larni qurish va rivojlantirishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bu temir yo'l xo'jaligiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir. Yagona temir yo'l tarmog'ini shakllantirish maqsadida yangi 341 km uzunlikdagi Navoiy—Uchquduq—Misken—Nukus temir yo'li qurilib, ishga tushirildi, yuk va yo'lovchi poyezdlar qatnovi bekamu ko'st olib borilmoqda. Mamlakatimizning chekka hududlari bo'lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish maqsadida uzunligi 220 km bo'lgan Toshg'uzor—Boysun—Qumqo'rg'on yangi temir yo'l qurilishi jadal olib borilmoqda. Amudaryo uzra qurilgan ko'priklar mamlakatimizning shimoliy hududlarini har tomonlama rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti o'zining tashish va o'tkazish qobiliyati zaxiralariga ega bo'lgan holda yuk va yo'lovchilarни tashishda xalq xo'jaligi talablarini to'liq qondirmoqda.

Toshkent—Samarqand yo'nalishi bo'yicha tezyurar «Registration» yo'lovchi poyezdi qatnovining ochilishi uch mamlakat — Xitoy, Rossiya va O'zbekistonning temir yo'l transporti sohasidagi hamkorligining namunasidir. So'nggi vaqtida temir yo'l transportida turizmni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shahar va tuman markazlarida kengaytirilgan va qaytadan qurilgan 30 dan ortiq vokzallar yo'lovchilarga namunali xizmat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

dasturiga muvofiq, «O‘zbekiston temir yo‘llari» faoliyatining asosiy maqsadi barqaror, xavfsiz va samarali rivojlanish hamda texnikaviy salohiyatni oshirish uchun sharoit yaratishdir.

O‘zbekiston temir yo‘llari

«O‘zbekiston temir yo‘llari» hudud jihatidan Yevropa va Osiyonib bog‘lovchi qadimiy savdo yo‘llari kesishgan yerda joylashgan. Qachonlardir Yevropa va Osiyo xalqlarini birlashtirgan Buyuk ipak yo‘li o‘z vaqtida davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishida taraqqiyatga ega bo‘lgan xalqlarni birlashtirishda bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblangan. Bizning temir yo‘llarimiz o‘z jug‘rofiy o‘rniga ko‘ra Sharq va G‘arbni bog‘lovchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Bu bo‘g‘in Xitoy, Koreya va Yaponiyanı, MDH mamlakatlari, Eron, Turkiya va Janubi-G‘arbiy Yevropa o‘rtasidagi transport aloqalarini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llari xalqaro transport yo‘laklari tarkibiga kiradi.

O‘rta Osiyoda birinchi temir yo‘li 1880- yilda Kaspiy dengizidan boshlanib qurilgan. Uzunligi 1700 km bo‘lgan bu yo‘l 1888-yilda Samarqandgacha, 1899- yilda Toshkentgacha qurib tugatilgan. Bu temir yo‘l ishlab chiqarish korxonalarining o‘sishiga turki bo‘lgan va ko‘p yillar davomida harbiy holatda saqlangan.

1906- yilda uzunligi 2000 km keladigan Orenburg —Toshkent temir yo‘li ishga tushirilgan. Bu temir yo‘l Rossiyaning rivojlangan markaziy ishlab chiqarish tumanlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatini yaratdi. Temir yo‘l, asosan, mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga ega edi.

O‘rta Osiyoning asosiy qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish hududlariga xizmat qilishi uchun 1907- yildan 1916- yillar oralig‘ida Farg‘ona halqa yo‘li (Qo‘qon—Namangan—Andijon), uzunligi 190 km bo‘lgan Buxoro temir yo‘llari qurilib, ishga tushirildi. Bu yo‘llar texnik jihatdan juda kuchsiz edi. Sutka davomidagi o‘tkazish qobiliyati 2 tadan to‘ 12 tagacha juft poyezdlarda edi. Yuk poyezdining og‘irligi 540 t bo‘lgan. Uchastka tezligi 13,6 km/soatni, vagon aylanmasi 7,2 sutka, paravozlarning sutka davomidagi yurishi 125 km ni tashkil etar edi. Qabul qilish yo‘llarining uzunligi 650—720 m gacha edi.

Toshkent — Angren yo‘nalishi temir yo‘li urush yillarida qurilgan. Urushdan keyingi yillarda mamlakat xalq xo‘jaligini tiklashda uzunligi 1025 kilometrdan iborat bo‘lgan Chorjo‘y—Qo‘ng‘irot—Beynev temir yo‘lining qurilishi muhim voqeа bo‘lgan va u 1972- yilda foydalanishga topshirilgan. Bu temir yo‘l O‘zbekistonning Janubiy mintaqalarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasini Rossiyaning Janubiy hududlari bilan bog‘lash imkonini berdi.

1973- yilda temir yo‘l boshqarmasida hisoblash markazi tashkil etilgan. Bugungi kunda bu markaz EHM negizidagi yangi hisoblash majmualari bilan jihozlangan.

Hozirgi kunda kompaniyaning asosiy yo‘llari umumiy uzunligi 4000 km dan oshib ketdi.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» Davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi («O‘TY» DATK) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994- yil 7- noyabrdagi 982- sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994- yil 14- noyabrdagi 551- sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

Hozirgi vaqtida temir yo‘l tarmog‘ini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish O‘zbekistonda yagona milliy transport tarmog‘ini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagи ishlardandir. Temir yo‘llar davlatning asosiy transport tizimi sifatida O‘zbekiston xalq xo‘jaligining muhim strategik tarmog‘i sanaladi.

Tarmoqning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- yagona temir yo‘l transport tarmog‘ini yaratish;
- temir yo‘llarning asosiy uchastkalarini elektrlashtirishni davom ettirish;
- temir yo‘l transporti infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, temir yo‘llarni modernizatsiya qilish;
- harakatdagi tarkibni ta’mirlash bazasini yaratish;
- jahon bozoriga chiqish va Respublika eksport salohiyatining muqobil transport yo‘laklarini izlash;
- respublika hududi bo‘ylab tashish uchun qo‘srimcha tranzit yuklarni jalb qilish.

«O‘TY» DATK sobiq O‘rtta Osiyo temir yo‘li negizida tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mintaqaviy temir yo‘l uzellari (MTU), korxona va tashkilotlar kiradi.

«O'TY» DATK O'zbekiston Respublikasining 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasiga xizmat ko'rsatadi. Hozirgi kunda «O'TY» DATK yuk tashish bo'yicha 5 MTU (Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Qarshi va Qo'ng'irot MTU lari) va yo'lovchi tashish bo'yicha «O'ztemiryo'lyo'lovchi» tashkilotlaridan iborat. Kompaniya tarkibida 246 bekat bo'lib, ulardan 4 tasi saralash, 2 tasi yo'lovchi, 11 tasi uchastka va 80 tasi yuk bekatlaridir. 179 bekat yuk qabul qilish va topshirish uchun ochilgan. 226 bekat o'tkazgich va signallarni elektr markazlashtirish qurilmalari bilan jihozlangan. Kompaniya uchastkalarining 780 km dispetcher markazlashtirish va 1618 km avtoblokirovka qurilmalari bilan jihozlangan, 490 km uchastkasi elektrlashtirilgan. Qo'shni davlatlar bilan birikish punktlari bo'l mish Chengeldi bekatigacha poyezd o'tkazish qobiliyati bir kunda 100 juft poyezd va Beynev hamda Xo'jadavlat bekatlari bo'yicha 40 juft yuk poyezdini tashkil etadi. Poyezdlar harakatini boshqarish yagona dispetcherlik markazidan amalga oshiriladi. U sobiq ittifoq temir yo'lining barcha tarmoqlari orasida birinchi bo'lib 1988- yilning 1- mayida tashkil etilgan edi. Markazni tashkil etish bilan poyezdlar harakati va yuk ishlarining dispetcherlik boshqaruvini jamlash, vagonlarni yuk ortishga berish hamda lokomotivlar bilan ta'minlash masalalarini yanada samarali hal etishga erishildi. Yo'lovchi tashish xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va tizim o'zgarishlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi hukumatining topshirig'iga ko'ra temir yo'l kompaniyasi rahbariyatining buyrug'i bilan «O'ztemiryo'lyo'lovchi» Davlat korxonasi tashkil etildi. Yo'lovchilar, ularning yuklarini tashish va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini kengaytirish, Respublikamiz aholisi ehtiyojlarini to'liq va o'z vaqtida qondirish, korxonaning rentabelligini yaxshilash, harakat tarkibidan samarali foydalanish, tashishdan to'liq daromad kelishini ta'minlash hamda yo'lovchi, sayyoҳ, pochta-yuk va shahar atrofiga qatnovchi poyezdlarning harakatlanish jadvallarini qayta ishlash va unga tuzatishlar kiritish, xalqaro aloqalar miqyosida poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish, yo'lovchi vagonlarni tayyorlash, yo'lga shaylash va boshqalar yangitdan tashkil etilgan korxonaning asosiy vazifalaridan sanaladi.

I BOB.

TEMIR YO'LLARDAN FOYDALANISH ISHLARINI BOSHQARISH ASOSLARI

1.1. Temir yo'l transportida tashish ishlarining tashkil etilishi va texnologiyasi

Temir yo'l transporti yuk va yo'lovchi tashish ishlarining hajmiga ko'ra boshqa transport turlari bo'lmish avtomobil, havo, daryo, dengiz va quvurli transportga nisbatan yetakchi o'rinni egallaydi. Temir yo'l transportida tashish ishlarining sifati, asosan, yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarining texnologiyasiga bog'liq.

«Texnologiya» so'zi grek tilidan olingan bo'lib, san'at, mahorat, buyumlarni qayta ishslashning turli usullarini mohirlik bilan qo'llashni bilish, jarayon va hodisalarining ro'y berish qonuniyatlarini o'rganish va kelgusida ishlab chiqarishda qo'llash ma'nosini anglatadi.

Temir yo'l transportida esa «texnologiya» tashish jarayonlari va texnik vositalardan foydalanish, ularning o'zaro ta'sirining qonuniyatları hamda yuk va yo'lovchi tashishni samarali tashkil etish usullari haqidagi bilimdir.

Tashish ishlarining tashkil etilishi va texnologiyasi bilan ilmiy-texnik o'sishning jadallahishi quyidagi keng miqyosdagi masalalarni hal qilishni talab etadi: poyezd tarkibining og'irligini va uzunligini oshirish; saralash qurilmalarining qayta ishslash qobiliyatini kuchaytirish; tashish jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy qilish; boshqaruvning barcha bosqichlarida dispetcherlik rahbarlikni takomillashtirish va boshqalar.

O'sib borayotgan yo'lovchi oqimlarini tashish uchun yangi yo'lovchi bekatlari va vokzallarning, shahar atrofi yo'nalishida maxsuslashtirilgan yo'llar va bekatlarning barpo etilishini talab etadi.

Kelajakda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yuksaltirish tezkor magistrallarning qurilishi tezyurar poyezdlar uchun maxsus yo'llarni barpo qilish orqali amalga oshiriladi.

Hozirda tashish jarayonlarini boshqarishda, yuk amallarini mexanizatsiyalash va avtomatizasiyalashda, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda kompyuter texnikasidan keng foydalanilmoqda.

Yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchilarning transport xizmatiga bo'lgan talablari kuchayishi tashishning ishonchlilagini ta'minlashni, yuklarning «Eshikdan eshikkacha» yetkazilishini, poyezdlar harakati grafigining ishlab chiqarish jarayonlari texnologiyasi bilan muvofiqligini ta'minlashni taqozo etadi.

Yangi transport majmularining foydalanishga topshirilishi va tashish jarayonlarini tashkil qilishda yangi texnologiyalardan foydalanish, temir yo'l transportiga muhim masalani hal etishiga — transport xizmati bozorida o'zining raqobatbardoshlilagini ta'minlashga yordam beradi.

1.2. Temir yo'l transportida yuk va yo'lovchi tashish texnologiyasining asosiy tamoyillari

Temir yo'l transporti katta va murakkab xo'jalik bo'lib, ishlab chiqarish faoliyatining tavsifiga, uni tashkil qilish va boshqarish usullariga ko'ra boshqa tarmoqlardan farqli jihatlari mavjud. Bu jihatlarga quyidagilar kiradi:

— temir yo'l transporti korxonalarining ko'p sonliligi va tarmoqliligi;

— temir yo'l transporti korxonalari ishining hamjihatliligi va o'zaro bog'liqligi. Bu tashish jarayonida ishtirot etayotgan barcha korxonalar ishining texnologik mutanosibligini talab etadi;

— temir yo'l transporti ishining to'xtovsizligi va muntazamligi. Bu temir yo'l transporti texnik vositalaridan to'liq foydalanish uchun zarurdir.

Temir yo'l transportining sanab o'tilgan jihatlari temir yo'llari ishini tashkil etish va poyezdlar harakatini boshqarishga bo'lgan quyidagi muhim talablarni belgilaydi:

— foydalanish ishlarini boshqarishda boshqaruvning markazlashishi va poyezdlar harakatini boshqarishda yuqoridan pastga boshqaruvning yakkaligini ta'minlashning qat'iyligi va bir vaqtning o'zida quiyi tarmoqlari oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda katta mas'uliyat yuklatilganligi;

— tashish jarayonini ta'minlash bilan texnologik bog'liq bo'l-gan barcha xodimlarning qattiq intizomi va ular ishining aniqligi.

«O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi o'z faoliyatini 1999- yil 15- aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi qonuni asosida olib boradi.

Tashish ishlari texnologiyasida quyidagi asosiy tushunchalar-dan foydalaniladi:

— juft va toq harakat yo'nalishlari (harakat yo'nalishlari har bir temir yo'l yo'nalishi uchun koordinat o'qlari tizimida belgilarning o'zgarishi bo'yicha aniqlanadi: Shimol—Janub va Sharq—G'arb toq yo'nalishni, Janub—Shimol va G'arb—Sharq juft yo'nalishni belgilaydi);

— tortish yelkasi — (lokomotivlar aylanish uchastkasi);

— yuklangan va yuklanmagan yo'nalishlar (yuklangan yo'nalishda yuklangan poyezdlar ko'proq, yuklanmagan yo'nalishda yuksiz poyezdlar ko'proqdir);

— manevrlar (vagon va lokomotivlarning bekat yo'llarida yuk ortish-tushirish joylarida qayta ishlash va boshqa maqsadlarda harakatlanishi);

— poyezdlar harakati grafigi (poyezdlarning ajratish punktlari (bekatlar) oraliq'ida harakatlanishining grafik tasviridir;

— poyezdlar tuzish rejası (bu vagonlardan poyezdlar tashkil etish rejasidir. Unda ma'lum bekatlarga belgilangan poyezdlar qayerda tuzilishi, ular qayerda tarqatilishi va bu poyezdlar qaysi manzil vagonlaridan tuzilishi o'z aksini topadi);

— temir yo'lning poyezd o'tkazish qobiliyati (bu mavjud qurilmalar, lokomotiv va vagon turlari va qabul qilingan poyezdlar harakatini tashkil etish texnologiyasi vositasida bir kun (soat) mobay-nida o'tkazilishi mumkin bo'lgan poyezdlarning eng ko'p sonidir);

— temir yo'lning yuk tashish qobiliyati (bu qabul qilingan tashish texnologiyasida bir yil mobaynida tashilishi mumkin bo'lgan yuk hajmi (mln t);

— vagonlarning ishchi parki (bu tashish jarayonida ishlatalidigan vagonlar soni. Ta'mirlanayotgan va zaxiradagi vagonlar noishchi parkni tashkil etadi. Ishchi va noishchi vagonlar parki yig'indisi umumiy (inventar) parkni tashkil etadi. Xuddi shunday tushunchalar lokomotivlarga ham taalluqlidir);

— ajratish punktlari (bu bir yo'lli yo'nalishlarda razyezdlar va bekatlardir, ikki yo'lli yo'nalishlarda esa quvib o'tish punktlari va bekatlardir. Bekatlar saralash, uchastka, yuk, yo'lovchi va oraliq turlariga bo'linadi);

— poyezdlar harakatining tezkor nazorati va boshqaruvi dispetcherlik apparati tomonidan amalga oshiriladi.

Poyezd dispetcheri (DNS) navbatchilik davrida poyezdlar harakatining yakka boshqaruvchisidir va unga uchastkada poyezdlar harakati bilan bog'liq bo'lgan barcha korxonalar xizmatchilari bo'ysunadi.

O'zbekiston temir yo'llarida dispetcherlik apparati yagona dispetcherlik markazida jamlangan. Markazning zimmasiga yo'lovchi va yuk poyezdlari harakati grafigini bajarish, «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasining tashish rejasи ko'rsatkichlarini bajarish, yuklarni o'z vaqtida manzilga yetkazish, poyezdlar harakatini xavf-xatarsiz tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

1.3. «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003- yil 2- mart-dagi «Temir yo'l transportini demonopolizatsiyalash va aksionerlash chora-tadbirlari haqida»gi farmoniga muvofiq hamda «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat-aksionerlik temir yo'l kompaniyasi boshqaruv tizimini takomillashtirish, temir yo'l transporti korxona va tashkilotlarini xususylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, tarmoq korxonalarini rivojlantirish, texnik jihatdan qayta qurollantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O'zbekiston temir yo'llari» DATK va uning ijroiya apparatining tuzilmasi tasdiqlandi (1.1 va 1.2-rasmarda ko'rsatilgan).

«O'zbekiston temir yo'llari» DATK ning oliy boshqaruv organi kompaniya Kengashidir.

«O'zbekiston temir yo'llari» DATK ning rahbariyatini rais va uning 5 muovini, shu jumladan, bosh menejer — bosh muhandis va raisning birinchi muovini tashkil etadi.

Kompaniya kengashi

Boshqaruv

| | | | |
|---|--|---|---|
| Tashishlar jarayonini ta'minlovchi bo'limmlar | Tashishlarda xizmat ko'satuvchi korxonalar | Ta'mirlash ishlab chiqarish korxonalar | qurilish va ishlab chiqarish infratuzilmalar |
| Yo'l xo'jaligi boshqarmasi | Signalizatsiya va aloqa markazi | «O'zerniyo'j'o'kvchi» OAJ | «O'zerniyo'j'o'kvchi» korxonasi |
| Elektr ta'minoti markazi | Vagon xo'jaligi boshqarmasi | «Yo'reftrans» OAJ | «O'zvagonta 'mir» OAJ |
| Lokomotivlardan foydalanan boshqarmasi | Yuk va tijorat ishlari boshqarmasi | «O'ziemiryo'-konteyner» OAJ | «Toshkent yo'loch'i vagonlarni ta'mirlash zavodi» OAJ |
| Texnika va texnologiya nazorati boshqarmasi | «O'zerniyo'llisobkitob» markazi | «O'zbekjeldoreks-peditsiya» YK | «Eyaletk-maxsustemirbeton» AJ |
| Yagona disptcherlik markazi | Axborot hisoblash markazi | Statistika va hisobga olish boshqarmasi | «Granit» AJ |
| «Temiryo'lyoniig'ita' minot» boshqarmasi | Harbiylashunilgan qo'rqliash boshqarmasi | | Binolar va inshootlarga xizmat ko'rsatish direktiyasi |

Mintaqaeviy temir yo'l uzellari


| | | | |
|--------------|------------|------------|----------------|
| Toshkent MTY | Qo'qon MTY | Buxoro MTY | Qo'ng'iroq MTY |
|--------------|------------|------------|----------------|

— aktsiyalar paketini professional boshqaruvchi kompaniya ishonchli boshqaruviga bergunga qadar

* — yuridik shaxs bo'lgan tarkibiy bo'limmlar;

MTY — mintaqaviy temir yo'l uzelii.

I. I - rasm. «O'zbekiston temir yo'lari». Davlat aksiyadorlik kompaniyasining tashkili tuzilmasi.



1.2-rasm. «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi

Xodimlarning cheklangan umumiyyat 154 kishi,

shu jumladan xodimlari 120 kishi

Rais va uning muovinlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

1.4. Temir yo'llardan foydalanish ishlarining asosiy son va sifat ko'rsatkichlari

Temir yo'llarning bajariladigan ishini rejalashtirish, tahlil etish va baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniadi. Bu tizim son va sifat ko'rsatkichlaridan iborat.

Son ko'rsatkichlari temir yo'llarning ish hajmini xarakterlaydi.

Asosiy son ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat.

Tashish ishlarining hajmi quyidagicha topiladi:

a) yuk tashish bo'yicha – bir yilda tashilgan yuklarning hajmi:

$$\Sigma P = P_1 + P_2 + P_3 + \dots + P_n \text{ t/yil;}$$

b) yo'lovchi tashish bo'yicha – bir yilda jo'natilgan (tashilgan) yo'lovchilar soni:

$$\Sigma A = A_1 + A_2 + A_3 + \dots + A_n \text{ yo'lovchi/yil.}$$

Temir yo'llarning yuk aylanmasi tashilgan yuk hajmi (ton-nada) alohida uchastkalarning uzunligi (km da) ko'paymasiga tengdir:

$$\Sigma PI = P_1 I_1 + P_2 I_2 + \dots + P_n I_n \text{ t-km/yil.}$$

Yo'lovchi aylanmasi yuk aylanmasiga o'xshash ravishda quyidagi ifoda yordamida topiladi:

$$\Sigma AI = A_1 I_1 + A_2 I_2 + \dots + A_n I_n \text{ yo'lovchi – km/yil.}$$

Vagonlarning bosib o'tgan yo'li quyidagi ifoda bo'yicha topiladi:

$$\Sigma nl = n_1 l_1 + n_2 l_2 + \dots + n_n l_n \text{ vagon – km.}$$

Bunda: n_1, n_2, \dots, n_n – l uzunlikdagi uchastka bo'yicha harakatlanuvchi vagonlar soni.

Poyezdlarning bosib o'tgan yo'li quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Sigma NI = N_1 I_1 + N_2 I_2 + \dots + N_n I_n \text{ poyezd – km.}$$

Bunda: N_1, N_2, \dots, N_n — I masofali uchastkadagi poyezd-larning harakat miqdori.

Lokomotivlarning bosib o'tgan yo'li, lokomotiv — kilometrda o'lchanadi va quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$\sum MI = M_1 I_1 + M_2 I_2 + \dots + M_n I_n \text{ lokomotiv km.}$$

Umuman temir yo'l tarmog'i, uning yo'nalishi uchun tashish ishlarning zichligi quyidagichadir:

$$G = \frac{\sum Pl_{yuk}}{L_{eks}} \quad t - km / km.$$

Bunda: $\sum Pl_{yuk}$ — yuklangan vagonlarning bir yilda bosib o'tgan masofasi, T — km;

L_{eks} — temir yo'l tarmog'i, yuk yo'nalishining ekspluatatsion uzunligi, km.

Tashish ishlarning keltirilgan zichligi:

$$G_{kel} = \frac{\sum Pl_{yuk} + \sum Al}{L_{eks}} \quad t - km / km.$$

Temir yo'l tarmog'i bekti uchun ortish va tushirish hajmi bir kundagi vagonlar soni bilan o'lchanadi.

Vagonlarni temir yo'ldan temir yo'lga, MTU dan MTU ga o'tkazish me'yori quyidagilardan iborat:

- yuklangan vagonlarni qabul qilish — $U_{yuk\ q.q.}$;
- bo'sh vagonlarni qabul qilish — $U_{b.q.q.}$;
- umumiy qabul qilingan vagonlar — $U_{j.q.q.}$;
- yuklangan vagonlarni topshirish — $U_{yuk.t.}$;
- bo'sh vagonlarni topshirish — $U_{b.t.}$;
- umumiy topshirilgan vagonlar — $U_{t.t.}$;

Temir yo'l va MTU larning ish hajmi vagonlarda o'lchanadi:

$$U_u = U_{yuk} + U_{yuk.q.q.};$$

Sifat ko'rsatkichlari temir yo'llarning ishi va harakatdagি tarkibdan foydalanish sifatini xarakterlaydi.

Sifat ko'rsatkichlariga vagon va lokomotivlarning aylanmasi, kundalik bosib o'tgan masofasi va unumdorligi, poyezdlarning harakat tezliklari, vagonlardan foydalanish ko'rsatkichlari kiradi.

Vagon aylanmasi temir yo'llar ishining asosiy sifat ko'rsatkichidir. Vagon aylanmasi vaqt (sutka) bo'lib, bu davr mobaynida vagonning bir yuklanishidan to ikkinchi marotaba yuklanishigacha bo'lган amallar bajariladi. Aylanma davrida vagon quyidagi holatlarda bo'ldi:

— «A» yuk ortish bekatida qator amallar bajariladi: vagonni yuk ortish joyiga uzatish, yuklash, vagonni bekat yo'liga qaytarish, to'liq tarkib to'planishini kutish, poyezdni tuzish va jo'natish;

— yuklangan holatdagi harakatda vagon yuklangan reysni bajarib, qator uchastka va texnik bekatlardan o'tadi va yuk tushirish bekatiga keladi. Bu harakatning vaqtiga poyezd harakating uchastka tezligi hamda poyezdning texnik bekatlarda turish vaqtiga bog'liq;

— «B» yuk tushirish bekatida tarkib saralanadi, vagonlar yuk tushirish joyiga uzatiladi, yuk tushiriladi, vagon bo'sh holatda bekat yo'liga uzatiladi, boshqa vagonlar bilan birlashtiriladi to'liq tarkib to'planishi kutiladi, so'ngra poyezd tuzilib, keyingi yuk ortish D bekatiga jo'natiladi;

— bo'sh holatda harakatda vagon yuklanmagan reysni bajarib, keyingi yuk ortish bekatiga yetib boradi. Bu reysni bajarish vaqtiga poyezdning harakat tezligiga va uning texnik bekatlarda turish vaqtiga bog'liq.

Agar vagon yoki tushirilgan bekatda qaytadan yuklansa, yuklanmagan reys bajarilmaydi.

Vagon aylanmasining tashkiliy qismlari 1.3- rasmida ko'rsatilgan.


Vagonning aylanma mobaynida yuklangan va bo'sh holatda umumiy bosib o'tgan masofasi to'liq reys deb ataladi.

$$l_t = l_{yuk} + l_{bo'sh} \ km.$$

Demak, vagon aylanmasi uning quyidagi holatlarda bo'lган vaqtlar yig'indisidan iborat:

— uchastkada poyezd tarkibida:

$$Q_v = \frac{l_t}{v_{uch}} \ soat;$$



1.3- rasm. Vagon aylanmasining chizmasi.

— texnikaviy (uchastka va saralash) bekatlarida turish:

$$Q_v = \frac{l_t}{L_{tex}} \cdot t_{tex} \text{ yoki } Q_v = K_t \cdot t_{tex} \text{ soat};$$

— yuk ortish va tushirish bekatlarida:

$$Q_v = K_t \cdot t_{yuk} \text{ soat}.$$

Bunda: l_t — vagonning to'liq reysi, km;

v_{uch} — poyezd harakatining uchastka tezligi, km/s;

K_t — aylanma mobaynida vagon o'tadigan texnikaviy bekatlar soni;

L_{tex} — vagon yelkasi, ya'ni texnikaviy bekatlar orasidagi o'rtacha masofa, km;

K_m — mahalliy ish koeffitsiyenti;

t_{tex}, t_{yuk} — vagonning texnikaviy va yuk bekatida turish vaqt me'yori, s.

$$Q_v = \frac{1}{24} \left(\frac{l_t}{v_{uch}} + \frac{l_t}{L_{tex}} \cdot t_{tex} + K_m \cdot t_{yuk} \right) \text{ sutka}.$$

Vagon aylanmasi qanchalik kam bo'lsa, yuk shunchalik tezroq tashiladi, belgilangan miqdorda yuk tashish uchun shunchalik kamroq vagon talab etiladi, ko'proq miqdorda yuk ortish va tashish mumkin, tashish ishlarining tannarxi shunchalik kamroq bo'ladi.

Natijada vagon aylanmasi, ortilgan yuk hajmi va talab qili-nadigan vagonlar parki orasidagi munosabatni quyidagicha ifoda-lash mumkin:

$$Q_v = \frac{n_{ish}}{U_{ish}} \text{ sutka.}$$

Vagon aylanmasi qanchalik kam bo'lsa, shunchalik kam miqdorda vagonlarning ishchi parki talab etiladi:

$$n_{ish} = U_{ish} + Q_v \text{ vagon-sutka.}$$

Vagon aylanmasi qanchalik tezroq amalga oshsa, vagonlar soni o'zgarmagan holda, bir sutkada shunchalik ko'p miqdorda yuk ortilishi mumkin:

$$U_{ish} = \frac{n_{ish}}{Q_v} \text{ vagon.}$$

Vagonning kundalik bosib o'tgan masofasi quyidagicha to-piladi:

$$S_v = \frac{l_t}{Q_v} \text{ yoki } S_v = \frac{\sum n S_m}{n_{ish}} \text{ km/sutka.}$$

Bunda: $\sum n S_m$ — ishchi park barcha vagonlarining kundalik vagon-kilometrlari soni.

Vagonning yuklanmasdan bosib o'tgan masofasi koeffitsiyenti yuklanmagan vagon-kilometrlarning yuklangan vagon-kilometr-larga yoki vagonning yuklanmagan reysining yuklangan reysiga nisbatiga tengdir:


$$\alpha = \frac{\sum n S_{bo'sh}}{\sum n S_{yuk}} = \frac{l_{bo'sh}}{l_{yuk}}.$$

Muhim sifat ko'rsatkichlari qatoriga poyezdlarning harakat tezliklari: yurish, texnikaviy, uchastka va yuk eltish tezliklari kiradi.

Yurish tezligi — bu poyezd harakatining yo'l mobaynida to'xtashlarini va bu to'xtashlarda tezlanish va sekinlashish uchun sarf bo'lgan vaqtini hisobga olmagan holdagi o'rtacha tezligidir:

$$v_{yu} = \frac{l}{\sum t_{yu}} \text{ km/s}$$

Bunda: l — peregon yoki uchastka uzunligi, km;



Σt_{yu} — peregonlarda tezlanish va sekinlashish vaqtlarini hisobga olmagan holda yurish vaqtleri yig'indisi, s.

Texnikaviy tezlik — bu poyezd harakatining uchastka peregonlar bo'ylab to'xtashlar uchun vaqt sarfini hisobga olmay, lekin tezlanish va sekinlashishlar uchun sarflangan vaqtini hisobga olgan holdagi o'rtacha tezligidir:

$$v_{tex} = \frac{l}{\sum t_{yu} + \sum(t_t + t_s)} \text{ km/s. []}$$

Bunda: t_t — poyezdnинг tezlanishi uchun vaqt sarfi, s;

t_s — poyezdnинг sekinlashishi uchun vaqt sarfi, s.

Uchastka tezligi — bu poyezd harakatining uchastka bekatlarida to'xtash, tezlanish va sekinlashlar uchun sarf bo'lgan vaqtini hisobga olgan holdagi o'rtacha tezligidir:

$$v_{uch} = \frac{l}{T_o} = \frac{l}{\sum t_{yu} + \sum t_{tur} + \sum(t_t + t_s)} \text{ km/s.}$$

Bunda: $\sum t_{tur}$ — poyezdnинг uchastka oraliq bekatlarida turish vaqtleri yig'indisi, s.

Marshrut tezligi — bu poyezd harakatining temir yo'l yo'naliشining barcha oraliq, uchastka va saralash bekatlarida turish vaqtini hamda tezlanish va sekinlashish vaqtlarini hisobga olgan holdagi o'rtacha tezligidir:

$$v_m = \frac{\sum l}{\sum T_j + \sum t_{tur}} \text{ km/soat yoki km/sutka.}$$

Bunda: $\sum l$ — temir yo'l yo'naliшini uzunligi; km;

$\sum T_j$ — poyezdnинг temir yo'l yo'naliشining barcha uchastka larida bo'lgan vaqtini yig'indisi, s;

$\sum t_{tur}$ — poyezdnинг barcha texnikaviy (uchastka va saralash) bekatlarida turish vaqtleri yig'indisi, s.

Yuk eltish tezligi — bu temir yo'lning yukni qabul qilgan vaqtidan to qabul qiluvchiga topshirilgan vaqtgacha bo'lgan yukning harakat tezligidir:

$$v_{el} = \frac{l_{yu,j}}{T_j} \text{ km/sutka.}$$

Bunda: $l_{yu,j}$ — yuk jo'natiш masofasi, km;

T_j — yukning transportda bo'lishi umumiy vaqt, sut.

Poyezd harakati uchastka (tijorat) tezligining texnikaviy tezligiga bo‘lgan nisbati: $\beta = \frac{v_{uch}}{v_{tex}}$ dir va u ikki yo‘lli yo‘nalishlar uchun $0,85 \div 0,9$ ni, bir yo‘lli yo‘nalishlar uchun $0,7 \div 0,75$ ni tashkil etadi.

Vagonning yuklash qobiliyatidan foydalanish darajasini statik va dinamik yuklanish ko‘rsatkichlari xarakterlaydi.

Vagonning statik yuklanishi deb, yuk ortish bekatidan jo‘natilayotgan bir vagonga to‘g‘ri keladigan yukning o‘rtacha massa nettosiga aytildi:

$$P_{st} = \frac{\sum P}{U_{yuk} \cdot T} \quad t / \text{vagon}$$

Bunda: $\sum P$ — bekatda T sutka mobaynida ortilgan umumiyluk miqdori, m.

Vagonning dinamik yuklanishi deb, yuklangan vagonning butun harakati mobaynida har bir vagonga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yuklanish miqdoriga aytildi.

$$P_d = \frac{\sum Pl_{sut}}{\sum nS_{yuk}} \quad t / \text{vagon}$$

Bu ko‘rsatkich ma’lum bir davr (sutka, oy, kvartal, yil) uchun tonno — km netto miqdorini yuklangan vagonlar vagon-kilotrlarga nisbati orqali ham topilishi mumkin.

Vagonlar ishchi parkining dinamik yuklanishi — bu ishchi park barcha vagonlarining yuklangan va bo‘sh holatlarda harakatlangan davrga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yuklanishdir.

Vagonlar yuklanishi ulardan foydalanishning asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri hioylanadi.

Vagon unumdorligi ishchi parkining bir vagoniga bir kunda to‘g‘ri keluvchi bajarilgan tonno-km nettodir:

$$\omega = \frac{\sum Pl}{n} \quad t \text{ km/vag} — \text{ sutka.}$$

Bunda: $\sum Pl$ — tonno-kilometr netto.

Lokomotivlardan foydalanish sifati bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar lokomotivlarning aylanmasi, lokomotivlarning o‘rtacha kundalik bosib o‘tgan masofasi, ularning unumdorligi, poyezdnining

o‘rtacha massasi va boshqalardir. Harakatlanish uchastkasidagi lokomotivning aylanmasi deb, lokomotivning asosiy depo bekatida poyezdga ulanganidan uning o‘sha bekatdan keyingi safar poyezdga ulanganigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i (1.4- rasm)ga aytildi.

$$Q_l = \frac{2l_{uch}}{v_{uch}} + t_{asos} + t_{ayl} + \sum t_{b.a} soat.$$


Bunda: l_{uch} — harakatlanish uchastka uzunligi;

v_{uch} — uchastka tezligi;

t_{asos} — lokomotivning asosiy depo bekatida o‘rtacha turish vaqtisi;

t_{ayl} — lokomotivning aylanma depo bekatida o‘rtacha turish vaqtisi;

$\sum t_{b.a}$ — lokomotivning brigada almashish bekatlarida umumiyl turgan vaqtisi.



1.4- rasm. Lokomotivlarning harakatlanish uchastka chizmasi.

Lokomotivning o‘rtacha kundalik bosib o‘tgan masofasi quyidagicha topiladi:

$$S_l = \frac{\sum MS}{\sum M} km/sutka.$$

Bunda: $\sum MS$ — poyezdlarga xizmat qiluvchi barcha lokomotivlarning lokomotivo-kilometrlari miqdori;

$\sum M$ — poyezdlarga xizmat qiluvchi lokomotivlar soni.

Poyezdning o‘rtacha brutto massasi bir kunda bajarilgan tonno-kilometr bruttoning lokomotivo-kilometrlar nisbatiga tengdir:

$$Q = \frac{\sum Pl_{br}}{\sum MS} t.$$

Lokomotiv unumdorligi bir kunda bir lokomotivga to‘g‘ri keluvchi tonno-kilometr bruttolar miqdoriga tengdir:

$$\omega_l = \frac{\sum Pl_{br}}{M_e}, t - km / lok - sutka$$

$$\omega_l = Q \cdot S_l, t - km / lok - sutka$$

Bunda: $\sum Pl_{br}$ — vaqt birligida bajarilgan tonno-kilometrdagi ish miqdori;

M_e — yuk harakatidagi lokomotivlar foydalanish parkining o‘rtacha soni.

NAZORAT SAVOLLARI


1. Temir yo‘l transportida tashish ishlarining tashkil qilinishi va texnologiyasi qanday?
2. Temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchi tashish texnologiyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Temir yo‘l transportida tashish ishlarining sifati nimalarga bog‘liq?
4. Temir yo‘l transportining boshqa tarmoqlardan farqli jihatlari nimalardan iborat?
5. «O‘TY» DATK ni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi qanday?
6. Temir yo‘llarning ish hajmini qanday ko‘rsatkichlar xarakterlaydi?
7. Poyezdlar, vagonlar va lokomotivlar bosib o‘tgan masofa qanday topiladi?
8. Temir yo‘llarning ishi va harakatdagi tarkibdan foydalanish sifatini qanday ko‘rsatkichlar xarakterlaydi?
9. Vagon va lokomotiv aylanmasi qanday topiladi?
10. Poyezdlar harakati tezliklari qanday ko‘rsatkichlar jumlasiga kiradi va ular qanday aniqlanadi?

II BOB. BEKATLAR VA ULARNING ISHINI TASHKIL QILISH BO'YICHA UMUMIY TUSHUNCHALAR

2.1. Ajratish punktlari haqida tushuncha. Bekatlar turlari

Temir yo'l tarmog'i ajratish punktlari yordamida alohida peregonlarga bo'linadi. Bu punktlar qatoriga bekatlar, razyezdlar, quvib o'tish punktlari, yo'l postlari hamda o'tish svetoforlari kiradi (2.1- rasm).

Temir yo'l bektasi deb, yo'l tarmog'i hamda yuklarni qabul qilish, topshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, poyezdlarni qabul qilish, jo'natish, ularning o'zaro kesimi va quvib o'tishi, poyezdlarni tarqatish va tuzish manevr ishlari, alohida vagonlar va ularning guruhlari bilan texnik amallar bajarish uchun qurilmalarga ega bo'lgan ajratish punktiga aytildi.



2.1- rasm. Temir yo'l yo'naliishida ajratish punktlarining joylashishi.

- — bir bosh yo'lli uchastka;
- — ikki bosh yo'lli uchastka;
- saralash bekatlari —A, E;
- △ — uchastka bekatlari — B, D;
- ◇ — oraliq bekatlari;
- — quvib o'tish punktlari;
- — razyezdlar;
- △ — tugun bektasi — D.

Bajariladigan ishning tavsifiga ko‘ra bekatlar oraliq, uchastka, saralash, yuk va yo‘lovchi turlariga bo‘linadi. Bir necha temir yo‘l yo‘nalishlari birikkan bekatlar **tugun bekatlari** deb ataladi.

Oraliq bekatlariga poyezdlarni qabul qilish, jo‘natish va to‘xtamasdan o‘tkazish hamda kichik hajmda yuk va tijorat amallari bajariladigan bekatlar kiradi. Ba’zi oraliq bekatlarida jo‘natuvchi marshrutlar tuziladi, shahar atrof poyezdlari tarkibining aylanmasi tashkil etiladi, lokomotiv brigadalarini almashlash amalga oshiriladi. Oraliq bekatlari uchastka bekatlarining yoki uchastka va saralash bekatlarining orasida joylashtiriladi.

Uchastka bekatlariga, asosan, o‘tkinchi poyezdlarga xizmat ko‘rsatuvchi (vagonlarning ko‘ruvi, lokomotiv va brigadalarini almashlash) bekatlar kiradi. Bu bekatlarda saralash ishlarining hajmi kichik miqdorda bo‘lib, uchastka va terma poyezdlarni tuzish hamda saralash amallari bajariladi.

Saralash bekatlariga ko‘plab poyezdlarni tuzish va saralashga mo‘ljallangan bekatlar kiradi. Bu bekatlarda, asosan, uzoq masofaga boruvchi texnik marshrutlar va o‘tkinchi poyezdlar tuziladi, kam miqdorda mahalliy bo‘lmish uchastka va terma poyezdlar tuziladi. Saralash bekatlari yirik vagon oqimlarining barpo bo‘lish va tarqatilish punktlari (yirik sanoat markazlari, dengiz va daryo portlari yaqini)da joylashtiriladi.

Yuk bekatlari deb, asosan, yuk va tijorat amallari bajariladigan bekatlarga aytildi. Yuk bekatlarida quyidagi amallar bajariladi: yuklarni qabul qilish, tarozida tortish, saqlash va topshirish, tashish hujjatlarini rasmiylashtirish, shoxobcha yo‘llariga xizmat ko‘rsatish. Bu bekatlarda yuklar bir transport turidan ikkinchisiga, bir koleyalı vagondan ikkinchisiga (masalan, chegara bekatlarida) ortilishi mumkin.

Yo‘lovchi bekatlarga yo‘lovchilarga va yo‘lovchi poyezdlariga xizmat ko‘rsatuvchi bekatlar kiradi. Bu yerda yo‘lovchi poyezdlar tarkiblari bilan amallar bajariladi (tarkiblarning texnik ko‘rvuchi va ekipirovkasi, oxirgi bekatga yetib kelgan tarkiblarni tuzish va reysga tayyorlash); yo‘lovchilarni poyezdga chiqarish va tushirish, bagaj va qo‘l yukini qabul qilish va topshirish, yo‘l chiptasi sotish hamda pochta amallari bajariladi.

Yo‘lovchi bekatlari, asosan, yirik shaharlarda, sanoat markazlarida va kurort joylarida barpo etiladi.

Bajariladigan ishning hajmi va murakkabligiga qarab bekatlar oliy sinfga va IV sinf bekatlariga bo'linadi.

Bekat sinfini aniqlash bajariladigan ishning turli ko'rsatkichlarini ball bo'yicha baholash orqali olib boriladi.

Ish hajmi 75 balldan oshgan bekatlar oliy sinfga kiritiladi. Oliy sinfga saralash, yirik yo'lovchi va yuk bekatlari kiradi. Ish hajmi:

- 30 dan to 75 ballgacha – 1- sinfga;
- 14 dan to 30 ballgacha – 2- sinfga;
- 6 dan to 14 ballgacha – 3- sinfga;
- 1 dan to 6 ballgacha – 4- sinfga;
- 1 ballgacha – 5- sinfga kiradi.

Birinchi sinfga katta uchastka, ish hajmi uncha katta bo'l-magan yuk, yo'lovchi va saralash bekatlari kiradi. Ikkinci sinfga ish hajmi kam bo'lgan uchastka, yuk va yo'lovchi bekatlari kiradi. 3- va 4- sinflarga oraliq bekatlari, 5- sinfga razyezdlar va quvib o'tish punktlari kiradi.


2.2. Bekatlar va ularning texnologik jarayonlari haqida umumiy tushunchalar

Temir yo'l tarmog'i uchastkalardan kerakli miqdorda poyezdlarni o'tkazish, ularning harakat xavfsizligini ta'minlash hamda poyezdlardan vagonlarni ajratish va biriktirish maqsadida bir-biri bilan ajratish punktlari bilan chegaralangan peregonlarga bo'linadi.

Ajratish punktlarining yo'l tarmog'isiz va yo'l tarmog'iga egali turlari mavjud. Birinchi turdagilarga avtoblokirovkalij yo'naliishlarda yo'l postlari va o'tish svetoforlari, ikkinchi turdagilarga esa razyezdlar, quvib o'tish punktlari va bekatlar kiradi. Yo'l tarmog'isiz ajratish punktlari peregonlarni svetoforlar bilan chegaralangan ko'rsatkichlari poyezdlarning bu uchastkalar bo'ylab harakatiga ruxsat beradi yoki uni taqiqlaydi. Yarim avtomat blokirovkada bunday uchastkalar postlararo, avtoblokirovkada esa blok uchastkalar deb ataladi.

Agar peregon ikki yo'lli bo'lsa, har bir postlararo peregonda turli harakat yo'naliishlarida ikkitidan poyezd bo'lishi mumkin (2.2- b rasm). Agar peregon 3- belgili avtoblokirovka bilan jihoz-

langan bo'lsa (2.2- d, e rasm), bir yo'lli peregonning bir harakat yo'nalishida yoki ikki yo'lli peregonning har bir harakat yo'nalishida poyezdlarning yashil chiroqda harakatida ularning soni blok-uchastkalar sonining uchga bo'linganiga tengdir (ketma-ket harakatlanayotgan poyezdlar orasida 2 blok-uchastka bo'sh bo'lishi kerak).



2.2- rasm. Bir yo'lli va ikki yo'lli yo'nalishlarda joylashgan yo'l tarmog'isiz ajratish punktlarining chizmalari: a, b — blok-post; d, e — o'tish svetoforlari.

Yo'l tarmog'isiz ajratish punktlari hamda razyezdlar va quvib o'tish punktlari temir yo'ldan har bir harakat yo'nalishi bo'yicha kerakli miqdorda poyezdlar o'tkazish uchun mo'ljallangandir.

Razyezdlar bir yo'lli uchastkalarning ajratish punktlari bo'lib, ularda qarama-qarshi yo'nalishdagi poyezdlarning o'zaro kesishi-shi tashkil etiladi. Quvib o'tish punktlari esa ikki yo'lli uchastkalarning ajratish punktlari bo'lib, ularda bir harakat yo'nalishdagi poyezdlarning o'zaro quvib o'tishi tashkil etiladi.

Bekatlar temir yo'lning eng muhim ishlab chiqarish korxonasi bo'lib, bu yerda mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatiladi. Bundan tashqari bekatlarda tashish jarayonining boshlang'ich va yakuniy amallari bajariladi va poyezdlar harakatini ta'minlash bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshiriladi.

Bekatlarda texnik amallar, yuk, tijorat ishlari va yo'lovchi tashish ishlari bilan bog'liq amallar bajariladi. Texnik amallarga quyidagilar kiradi:

- poyezdlarni qabul qilish, jo'natish va to'xtatmasdan o'tkazish;
- vagonlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ularni yuk ortishga tayyorlash;
- lokomotiv yoki lokomotiv brigadalarini almashtirish;
- sostavlar va vagonlar guruhi bilan manevr ishlari.

Yuk va tijorat amallariga quyidagilar kiradi:

- yukni jo'natuvchilardan qabul qilish;
- yuk tashish to'lovlarini rasmiylashtirish;
- yuk ortish, tushirish, saqlash, egasiga topshirish;
- yuklarni saralash va boshqalar.

Yo'lovchi tashish ishlari bilan bog'liq amallarga quyidagilar kiradi:

- yo'lovchilarni poyezdga chiqarish va tushirish;
- yo'l chiptasini sotish;
- bagaj va qo'l yuklarini qabul qilish, egasiga topshirish va boshqalar.

Bajariladigan ish turi va hajmiga ko'ra bekatlarda quyidagilar mavjud:

- poyezdlarni qabul qilish va jo'natish, manevr va yuk ishlari ni bajarish uchun yo'llar;
- saralash qurilmalari (saralash tepaliklari, tepachalar, tortilgan yo'llar); vagon va lokomotivlarni ko'rikdan o'tkazish, ekipirovka qilish va ta'mirlash uchun yo'llar va qurilmalar;
- signallashtirish, markazlashtirish hamda blokirovkalash (SSB) va aloqa qurilmalari;
- texnik xizmatchilarning bino va xonalari, yo'lovchilar binolari va platformalari, bilet va bagaj kassalari; bagaj va qo'l yuklarini qabul qilish, saqlash va topshirish xonalari;
- yuk qurilmalari (omborxonalar va ochiq maydonchalar, platformalar, vagon tarozisi, konteyner maydonchalari);
- yoritish, yong'in xavfsizligini ta'minlovchi va suv ta'minoti qurilmalari.

Yuqorida sanab o'tilgan qurilmalar belgilangan miqdordagi poyezdlarni qayta ishslash va o'tkazish, poyezdlar, vagonlar va

lokomotivlar bilan bajariladigan hamda yuklarni ortish, tushirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish amallarini bajarish vaqt me'yorlarini ta'minlashi kerak.

Temir yo'l yo'llari bosh, bekat va maxsus turlarga bo'linadi.

Bosh yo'llar — peregon yo'llarining bekatdagi davomidir.

Bekat yo'llarga qabul qilish-jo'natish, saralash, tortish, yuk ortish-tushirish, lokomotiv va vagon xo'jaliklari yo'llari va boshqa amallarni bajarish yo'llari kiradi (tortish, qayta ortish, biriktiruvchi yo'llar, xizmat vagonlarining turish yo'llari va boshqalar).

Maxsus yo'llar — korxonalar, omborlar, karyerlarga birikuvchi shoxobcha yo'llaridir. Ular harakat xavfsizligini ta'minlovchi berk (asrovchi va tutuvchi) yo'llardir.

Asrovchi berk yo'llar harakatdagi tarkibning poyezd harakati marshrutiga chiqib ketmasligini ta'minlaydi. Tutuvchi yo'llar esa nishablikda harakatlanib, boshqaruvini yo'qotgan poyezdlarni to'xtatish uchun xizmat qiluvchi boshi berk yo'llardir.

Bir turdag'i amallarni bajarishga xizmat qiluvchi yo'llar parklarga biriktiriladi va ular mos ravishda poyezdlarni qabul qilish va jo'natish, saralash, tranzit va boshqa parklar deb ataladi.

2.3. Bekatni boshqarish tizimi

Temir yo'l bekat ishini bekat boshlig'i boshqaradi. U bekatning ishini yo'lovchilar, yuk jo'natuvchilar va yuk oluvchilarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi eng samarali texnologik jarayon asosida tashkil etadi.

Bekat boshlig'inинг huquq va majburiyatları temir yo'l bekti haqidagi Nizomda belgilangan.

Katta (asosan texnik) bekatlarda boshliq bitta yoki ikkita muoviniga ega bo'ladi (texnik qism, yuk va tijorat ishi bo'yicha) (2.3- rasm).

Bekat boshlig'i poyezdlar harakati xavfsizligiga, manevr ishlari ning halokatsiz bajarilishiga, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy xavfsizligiga, bekatning tashish ishlari bo'yicha rejasi va ekspluatatsion ishlarning texnik me'yorlarini bajarishga, tashilayotgan yuklarning butligini ta'minlashga javobgardir.

Saralash va ba'zi uchastka bekatlarida texnik boshqaruv ishlarini bosh muhandis bajaradi. Unga ishlab chiqarish-texnik

bo‘lim bo‘ysunadi. Aksariyat uchastka bekatlarida bosh muhandis majburiyatlari katta muhandis zimmasiga yuklatilgan.

Saralash va katta uchastka bekatlarida bekat ichidagi operativ ishga manevr noziri boshchilik qiladi. Boshqa yirik saralash bekatlarida bekat noziri lavozimi joriy etiladi.

Ko‘pgina saralash bekatlarida tepalikdan vagonlarni tarqatish ishlarini tepalik navbatchisi boshqaradi, uning qaramog‘ida mexanizatsiyalashtirilgan tepalik operatorlari, poyezdlar tuzuvchisining yordamchisi, strelka posti navbatchisi va vagonlar harakati tezligini sozlovchilar bo‘ladilar.

Poyezdlarni qabul qilish, jo‘natish va o‘tkazish, lokomotivlarni depodan tuzilgan poyezd tarkibiga uzatish hamda o‘z hududida manevr ishlariga rahbarlik bekat navbatchisi tomonidan amalga oshiriladi.


2.4. Bekatlar ishini tashkil etish bo‘yicha asosiy hujjatlar

Bekat ishini tashkil etuvchi asosiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- bekatning texnikaviy-boshqaruv dalolatnomasi (TBD);
- bekat ishining texnologik jarayoni (TJ).

TBD texnikaviy vositalardan foydalanish tartibini belgilaydi va shu orqali poyezdlar harakati va manevr ishlarini amalga oshirish xavfsizligini ta’minlaydi. TBD da bekatdagи barcha texnikaviy vositalar — yo‘llar, strelkali o‘tkazgichlar, poyezdlar harakati bo‘yicha aloqa vositalari, SMB va yoritish qurilmalari, saralash, yuklash qurilmalari va boshqalar haqida ma’lumotlar mujassamlangan.

Undan tashqari, TBD da yo‘llarning va manevr lokomotivlari hududlarining ixtisosи, strelkali o‘tkazgichlarning strelka postlariga biriktirilishi, strelkalarning poyezdlarning harakat yo‘nalishlari bo‘yicha normal holati, signallarni boshqarish tartibi, bekat, post yoki park navbatchilarining ish tartibi va boshqalar ko‘rsatiladi. TBD ga bekatning masshtabli chizmasi ilova qilinadi. Shunday qilib, TBD bekatning texnikaviy pasportidir. U DATK tasdiqlagan shaklda bekat rahbariyati tomonidan tuziladi. Uning mazmunini harakat taftishchisi tekshiradi va MTU ning tashishni tashkil



2.3- rasm. Saralash bekatining taxminiy boshqarish chizmasi.

etish bo'limi (yo'lovchi bekatlari uchun — «O'zte-miryo'lyo'lovchi» boshlig'i) bilan kelishiladi. TBD ni saralash, uchastka, yuk va yo'lovchi bekatlari uchun DATK ning tashishni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i, boshqa bekatlar uchun MTU ning tashishni tashkil etish bo'limi boshlig'i tasdiqlaydi. Temir yo'llardan texnikaviy foydalanish qoidalari o'zgarganda yoki bekat

qayta qurilganda, SMB qurilmalari, kontakt tarmog'i va boshqalar o'zgarganda qaytadan tuziladi. Harakat grafigi o'zgarganda TBD ga tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

TBD dan ko'chirmalar bekat navbatchisida, manevr dispetcherida, strelka postlarida, lokomotiv deposi navbatchisida va vagonlarga texnikaviy xizmat ko'rsatish punktlarida bo'ladi. Peregonlardagi yordamchi postlardan xizmat ko'rsatiluvchi birikkan yo'llarda vagonlarni uzatish va yig'ishtirish tartibi bekatning TBD ga ilova qilinuvchi alohida yo'riqnomasi bo'yicha belgilanadi.

Bekat ishining texnologik jarayoni (ITJ) ish tizimini, tarkiblar va vagonlar bilan ishlash tartibini va barcha amallarni bajarish me'yorlarini belgilaydi. ITJ ilg'or ish tajribasini umumlashtirish va yangi texnikani qo'llash asosida texnikaviy vositalardan samarali foydalanish, vagonlar va poyezdlarni qisqa muddatlarda qayta ishlashni ta'minlash, yuqori ish unumдорligi va vagonlarni qayta ishslashning eng kam tannarxini ta'minlash maqsadlarida tuziladi. Ushbu hujjat bekat rahbariyati tomonidan lokomotiv va vagon depolari, yo'l, signalashtirish va aloqa, elektr ta'minoti boshliqlari ishtirokida ishlab chiqiladi. U muhim saralash va yuk bekatlari uchun DATK boshqaruvi raisi, boshqa bekatlar uchun MTU tomonidan tasdiqlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar sifatida namunaviy texnologik jarayon, me'yoriy harakat grafiklari, poyezdlar tuzish rejasiga vagon oqimlarining tavsifi, hajmi va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalilanildi. Poyezdlar harakati grafigi, poyezdlar tuzish rejasiga, bekatning texnikaviy jihozlanishi hamda vagon oqimlarining hajmi va tarkibi o'zgarganda texnologik jarayonga tegishli o'zgarishlar kiritiladi.

Bekatning ITJ asosida bekat xodimlari (bekat navbatchisi, strelka postlari navbatchilar, saralash tepaligi va bekat texnologik markazi operatorlari, poyezdlarni tuzuvchi xodimlar va boshqalar) uchun ishni tashkil etish kartalari tuziladi. Oraliq bekatlari uchun MTU ning tegishli xodimlari tomonidan terma poyezdlar bilan ishslashning texnologik kartalari ishlab chiqiladi.

Ish texnologiyasi va texnikaviy vositalardan foydalanish tartibi poyezd oqimlarining tavsifi va vagon oqimlarini qayta ishslash hajmiga hamda yuk oqimlarining tavsifiga bog'liqidir.

Poyezdlarning quyidagi turlari mavjud:


- qayta ishlanmaydigan tranzit poyezdlar. Ushbu poyezdlar bilan texnikaviy xizmat ko'rsatish, tarkibdan uzmay ta'mirlash, tijorat xizmatini ko'rsatish, lokomotiv va lokomotiv brigadasini almashlash amallari bajariladi. Poyezdning tarkibi o'zgarishsiz qoladi;
- qisman qayta ishlanuvchi tranzit poyezdlar. Ushbu poyezdlar bilan qo'shimcha ravishda tarkibning massasini o'zgartirish maqsadida vagonlar guruhini ajratish yoki biriktirish, yoki vagonlar guruhini almashlash bo'yicha manevrlar bajariladi;
- saralanuvchi poyezdlar. Ushbu poyezdning tarkibi bekatda saralanadi va vagonlarning bir qismi yangi poyezdlar tuzish uchun to'planishga qo'shiladi, bir qismi esa bekatda yuklash amallarini bajarish uchun uzatiladi. Yuklash amallari tugatilgandan so'ng ular ham yangi tuzilayotgan poyezdlar tarkibiga kiritiladi. Poyezdlarning sanab o'tilgan turlariga muvofiq ravishda vagonlarning quyidagi turlari mavjud:
- qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlar. Ushbu vagonlar bekatga qayta ishlanmaydigan va qisman qayta ishlanuvchi poyezdlar tarkibida keladi;
- qayta ishlanuvchi tranzit vagonlar. Ushbu vagonlar saralanuvchi poyezdlar tarkibida hamda qisman qayta ishlanuvchi tranzit poyezdlardan ajratib qolinuvchi saralanuvchi vagonlar guruhida keladi;
- mahalliy vagonlar. Ushbu vagonlar bilan bekatda yuklash amallari bajariladi.

2.5. Razyezdлarning ish texnologiyasi

Razyezdlar bir yo'lli liniyalarda barpo etiladi va asosan qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan poyezdlarning o'zaro kesishishi va bir yo'nalishda turli tezliklarda harakatlanayotgan poyezdlarning bir-birini quvib o'tishi uchun xizmat qiladi. Ba'zi razyezdlarda kichik hajmda yuklash amallari bajariladi. Ushbu maqsadlarda bosh yo'ldan tashqari yana birikki qo'shimcha yo'llar quriladi. Razyezdlarda xizmat texnikaviy (ba'zan yo'lovchi) binolari, yo'lovchi platformalari quriladi, SMB va aloqa, elektr ta'minoti qurilmalari bilan jihozlanadi.

Poyezdlar soni va mahalliy sharoitlarga ko'ra razyezdlarda qabul qilish-jo'natish yo'llari o'zaro bo'ylama, yarim bo'ylama va ko'ndalang joylashtiriladi (2.4- a, b, d rasm).

Sanab o'tilgan sxemalarning har birining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Bo'ylama turli sxemalarda ko'ndalang turli sxemalarga nisbatan poyezd o'tkazish qobiliyati yuqori bo'ladi. Buning sababi, qarama-qarshi yo'naliшlardagi poyezdlarni bir vaqtida qabul qilish sharoitlarining yaxshiligi; yo'llarning yetarli uzunligida esa poyezdlarning to'xtamasdan o'tkazilishi; strelkalarning soni nisbatan kamligi uchun qabul qilish va jo'natish marshrutlarini tayyorlash uchun vaqtning kam sarflanishi; har ikki yo'naliш poyezdlari lokomotivlarining yo'lovchi (yoki xizmat) bino yaqinida to'xtashi sababli bekat navbatchisi va brigadirlarning o'zaro aloqasining tezlashishidir.



2.4- rasm. Razyezdlar chizmasi: a — bo'ylama; b — yarim bo'ylama;
d — ko'ndalang yo'llarning joylashishi.

Bo'ylama chizmalarning kamchiligi razyezd qurilish uchun katta maydonning zarurligi va shu sababli qurilish sarflarining kattaligidir.

Yarim bo'ylama sxemalar bo'ylamalardan yo'llarning to'liq jildirilmaganligi bilan farqlanadi va ijobiy jihatlari ulardan bir oz kamdir, biroq ko'ndalang chizmali razyezdlarga nisbatan ko'proq poyezd o'tkazish qobiliyatlarini ta'minlaydi.


Yo'llari parallel joylashgan chizmalar yo'lovchi va yuk poyezdlari kam liniyalarda qo'llaniladi.

2.6. Quvib o'tish punktlarining ish texnologiyasi

Quvib o'tish punktlari ikki yo'lli liniyalarda barpo etiladi va asosan poyezdlarning o'zaro quvib o'tishi uchun xizmat qiladi. Ularning ba'zilarida kichik hajmda yuklash ishlari bajariladi.

Poyezdlarning o'zaro quvib o'tishi uchun har bir harakat yo'nalishida bittadan quvib o'tish yo'llari (bosh yo'llardan tashqari) quriladi. Quvib o'tish yo'llarining o'zaro ko'ndalang joylashgan chizmasi asosiy chizma bo'lib, u eng kam qurilish maydonini talab etadi. Yo'llarning o'zaro jildirilgan chizmasi mahalliy sharoitlarga ko'ra qabul qilinadi. Bunday chizma yo'lovchilarni poyezdlarga chiqarish va tushirish hamda ikki tomondan yuk ortish, tushirish maydonlarini joylashtirish uchun qulaydir. Yo'lovchi poyezdlar kam bo'lgan va yer tuzilishi murakkab sharoitlarda bir quvib o'tish yo'lli chizmalar qo'llanishi mumkin.

Quvib o'tish punktlarining ikki chekkasida harakatni to'g'ri yo'ldan noto'g'risiga o'tkazish uchun dispatcherlik syezdlari joylashtiriladi. Dispatcherlik syezdlari deb nomlanishiga sabab, poyezdlarni noto'g'ri yo'l bo'ylab jo'natish, strelkalarni ushbu syezdlarga yo'llash faqat poyezd dispatcherining ruxsati bilan



2.5- rasm. Quvib o'tish punktlarining chizmasi: a — ko'ndalang; b — yarim bo'ylama; d — bo'ylama.

amalga oshiriladi. Masalan, toq poyezdni 3- yo'ldan 2- bosh yo'l orqali jo'natish 2.5- rasmida keltirilgan.

2.7. Oraliq bekatlarning ish texnologiyasi

Temir yo'l tarmog'ida oraliq bekatlar eng ko'p sonli hisoblanadi. Ularda quyidagi amallar bajariladi:

— yo'lovchi va yuk poyezdlarni qabul qilish, jo'natish va to'xtamasdan o'tkazish;

— terma poyezdlar bilan ishlash (vagonlarni ajratish va biriktrish);

— poyezdlarning o'zaro kesishishi va quvib o'tishi;


— yuk va bagajni qabul qilish, ortish, tushirish, saqlash va topshirish (ba'zi bekatlarda tortish), yuk hujjatlarini rasmiylash-tirish, yo'lovchilarni poyezdlarga chiqarish va tushirish, chipta sotish.

Yuqorida sanab o'tilgan amallarni bajarish uchun oraliq bekatlarda quyidagilar mavjud: bosh, qabul qilish-jo'natish, yuk ortish, tushirish, tortilgan yo'llar hamda saqlash berk yo'llar, shoxobcha yo'llarning birikmalari; yo'lovchi binolari, platformalar, tonnellar yoki o'tish ko'priklari, yuk omborlari, maydon-chalari, yuk ortish-tushirish mexanizmlari; SMB va aloqa qurilmalari va boshqalar. Oraliq bekatlarning qabul qilish, jo'natish yo'llarning o'zaro bo'ylama, yarim bo'ylama va ko'ndalang joylashgan chizmalari 2.6- rasmida keltirilgan.

Oraliq bekatlaridagi asosiy ish terma poyezdlar bilan ishlashdir. Terma poyezd deb, uchastkaning oraliq bekatlarida yuklash-tushirish amallari bajariladigan vagonlardan tuzilgan poyezdga aytildi. Uchastka bo'ylab harakatlanish mobaynida ushbu poyezd oraliq bekatlarida yukdan bo'shagan va ortilgan vagonlarni yig'ib chiqadi va ularning o'rниga shu bekatlarda yuk ortish-tushirish ishlari mo'ljallangan vagonlarni tarqatadi.

Terma poyezd bilan oraliq bekatlarga keltirilgan vagonlar bilan quyidagi amallar bajariladi: poyezddan ajratish, yuk ortish va tushirish uchun uzatish, bir yuk ortish-tushirish joyidan bosh-qasiga uzatish, yuklash amallari bajarilgan vagonlarni yig'ishtirish va poyezdga ulash.

Misol tariqasida oraliq bekatida juft terma poyezd bilan ishlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz (2.6- rasm). Poyezd 6- yo'lga




2.6- rasm. Oraliq bekatlarning chizmalari ikki bosh yo'l liniyalarda:

a—ko'ndalang; b—yarim bo'ylama; d—bo'ylama: I, II—bosh;
2,3,4,6—qabul qilish-jo'natish; 7,8—tortish yo'llari; YM—yuk maydoni;
YB—yo'lovchi binasi.

qabul qilinadi. Tarkibdan ajratilgan ushbu bekatga mo'ljallangan vagonlar guruhi bilan poyezd lokomotivi tortilgan 7- yo'lga harakatlanadi. U yerdan vagonlar yuk ombori yonidagi yo'lga uzatiladi. Agar yuk ombori yonda terma poyezdga ulanuvchi vagonlar turgan bo'lsa, ularni lokomotiv bo'sh yo'lga (masalan, 4- yo'lga) olib chiqadi. Bo'sh yo'lidan lokomotiv tortilgan 8- yo'lga uzatiladi va u yerdan 4- yo'lga kirib, u yerdagi vagonlarni olib, 6- yo'lda turgan terma poyezd tarkibiga ulaydi.

Terma poyezdni tuzish bekatida vagonlar yuk tushirish bekatlari bo'yicha guruhlarga to'planadi va bu guruhlar tarkibda bekatlarning joylashish tartibida joylashtiriladi. Vagonlarni ajratish poyezdning bosh tomonidan, ular esa orqa tomonidan amalga oshiriladi (2.7- rasm). Ushbu chizma oraliq bekatlarda yuklash



2.7- rasm. Terma poyezd tarkibida vagonlarning joylashishi:

a—uchastkaga jo'naganida; b—oxirgi bekatga kelganida.

qurilmalarining joylashishiga, bekatning yo'l tarmog'iga, bekatda mavjud manevr vositalariga bog'liq ravishda o'zgartirilishi mumkin.

Oraliq bektalarda manevr ishlari terma poyezdlarning lokomotivlari, bir yoki bir necha bektalarga biriktirilgan maxsus lokomotivlar, ba'zan esa turtuvchi va chiqaruvchi lokomotivlar yordamida bajariladi. Agar oraliq bektalarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus lokomotiv ajratilgan bo'lsa, uning ishini terma poyezdlarning harakat grafigi bilan muvofiqlashtirilgan grafik bo'yicha tashkil etiladi. Shu yo'l orqali terma poyezd bilan jo'natilishi lozim bo'lgan vagonlar poyezd kelgunga qadar ulanishga tayyorligiga, terma poyezddan ajratib qolningan vagonlarning esa yuk tushirish yoki ortish uchun uzatishni kutib turib qolmasligiga erishiladi.

Bunday bektalarda manevrлarni poyezdning orqa tomonida manevr lokomotivi, bosh tomonida esa terma poyezd lokomotivi bajaradi. Lokomotiv biriktirilmagan bektalarda esa manevr ishlari terma poyezd lokomotivi yordamida bajariladi.

Terma poyezd bilan bajariluvchi amallarning namunaviy grafigi 2.8- rasmida ko'rsatilgan.

Yuk ortish va tushirish bo'yicha amallar yuk ishlari jamlanganida yanada samaraliroq tashkil etilishi mumkin. Vagon va yuklarni qayta ishslash hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, mexanizmlarni qo'llash, bekatda manevr vositalarini saqlash, tunu kun ishni tashkil etish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. Temir yo'l transporti uchun yuk ishlarini iloji boricha bektalarda ko'proq jamlash maqsadga muvofiqdir. Mijozlar uchun esa teng sharoitlarda yuk ortish-tushirish joylari ularning omborlariga yaqin bo'lishi ma'quldir. Lekin avtomobil yo'llarining va avtotransportning yetarli darajada mavjudligi, yuk ishlarining jamlanishda yuk amallarining yanada ko'proq mexanizatsiyalanishi mijozlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtida yuk ishlari tayanch bektalr deb nomlanuvchi bektalarda jamlanmoqda. Ularning soni har bir uchastkada uchbeshtadir. Shuning uchun yuklash ishlari kam hajmda bo'lgan bektalr yopilmoqda yo ular razyezdlar yoki quvib o'tish punktlariga aylantirilmoqda. Tayanch oraliq bektalarda yuk xo'jaligi rivojlantirilmoqda, yuk ishlari mexanizatsiyalash vositalari

| Amallar | Poyezd kelgunga qadar | | | | | Poyezdning bekatda bo'lishi mobaynida | | | | |
|--|-----------------------|----|----|---|----|---------------------------------------|----|----|----|----|
| | 20 | 15 | 10 | 5 | | 5 | 10 | 15 | 20 | 25 |
| Termal poyezd bilan manevr ishlari rejasini tuzish. | | | | | | | | | | |
| Ish joyi, mexanizmlar va vagonlarni tayyorlash. | | | | | | | | | | |
| Bekat navbatchisining poyezdni kutib olishi va bosh konduktorning poyezd tarkibi haqida ma'lumoti. | | | | | 2 | | | | | |
| Vagonlarni uzish, uzatish va ulash bo'yicha manevrilar. | | | | | | 15 | | | | |
| Ulangan vagonlarning texnikaviy ko'rigi. | | | | | | 10 | | | | |
| Ulangan vagonlarga hujjatlarni tayyorlash. | | | | | | | | | | |
| Bosh konduktorning idoraga borishi va hujjatlarni qabul qilib olishi. | | | | | | 5 | | | | |
| Poyezd lokomotivini ulash va avtotorozlarni tekshirish. | | | | | | 5 | | | | |
| Bosh konduktorning poyezdga borishi va jo'nash. | | | | | | | | 5 | | |
| Tarkibning umumi turish vaqtisi. | | | | | 27 | | | | | |

2.8- rasm. Oraliq bekatda terma poyezd bilan bajariluvchi amallarning namunaviy grafigi.

bilan jihozlanmoqda. Bu bekatlarga poyezd tuzish brigadasi bilan manevr lokomotivlari biriktirilmoqda.

Tayanch bekatlar mavjud bo'lganda uchastkaning mahalliy ishiga xizmat ko'rsatish sxemasi o'zgaradi. Terma poyezdlardan vagonlarni uzib qolish va ulash amallari faqat tayanch bekatlarda amalga oshiriladi.

Bu yerda nafaqat tayanch bekatning vagonlari uzib qolinadi, balki tayanch bekatga biriktirilgan yuk amallari uchun ochiq bo'lgan qo'shni oraliq bekatlarning vagonlari ham uzib qolinadi. Tayanch bekatning manevr lokomotivi yoki uchastkaning mahalliy ishini tashkil etish uchun ajratilgan dispatcherlik lokomotivlari biriktirilgan oraliq bekatlarga vagonlarni tarqatib chiqadi.

2.8. Uchastka bekatlarining tuzilishi va vazifalari

Uchastka va terma poyezdlarni tuzish va tarqatishga, vagonlarning texnikaviy yoki nazorat ko‘ruvini o‘tkazishga, yuk va bagajni ortish va tushirishga, yo‘lovchilarни wagonlarga chiqarish va tushirishga xizmat qiluvchi bekatlar **uchastka bekatlari** deb nomlanadi.

Uchastka bekatlari lokomotivlarning aylanma punkti; lokomotivlarni ta’mirlash asosiy deposi; brigadalarni almashlash punkti bilan birga bo‘lishi mumkin.

Asosiy yo‘llarning soniga ko‘ra uchastka bekatlari bir yo‘lli yoki ikki yo‘lli bekatlar hisoblanadi. Parklarining o‘zaro joylashuviga ko‘ra, uchastka bekatlarining bo‘ylama, ko‘ndalang va yarim bo‘ylama turlari mayjud (2.9- rasm).

Uchastka bekatlarida yo‘lovchi va yuklarni tashish bo‘yicha barcha amallar bajariladi: bular tranzit poyezdlar bilan ishslash, tarkiblarni tarqatish va tuzish, lokomotivlar va poyezd brigadalarini almashlash, yo‘lovchi chiptalarini sotish, yo‘lovchilarни wagonlarga chiqarish va tushirish, yuk va bagajni ortish va tushirishdir.

Uchastka bekatlarida tranzit poyezdlar bilan ishslashda tarkiblarning texnikaviy va tijorat ko‘ruvi, lokomotivlar va brigadalarni almashlash, vagonlarni tarkibdan ajratmay ta’mirlash asosiy amallar hisoblanadi. Vagon oqimlarini qayta ishslash kam miqdorda bajariladi va asosan mahalliy poyezdlar — uchastka, terma va chiqaruvchi poyezdlarni tarqatish va tuzish bilan cheklaniladi. Sanab o‘tilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi qurilmalar mayjud:

- yo‘l tarmog‘i — qabul qilish-jo‘natish, saralash, yuk ortish-tushirish, depo yo‘llari va boshqalar;
- saralash qurilmalari — tepachalar, tortish yo‘llari;
- vagon xo‘jaligi — texnikaviy xizmat ko‘rsatish, avtotormozlarni nazorat qilish punktlari, vagonlarni ta’mirlash qurilmalari;
- lokomotiv xo‘jaligi — lokomotivlarni ta’mirlash va jihozlash punktlari, energiya ta’minoti qurilmalari;
- yuklash qurilmalari — ochiq va yopiq platformalar, sochiluvchi yuklar, konteynerlar uchun maydonchalar, omborlar, vagon tarozisi, gabarit darvozasi va boshqalar; bu qurilmalar yuk saroyida joylashadi;
- yo‘lovchi qurilmalari — yo‘lovchilar binosi, platformalar va o‘tish joylari, bagaj xonalari va boshqa yordamchi qurilmalar.

SMB (signallashtirish, markazlashtirish, blokirovka) va aloqa qurilmalari; bulardan tashqari bekatlarda yoritish, yong'inga qarshi qurilmalar hamda texnik xizmat ko'rsatish binolari, bekat navbat-chisi xonasi, texnikaviy kontora, strelka postlari va boshqalar mavjud.

Uchastka bekatlari qabul qilish-jo'natish va saralash parklari bilan jihozlanadi. Ish hajmi katta bekatlarda tranzit poyezdlarni qabul qilish va jo'natish uchun alohida yo'llar ajratiladi.


Qabul qilish-jo'natish parkida manevr lokomotivlarining parking bir tomonidan ikkinchisiga o'tishi poyezd lokomotivlarini depoga yoki depodan o'tkazish uchun yurish yo'llari hamda ko'p guruhli poyezdlar bilan ishlash uchun tortish yo'llariga qulay chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan yo'llar ajratiladi.

Bekat ishining aniq va xavfsizligini ta'minlashning asosiy sharti yo'llarni ixtisoslashdir, ya'ni yo'llarni ma'lum amallarni bajarish uchun biriktirishdir.

Saralash yo'llari poyezdlar tuzish rejasiga muvofiq ixtisos-lashtiriladi. Unda poyezdlar tuziluvchi manzillar soni va quvvati, yuk ishlarining hajmi hisobga olinadi. Har bir manzil uchun bittadan yo'l ajratiladi, vagon oqimlari katta manzillar uchun saralash yo'llarining soni yetarli miqdorda bo'lganda ikkitadan yo'l ajratiladi.

Saralash parkida yuklash obyektlariga yukini tushirish uchun uzatiluvchi mahalliy vagonlarga ham yo'llar ajratiladi. Ushbu parkda ta'mirga muhtoj nosoz vagonlar uchun ham alohida yo'l ko'zda tutilishi mumkin. Vagonlarni qayta ishlashni jadallashtirish maqsadida uchastka bekatlarida tortish yo'llari saralash parki tomon nishab qilib quriladi. Tortish yo'llari qabul qilish-jo'natish va saralash parkiga chiqish imkoniyatiga ega bo'lib, poyezd harakatidan chegaralangan bo'lishi kerak.

Uchastka bekatlarida kundalik qayta ishlanuvchi vagonlar soni 300 va undan ko'p bo'lsa, kam quvvatli saralash tepaliklari, tepachalar yoki maxsus profilli tortish yo'llari bilan jihozlanadi. Saralash parki bo'g'izining iloji boricha qisqaroq bo'lishini ta'minlash maqsadida ular 1/6 va undan tikroq markali simmetrik strelkali o'tkazgichlar bilan jihozlanadi. Saralash parki bo'g'izining qisqarishi tepalik balandligining va tormoz vositalari zaruriy quvvatiga bo'lgan talabning kamayishiga, bekatning qayta ishlash qobiliyatining oshishiga olib keladi. Bir yo'lli liniyadagi ko'ndalang turdag'i uchastka bekatining namunaviy sxemasi 2.9- rasmida keltirilgan.



2.9- rasm. Bir bosh yo'lli ko'ndalang turdag'i uchaстика stansiyasi.

- YB** — yo'lovchi binosi;
Q.Q-J — qabul qilish-jo'natish parki;
SP — saralash parki;
LX — lokomotiv xo'jaligi;
YUH — yuk hovlisi.

2.8.1. Tranzit poyezdlar bilan ishlashning texnologik jarayoni

Texnologik jarayon vagon va tarkiblar bilan ishlash bo'yicha amallarni bajarish tartibini belgilovchi ishlar tizimini va ularni bajarish me'yorlarini aniqlaydi. Texnologik jarayon poyezdlar va vagonlar bilan ishlashning eng kam vaqtini, yuqori ish unum-dorligini, vagonlarni qayta ishlashning eng kam tannarxini, texnikaviy vositalar va bekat shtatidan samarali foydalanishni ta'minlashi kerak. U ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlari negizida tuzilishi lozim.

Saralash va uchastka bekatlaridan o'tuvchi tranzit poyezdlar ikki turga bo'linadi: qayta ishlovsiz tranzit poyezdlar va qisman qayta ishlanuvchi tranzit poyezdlar. Qisman qayta ishlanuvchi tranzit poyezdlar, o'z navbatida, massasi o'zgartiriluvchi, yo'nalishi o'zgartiriluvchi va ko'p guruhli poyezdlarga bo'linadi.

Tranzit poyezdlar maxsus tranzit parklarga yoki jo'natish parklariga qabul qilinadi. Tranzit poyezdlar qabul qilinuvchi yo'llar ehtiyoj qismlar uchun tokchalar, tarkibni jo'nashga tayyorlash uchun zarur qurilmalar, avtotormozlarni sinash uchun havo o'tkazgichlar, yuqori tovushli aloqa va so'zlashuv kolonkalari bilan jihozlanadi.

Poyezd kelgunga qadar poyezd dispatcheri bekatga uning raqami, kelish vaqtini va manzili haqida ma'lumot uzatadi. Kelayotgan poyezdni uni sozlash bilan bssog'liq bo'lgan bekat xodimlari kutib oladilar.

Qayta ishlovsiz tranzit poyezdlar bilan bekatda quyidagi amallar bajariladi: vagonlarning texnikaviy va tijorat ko'ruvi, vagonlarni ta'mirlash, brigadalarni almashlash, ba'zi bekatlarda lokomotivlarni almashlash va avtotormozlarni sinash va boshqalar. Massasini o'zgartiruvchi va guruhlarini almashlovchi poyezdlar uchun huj-jatlarni taxtlash va natura varaqalarini rasmiylashtirish ishlari bajariladi.

Tarkiblarning texnikaviy ko‘rigi vagonlarning, ularning avtotormoz jihozlarining texnikaviy holatini tekshirish, nosozliklarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Nosoz vagonlar tarkibdan ajratilmay ta’mirlanadi yoki maxsus ta’mirlash yo‘llarida va depoda ta’mirlash uchun uzatiladi.

Tarkiblarning tijorat ko‘rigiga yuklarning ochiq harakatdagi tarkibga to‘g‘ri joylashishi va mahkamlanishini, vagonlarning eshiklari va lyuklari to‘g‘ri yopilib mahkamlanganligini va plomba-larning butunligini, sisternadan yukning oqmayotganligini, vagonning holatini tekshirish kiradi.

Texnikaviy va tijorat ko‘riklarini hamda vagonlarni tarkibdan ajratmay ta’mirlashni texnikaviy xizmat punkti (TXP) xodimlari bajaradi. Texnikaviy va tijorat jihatdan poyezdlar bilan ishlash amallarini ikki va undan ortiq guruhdan iborat brigada amalga oshiradi. Brigada tarkibiga nosozliklarni aniqlovchilar va ularni bartaraf etuvchi chilangar-ta’mirchilar kiradi.

Vagonlarning yuk hujjatlari lokomotiv brigadasida saqlanadi. Ushbu hujjatlar plombalangan holda lokomotiv brigadasiga GU-48 shaklidagi kitobga imzo chekib topshiriladi. Bekatda lokomotiv brigadalari o‘zgartirilganda yangi hujjatlarni bekatga kelgan lokomotiv brigadasidan bevosita qabul qilib oladi. Qabul qilish va topshirish jarayoni mashinist marshrutlarida vaqtini ko‘rsatgan holda imzolanadi. Poyezdning qayta ishlov bekatiga kelganida texnikaviy kontora xodimi yoki park navbatchisi lokomotiv brigadasidan hujjatlarni qabul qiladi, hujjatlarning ushbu poyezdga mosligini, ularning butligini tekshiradi va hujjatlarni qabul qilgani haqida mashinist marshrutiga imzo chekadi.

2.10- rasmda qayta ishlovsiz tranzit poyezd bilan ishlashning texnologik grafigi keltirilgan.

Havo o‘tkazish tarmog‘i bo‘lmagan bekatlarda tranzit poyezdlar bilan ishlash vaqtini kamaytirish maqsadida poyezd bilan kelgan lokomotiv darhol yangisi bilan almashtiriladi. Yangi lokomotiv texnikaviy ko‘rik bilan parallel ravishda avtotormozlar sinovini o‘tkazadi. Poyezd bilan ishlash vaqt 20–25 daqiqagacha kamaytirilishi mumkin. Tranzit poyezdni qisman qayta ishlashda tarkibning texnikaviy va tijorat ko‘rigidan so‘ng manevr lokomoti-

vi vagonlar guruhini ajratish va ulash bo'yicha manevrlarni bajaradi. Ulanuvchi vagonlar guruhi poyezd kelgunga qadar tayyor bo'lishi, texnikaviy va tijorat ko'riklaridan o'tkazilishi va parkning biror yo'lida turishi kerak. Vagonlarni ajratish va ulash bo'yicha manevr amallari 10 daqiqa davom etishi mumkin. Qisman qayta ishlanuvchi tranzit poyezdlar bilan ishslashning umumiy vaqt 35–40 daqiqani tashkil etadi.

2.8.2. Qayta ishlanuvchi poyezdlar bilan ishslash texnologiyasi

Qayta ishlanuvchi poyezdlar bilan bekatda quyidagi amallar bajariladi: bular poyezdning kelishi bo'yicha amallar, tarqatish, vagonlarning to'planish, tuzish, jo'natish bo'yicha amallardir (2.11- rasm).

Poyezdning kelishiga qadar tayyorgarlik ishlari olib boriladi: aloqa tarmoqlari bo'yicha qo'shni texnikaviy bekatdan tarqatish uchun kelayotgan poyezdning telegramma-naturkasi olinadi, undagi ma'lumotlarga asoslanib poyezdlarning tarqatish va tuzish ishlari rejalashtiriladi. BTM da telegramma-naturkada har bir vagon raqami qarshisiga tarqatilgandan so'ng to'planish yo'li raqami yoziladi. Belgilangan telegramma-naturka asosida texnikaviy kontora xodimi saralash varaqasi tuzadi. Saralash tepaligisiz bekatlarda saralash varaqasi poyezd tuzuvchilarga, vagonlar harakati tezligini rostlovchilarga, agar strelkalar markazlashtirilgan bo'lsa, markazlashtirish posti operatoriga hamda texnikaviy xizmat ko'rsatish punkti xodimlariga tarqatiladi.

Poyezdning kelishi bo'yicha amallar tarqatish bo'yicha manevrlarning boshlanishiga qadar bajariladi va ularga tarkibning texnikaviy va tijorat ko'rige tomonidan tarkibni tekshirish, poyezd hujjatlarini qabul qilish va pochta orgali texnikaviy kontoraga jo'natish, tarkibni ajratish joylarida avtotormoz yenglarini uzish kabilar kiradi.

Texnikaviy kontora xodimi tarkibni qayta ishslash bilan bir vaqtida telegramma-naturkaning to'g'ri belgilanganligini tekshiradi. Qayta ishlanuvchi poyezdlar bilan bajariladigan texnologik jarayon 2.10- rasmida keltirilgan.

2.8.3. Bekatda tuzilgan poyezd bilan ishlash texnologiyasi

Saralash parkida vagonlar to‘planishi tugallanib, poyezd tuzilgandan so‘ng tarkib qabul qilish-jo‘natish yoki jo‘natish parkiga chiqariladi. Ushbu parkda tarkib bilan jo‘natish bo‘yicha amallar bajariladi.

Bekatda tuzilgan poyezd bilan ishlash amallariga quyidagilar kiradi:

- nazorat texnikaviy ko‘rigi va vagonlarni ajratmay ta’mirlash;
- nazorat tijorat ko‘rigi va tijorat nosozliklarini bartaraf etish;
- avtotormozlar ko‘rigi va sinovi;
- hujjatlarning, natura varag‘i tuzilishining va tarkib massasi hisobining to‘g‘riligini tekshirish;
- lokomotiv brigadasi tomonidan hujjatlarni qabul qilib olinishi.

| Amallar | Poyezd kelishidan avval | Poyezd kelgandan so‘ng | | | | Ijrochilar | |
|---|-------------------------|------------------------|----|----|----|-------------------------------------|--|
| | | Vaqt, daqiqa | | | | | |
| | | 0 | 10 | 20 | 30 | | |
| Poyezd bilan ishlashda ishtirok etuvchi xodimlarga poyezdning raqami, kelish vaqt va qabul qilish yo‘li haqida ma‘lumot berish. | | | | | | Bekat navbatchisi | |
| Poyezd lokomotivini ajratish va avtotormozlarni bo‘shatish. | | 2 | | | | Lokomotiv brigadasi, TKP xodimlari. | |
| Lokomotiv brigadasidan yuk hujjatlari va natura varag‘ini qabul qilish | | 5 | | | | Bekat navbatchisi. | |
| Tarkibning texnikaviy ko‘rigi va vagonlarni ta’mirlash. | | 20 | | | | TKP xodimlari | |
| Tijorat ko‘rigi va tijorat nosozliklarini bartaraf etish. | | 20 | | | | Qabul qilib-topshiruvchilar. | |
| Poyezd lokomotivini ulash, avtotormozlarni sinash, yuk hujjatlarni qabul qilish va jo‘nash. | | | | | 10 | Lokomotiv brigadasi, avtotormoz | |
| Umumiy vaqt. | | | | 30 | | | |

2.10- rasm. Lokomotivlari almashlanuvchi va vagonlarning yirik ta’miri bajariluvchi tranzit poyezdlar bilan ishslashning texnologik grafigi.

| Amallar | Poyezd kelishi-dan avval | Poyezd kelgandan so'ng | | | | | Ijrochilar | |
|--|--------------------------|------------------------|----|----|----|----|---------------------------------------|--|
| | | Vaqt, daqiqa | | | | | | |
| | | 0 | 5 | 10 | 15 | 20 | | |
| Qo'shni bekatdan poyezdning jo'natilgani haqida xabarni olish va bekat texnologik markaz (BTM) va texnik ko'rlik punkti (TKP) xodimlariga poyezdning raqami, kelish vaqt va qabul qilish yo'li haqida ma'lumot berish. | | | | | | | Bekat navbatchisi. | |
| Poyezdning qabul yo'liga u bilan ishlashda qatnashuvchi xodimlarning chiqishi. | | | | | | | TKP xodimlari, TK operatori. | |
| Poyezd lokomotivini uzish, avtotormozlarni bo'shatish. | | 2 | | | | | Lokomotiv brigadasi, TKP xodimlari. | |
| Signallarni olish. | | 2 | | | | | Signalchi. | |
| Kelgan poyezdning yuk hujjatlarini BTK ga yuborish. | | 2 | | | | | Lokomotiv brigadasi (bosh konduktor). | |
| Poyezd tarkibini radioaloqa yordamida tekshirish (terma poyezd uchun ko'chirib olish), natura varag'ini belgilash va uni manevr dispetcheriga uzatish. | | | 10 | | | | TK xodimlari. | |
| Tarkibning texnikaviy va tijorat ko'rigi, avtotormoz yenglarini ajratish va ilib qo'yish. | | | 15 | | | | TKP xodimlari | |
| Bekat dispetcheridan (DSSS) vagonlarning saralashda tarqatilishi bo'yicha o'zgartirishlarni olish, saralash varaqalarini tuzish va uni kerakli xodimlarga tarqatish. | | | | 8 | | | Manevr dispetcheri, BTK xodimi. | |
| Umumiyl vaqt. | | | | 20 | | | | |

2.11- rasm. Qayta ishlanuvchi poyezd (shu jumladan, terma poyezd) bilan telegramma-naturka bo'lmagan holda ishslashning texnologik grafigi.

| Amallar | Tarkibni jo'natishga tayyor- lashning boshlani- shiga qadar | Jo'natishga tayyorlash | | | | | | Ijrochilar | |
|--|--|------------------------|----|----|--|----|--|-------------------------------------|--|
| | | Vaqt, daqiqa | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |
| Tarkibdagi vagonlar raqamini ko'chirish va hujjatlarni tayyorlash. | | | | | | | | Bekat navbatchisi, BTM xodimi. | |
| Tarkibni texnikaviy va tijorat ko'rigiga taqdim etish. | | | | | | | | Bekat navbatchisi, operator. | |
| Tarkibni texnikaviy va tijorat ko'rigidan o'tkazish va nosozliklarni bartaraf etish. | | | | 20 | | | | TKP xodimlari. | |
| Tarkibni tekshirish, natura varag'ini rasmiylashtirishni tugallash va hujjatlarni taxtlash. | | 10 | | | | | | BTM xodimi. | |
| Poyezd lokomotivini ularash, avtotormozlarni sinash, yuk hujjatlarini qabul qilish va jo'nash. | | | | | | 10 | | Lokomotiv brigadasi, TKP xodimlari. | |
| Umumi vaqt. | | | 30 | | | | | | |

2.12- rasm. Bekatda tuzilgan poyezd bilan ishslashning namunaviy texnologik grafigi.

Nazorat texnikaviy ko'rigi va vagonlarni ajratmay ta'mirlash lokomotiv ulangunga qadar yakunlanishi kerak.

Tuzish bekti xodimlariga tuzilgan poyezdnинг texnikaviy va tijorat jihatidan sozligi, yuklarning ochiq harakat tarkibiga to'g'ri joylashtirilganligi va mahkamlanganligi, hujjatlarning to'liqligi va to'g'riliqi, natura varag'ining to'g'ri tuzilganligi, vagonlarning tarkibda to'g'ri joylashtirilganligi va biriktirilganligi bo'yicha majburiyat yuklatiladi. Poyezdni jo'natish bo'yicha amallar yuk hujjatlarini muhrlangan holda mashinistga imzo qo'yib topshirish bilan tugallanadi. Terma, chiqaruvchi poyezdlarning yuk hujjatlari mashinist (bosh konduktor)ga muhrlanmay topshiriladi.

Bekatda tuzilgan poyezd bilan ishslashning namunaviy texnologik grafigi 2.12- rasmda keltirilgan.

2.9. Saralash bekatlarining vazifalari va ularning asosiy qurilmalari

Saralash bekatlarining asosiy vazifasiga yuk poyezdlarini tarqatish va tuzish kiradi. Ulardan tashqari, saralash bekatlarida tranzit poyezdlar bilan ishlash amallari, lokomotiv va brigadalarni almashlash bajariladi.

Ushbu bektalarda yo'lovchi va yuklash amallari juda kam miqdorda bajariladi yoki umuman bajarilmaydi. Bunday amallar, asosan, uzelda joylashgan maxsus yo'lovchi va yuk bekatlarida bajariladi.


Sanab o'tilgan vazifalarni bajarish uchun saralash bekatlarida quyidagilar mavjud bo'ladi: qabul qilish, jo'natish, saralash parklari, ba'zan tranzit poyezdlar uchun maxsus parklar, saralash qurilmalari (saralash tepaliklari, tepachalari, tortish yo'llari), signallashtirish, markazlashtirish, blokirovka (SMB) qurilmalari, aloqa va yoritish qurilmalari, lokomotivlarga xizmat ko'rsatish va vagonlarni ta'mirlash qurilmalari, texnik xizmat binosi va xonalari, zarur hollarda yo'lovchi va yuklash amallarini bajarish uchun qurilmalar.

Qabul qilish parki, saralash tepaligi, saralash parki, tortish yo'llari va jo'natish parkidan iborat qurilmalar majmuasi **saralash majmuasi** deb ataladi (2.12- rasm).

Manevr qurilmalarining turiga qarab saralash bekatlari tepalikli va tepaliksiz (shu jumladan, tepachali bekatlar) turlarga bo'linadi. Saralash majmuasi soniga ko'ra saralash bekatlarining bir tomonli (bir saralash majmuali) va ikki tomonli (ikki saralash majmuali) turlari mavjud.

Bir tomonli saralash bekatidagi saralash majmuasida bekatga birikuvchi barcha yo'naliishlarga xizmat ko'rsatiladi. Ikki tomonli saralash bekatlarida esa har bir saralash majmuasi harakat yo'naliishlari bo'yicha ixtisoslashtiriladi.

Parklarning o'zaro joylashuviga qarab qabul qilish, saralash va jo'natish parklari, ketma-ket joylashgan saralash bekatlari, parklari parallel joylashgan saralash bekatlari va parklari ketma-ket parallel joylashgan saralash bekatlari mavjud.



T — *tranzit parki;*
J — *jo 'natish parki;*

*S - saralash parki;
OO - qabul ailish parki;*

LX — lokomotiv xo'jaligi;
VX — wagon xo'jaligi.

2.13- rasm. Bir tomonli saralash bekatining chizmasi:

1—jo'natish bo'yicha navbatchi posti; 2—texnik xizmat ko'rsatish punkti;
 3—kompressor xonasasi; 4—to'xtash punkti; 5—tuzish bo'yicha navbatchi
 posti; 6—markaziy boshqarish posti; 7—sarakash tepaligi;
 8—pnev mopochtaning qabul qilish punkti; 9—teletayp posti.

2.9.1. Saralash tepaliklari va ularning ishini tashkil qilish

Saralash bekatlarida vagonlarni og'irlik kuchi yordamida saralash uchun tepaliklar quriladi. Saralash tepaligi saralash bekatining asosiy qismidir. Uning ish unumdorligiga butun bekatning ish unumdorligi bog'liq. Tepalikning balandligi saralash parkidagi yo'llarning soni, vagon oqimlari tavsifi va ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Tepalik balandligi yengil bo'sh vagonning noqulay ob-havo sharoitlarida saralash parkining hisobli nuqtasigacha yetib borishi sharti bo'yicha hisoblanadi. Hisobli nuqta eng chekka yo'lning chekllovchi ustunchasidan keyin 100 m masofada belgilanadi.

Tortish yo'llari maydonchada yoki kichik nishablikda joylashadigan bo'lsa, saralash bekatida tepalik yo'li profili o'rakshaklida bo'ladi. Bu yo'lning cho'qqisi (yoki o'rakchi) saralash tepaligini ikki qismga bo'ladi: qabul qilish parki tomonidan tarkib tepalikka siljitaladigan siljitish qismi, saralash parki tomonidan ajratmalar tarqatiluvchi tushirish qismi. Tepalikning siljitish qismi cho'qqidan avval keskin qiyalikka (8-10 %) ega bo'lib, bu yerda tarkib qismlarga ajratiladi.


Tepalik cho'qqisidan saralash parki tomon 30—50 m masofada keskin nishablik bo'lib, u tezlantirish nishabligi deb ataladi.

Saralash tepaligi cho'qqisidan saralash parkining eng oxiri joylashgan strelkasining cheklovchi ustunchasigacha bo'lgan qismi strelka zonasi deb ataladi. Saralash parki yo'llari har biri 4—8 tadan bo'lgan guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar saralash parkining bosh qismini tashkil etadi (2.14- rasm).


Ajratma tepalik cho'qqisidan oshib o'tgandan so'ng vagonlarning og'irlik kuchi ta'siri ostida lokomotivning ishtirokisiz saralash parki tomon harakatini davom ettiradi. Tepacha deb ataluvchi balandligi katta bo'lman saralash tepaliklarida vagonlarning og'irlik kuchi yetarli bo'lmay, lokomotivning qo'shimcha turtkisi ham zarur bo'ladi. Tarkibni tepalik orqali tarqatish tortish yo'llari-da bajarishdan tezroq amalga oshiriladi. Shu sababli tepalikli saralash bekatlarining qayta ishslash qobiliyati tepaliksiz bekat-larnikidan bir necha bor ortiqdir.

Tepalik mexanizmlari, markazlashtirilgan strelka va signallarni boshqarish tepalik postlaridan turib amalga oshiriladi. Vagonlarning og'irliklari, harakatlanish qobiliyatlarini turlicha bo'lganligi uchun ularning tepalikdan tushish tezliklari turlichadir. Tepalikdan tushayotgan vagonlarning bir-biriga yetib olmasligi uchun ularning tezliklari rostlanadi. Bunday rostlash tushayotgan vagonlarning saralash parkida turgan vagonlarga xavf tug'dirmasligini ta'minlash uchun ham zarurdir.

Plan



Profil



2.14- rasm. Saralash tepaligining plani va profili.

Shunday qilib, saralash tepaligidan tushayotgan ajratmalarining harakat tezligini rostlash strelkalarni o'tkazish uchun ular orasidagi ma'lum masofani saqlash (interval tormozlash) hamda ularning saralash parkida turgan vagonlarga xavfsiz yaqinlashishi tezligini ta'minlash va saralash parkining ma'lum joyida to'xtash (maqsadli tormozlash) uchun zarurdir.

Saralash tepaligidan tushayotgan ajratmalarining tezligini rostlash uchun tormoz vositalarining ikki turi mavjud: vagon sekinlashtirgichlar va tormoz boshmoqlari.

Mexanizatsiyalashgan tepalikli saralash bekatlarida tarkiblarni tarqatish jarayonida tepalik navbatchisi, boshqaruvi va ijro postlari operatorlari, tepalik lokomotivlari soniga ko'ra 2—3 nafar poyezd tuzuvchisi yordamchilari, vagonlar harakati tezligining bosh rostlovchisi, saralash parkining tezlik rostlovchilari ishtirok etadilar.

Saralash bekatida tepalik navbatchisi tarqatish jarayoniga rahbarlik qiladi, tepalik ishining hisobini olib boradi, saralash parkida vagonlarni zichlash ishlarini tashkil etadi. Tepalik navbatchisi tarkibni tarqatishdan avval saralash varaqasida ajratmalarini tormozlash tartibiga mos belgilarni qo'yadi. Tarkibni tarqatish jarayonida ijro postlari operatorlari ajratmalar orasida ma'lum masofani saqlash va saralash parkining belgilangan joyida to'xtashi uchun vagon sekinlashtirgichlari yordamida ajratmalarini tormozlaydilar.

Tepalikdagi poyezd tuzuvchisi yordamchilari saralash varag'iga muvofiq ravishda vagonlarni ajratadilar. Tepalik navbatchisi har safar tarkib tepalik cho'qqisiga kelganda yuqori tovushli aloqa yordamida tarkibni tarqatishda ishtirok etuvchi xodimlarni tarkibni tarqatish boshlangani haqida ogohlantiradi. Vagonlar harakati tezligining bosh rostlovchisi yuqori tovushli aloqa yordamida saralash varag'i ma'lumotlariga ko'ra ish hajmi bilan vagonlar harakati tezligini rostlovchilar brigadasini tanishtiradi.

Saralash tepaligidan tushayotgan ajratmalar turli tormozlash sharoitlari va vagonlarning turli yurish xususiyatlariga ko'ra saralash yo'lining duch kelgan joyida to'xtashi mumkin. Shu sababli saralash yo'lida turgan ajratmalar orasida ma'lum masofalar paydo bo'lishi mumkin.

Shu masofalarni bartaraf etish maqsadida tepalikdan 3—4 tarkib tushirilgandan so'ng saralash parki yo'llarida vagonlarni zichlash amalga oshiriladi.


2.9.2. Saralash tepaliklarida poyezdlarni tarqatish-tuzish

Poyezdni kelishi bo'yicha ishlash amallari tugagandan so'ng tepalik lokomotivi tarkibning orqa tomonidan birikadi, uni tepalik cho'qqisi tomon suradi va tarqatish jarayonini boshlaydi (2.15- rasm).

Uch-to'rt tarkib tepalikdan tushirilgandan so'ng saralash parki yo'llarida vagonlarni zichlash amallari bajariladi.

Shunday qilib, tarkibni saralash tepaligi orqali tarqatish amallari bir necha alohida amallarga bo'linishi mumkin. Bular:

- tepalik lokomotivining qabul qilish parkiga kelib, tarkibga ulanishi;
- tarkibni tepalik cho'qqisigacha surish;
- tarkibni tepalikdan tushirish;
- saralash parki yo'llarida vagonlarni zichlash.



2.15- rasm. Tarkibni saralash bo'yicha tepalik operatsiyalari
bajarilishi texnologiyasining chizmasi:

- 1—tepalik lokomotivining tarkibga ulanishi;
2—tarkibning ulanishi; 3—tarkibni tushirish; 4—vagonlarni zichlash.

Ushbu amallar har bir saralash tepaligi uchun tepalikning rejasи, profili, qabul qilish parki yo'llari tarmog'i va boshqalarga ko'ra alohida me'yorlanadi.

Qabul qilish va saralash parklari ketma-ket joylashganda, saralash tepaligida bir manevr lokomotivi ishlaganda tarkibni tushirishning umumiy vaqtı quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$T_T = t_u + t_s + t_T + t_z \text{ daqiga.}$$

Bunda: t_u — tepalik lokomotivining qabul qilish parkiga kelib tarkibga ulanish vaqt;

t_s — tarkibni tepalik cho'qqisiga surish vaqt;

t_t — tarkibni tepalikdan tushirish vaqt;

t_z — saralash park yo'llarida vagonlarni zichlash vaqt.

Tepalik lokomotivining qabul qilish parkiga kelib tarkibga ulanish vaqt:

$$t_u = 0,06 \cdot \frac{l^I u + l^{II} u}{v_u} + t_x \text{ daqiga.}$$

Bunda: l^I_u , l^{II}_u — ulanish yarimreyslarning uzunligi, m;

v_u — o'rtacha ulanish tezligi, km/s;

t_x — tepalik lokomotivining harakatni o'zgartirish vaqt.

Tarkibni tepalik cho'qqisiga surish vaqt:

$$t_s = 0,06 \cdot \frac{l_s}{v_s} \text{ daqiga.}$$

Bunda: l_s — surish yarimreysining uzunligi, m;

v_s — o'rtacha surish tezligi, km/s.

Tarkibni tepalikdan tushirish vaqt:

$$t_m = 0,06 \cdot \frac{m_l \cdot l_b}{v_l} \cdot \left(1 - \frac{1}{2\partial} \right) \text{ daqiga.}$$

Bunda: m_l — tarkibdagi vagonlar soni;

l_b — vagonning o'rtacha uzunligi;

∂ — tarkibdagi uzilmalar soni;

v_l — o'rtacha tushirish tezligi.

Saralash parki yo'llarida vagonlarni zichlash vaqt:


$$t_z = 0,06 \cdot m_t \text{ daqiga.}$$

Qabul qilish, saralash va jo'natish parklari ketma-ket joylashgan saralash bekatidagi tepalikda bir manevr lokomotivi ishlaganda tepalik ishining namunaviy texnologik grafigi 2.16- rasmda keltirilgan.

Saralash tepaligining vagonlarni bir zichlash amallari bajarilgandan keyingi zichlash amallari tugaguncha tarkiblar guruhini tarqatish bo'yicha amallar bilan band bo'lish vaqt tepalikning **texnologik davriyili** (T_d) deb ataladi.

Tepalikning ikki tarkibni tarqatish oraliq‘ida lokomotivning tarkibga ulanishi, tarkibni tepalik cho‘q qisigacha surish, uni tepalikdan tushirish, tarkibni tuzish va zichlash amallarini hisobga olgan holda band bo‘lish vaqt tepalikning **texnologik oraliq‘i** t_o^T deb ataladi va u tepalikning texnologik davriyilagini bir davriylik mobaynida tarqatilgan tarkiblar soniga (N_d) bo‘lish orqali topiladi:

$$t_o^T = \frac{T_d^T}{N_d}$$



2.16- rasm. Bir lokomotivda tepalik ishining namunaviy texnologik grafigi.

2.10. Saralash tepalik ishining ko‘rsatkichlari

Saralash tepalik ishining texnologik jarayoni sifatini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni qo‘llash tavsiya etiladi: saralash tepalik ishining texnologik davriyili — T_d^T .

2.16- rasmda keltirilgan tepalik ishining namunaviy texnologik grafigi bo‘yicha 58 daqiqaga teng.

Tepalikning texnologik oraliq‘i — t_o^T .

2.16- rasmda keltirilgan grafik bo‘yicha:

$$t_o^T = \frac{58}{3} = 19,3 \text{ daqiqa.}$$

Tepalik ishining sur’ati N_s — qabul qilingan ish texnologiyasi bo‘yicha bir soat davomida tepalikdan tushirilgan poyezdlar soni:

$$N_s = \frac{60}{t_o^T} \text{ poyezd/soat.}$$

2.16- rasmida ko'rsatilgan texnologik grafik bo'yicha:

$$N_s = \frac{60}{19,3} = 3,1 \text{ poyezd/soat.}$$

Tepalikning qayta ishlash qobiliyati n_s — tepalikdan tushirilgan eng ko'p vagonlar soni.

$$\text{Soat davomida } n_s = \frac{60}{t_o^T} \cdot m_T \text{ vagonlar.}$$

Agar tarkibdagi vagonlar soni $m_T = 50$ bo'lsa, unda:

$$n_s = \frac{60}{19,3} \cdot 50 = 155 \text{ vagon.}$$

Sutka davomida

$$n_s = \frac{(\alpha_T \cdot 1140 - \sum t_{TT}) m_T}{\mu_q \cdot t_o^T} \text{ vagon.}$$

Bunda: α_T — tepalikdan foydalanishda hisobga olinadigan ehtimoliy tanaffuslar koeffitsiyenti;

$\sum t_{TT}$ — tepalik ishida sutka davomidagi umumiy texnologik tanaffuslar;

μ_q — qisman vagonlarni qayta tushirish koeffitsiyenti.

$$n_s = \frac{(0,97 \cdot 1440 - 90) 50}{1,05 \cdot 19,3} = 3230 \text{ vagon.}$$

Tepalik mexanizmlaridan foydalanish koeffitsiyenti — tepalikdan tarkibni tushirish vaqtining tepalik texnologik oralig'i vaqtiga nisbatidir. 2.16-rasmida keltirilgan grafik uchun:

$$K_{Tm} = \frac{8}{19,3} = 0,41.$$

Tepalik lokomotivlaridan foydalanish koeffitsiyenti — tarkibni tushirish bo'yicha lokomotivning foydali ish hissasidir:

$$K_{T.L} = \frac{\sum MT_{f,i}}{\sum MT_T}.$$

Bunda: $\Sigma MT_{f,t}$ — tepalikda jami lokomotivlarning sutka davomidagi foydali ish vaqt;

ΣMT_T — tepalikda lokomotivning sutka davomida umumiy turish vaqt.

2.11. Saralash bekatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (SBBAT)

SBBAT hozirda temir yo'llarda joriy etilayotgan temir yo'l transportini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (TTBAT) tarkibiy qismidir.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ABT)ning vosita va usullari samarali va yuqori unumli texnologiyalarga o'tishi uchun keng imkoniyatlар yaratilmoqda.

SBBAT yordamida quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilmoqda:

- poyezdlar kelishi bo'yicha ma'lumotlar bilan ishslash va tarkiblarni tarqatishga tayyorlash;
- vagonlarning saralash yo'llarida mavjudligi va joylashishini to'xtovsiz hisobga olish va poyezdlarni jo'natishga tayyorlash;
- bekat ishini rejalashtirish;
- poyezdlarni tuzish bo'yicha axborot va topshiriqlar bajarilishi sifatining nazorati;
- bekat hisobotini tuzish.

Aloqa kanallari orqali EHM ga real vaqt mashtabida saralash uchun kelayotgan poyezdlarning telegramma-natura varaqalari (TNV), kelayotgan poyezdlar vagonlarining hamda jo'natish parkiga uzatilayotgan tarkiblar vagonlarining raqamlari, boshqa tezkor ma'lumotlar (vagonlar haqidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar, poyezdlarning kelishi va ketishi bo'yicha aniq vaqtlar, saralash tepaligida tarkiblarni tarqatish vaqt, saralash yo'llari ixtisosligining o'zgarishi haqida ma'lumotlar va boshqalar) kelib tushadi.

Kelayotgan poyezdlar tarkiblari haqidagi ma'lumotlar asosida EHM da ularni qabul qilish va tarqatish, poyezd tuzish va bekat ishini rejalashtirish amalga oshiriladi.

EHM yordamida quyidagi texnologik hujjatlar tuziladi:

- saralash varaqalari;

- to‘planish qaydnomalari;
- tuzilayotgan poyezdlarga natura varaqasi;
- poyezd lokomotivlari mashinistlariga ma’lumotnomalar;
- bekat va saralash tepaligi ishi haqida tezkor hisobotlar.


Bundan tashqari bekat, MTU va boshqarma hamda qo’shni saralash bekatlari xodimlarining axborot ta’mnoti amalga oshiriladi.

ABT ning terminal qurilmalari (teletayp, display) yordamida BTM, yuk kontorasi va DSP operatorlari dialog tartibida EHM ga poyezd tarkibi, poyezd va vagonlar bilan bajarilgan amallarning (kelishi, saralanishi, tuzishni tugallash, jo‘natish, tarkibni o‘zgartirish va boshqalar) vaqt va joyi haqida ma’lumotlar beriladi, poyezd, vagonlar haqida EHM ga ilgari kiritilgan ma’lumotlarga o‘zgartirishlar kiritiladi.

SBBAT manevr ishlari bo‘yicha doimiy axborotlarni (me’yoriy-so’rov ma’lumotlari), poyezdlar, vagonlar bilan bajarilgan amallar haqidagi tezkor xabar (o‘zgaruvchan axborot)larni hamda poyezdlarning kelishi va ketishini rejalashtirish bo‘yicha xabarlarni o‘ziga jam etgan.

SBBAT sharoitlarida bekatlarda ABT ning tashkiliy sxemasi 2.17- rasmida keltirilgan.

TNV EHM lararo bevosita uzatilganda tarkib vagonlari raqamini ko‘chirmaslik mumkin. Birikkan uchastkalarda yuk ortish-tushirish ishlarini va saralash bekatida terma, uchastka, chiqaruvchi va uzatuvchi poyezdlarga TNV larni olishni ham avtomatlashtirish zarurdir.



2.17- rasm. Bekatda ABT ni tashkil etish chizmasi:

1—bekat axborot markazi; 2—vagonlar raqamini ko‘chirish;
3—tashqi xotira qurilmalari majmuasi.

SBBATni yanada takomillashtirish qator vazifalarni amalga oshirishni va, birinchi navbatda, optimallashtirish (poyezdlar kelishining bashorati, poyezdlarni qabul qilish va saralash tartibini rejalashtirish, uzoqroq manzillarga poyezdlar tuzish va boshqalar), temir yo'l miqyosidagi ABT poyezdlar haqidagi ma'lumotlarni tayyorlash va uzatishni avtomatlashtirish masalalarini hal etishni talab etadi.

Kelajakda hujjatlar vagonda yuklar bilan yoki pochta orqali jo'natilganda BTM faoliyatiga bo'lgan zarurat deyarli to'xtatiladi. SBBAT ni to'liq hajmda yaratish quyidagi ikki bosqichdag'i tizimni barpo etish orqali amalga oshiriladi:

- quyi bosqichda texnologik jarayonlarni tashkiliy boshqarishni avtomatlashtirish;
- ijro jarayonlarini boshqarish.

Bunga esa tarkiblarni saralash tepaligi orqali tarqatishning avtomatlashtirilgan tizimi qo'llanilgandagina erishish mumkin.

2.12. Bekat texnologik markazining ishini tashkil etish

Saralash, yirik uchastka, yuk, texnikaviy yo'lovchi bekatlarida bekat texnologik markazi (BTM) faoliyat ko'rsatadi. Poyezdlarni saralash-tuzish ishlari kam hajmda bo'lgan bekatlarda poyezd va vagonlarning hujjatlari bilan ishlovchi hamda bekat tezkor xodimlarining axborot ta'minoti bo'yicha ishlarni bajaruvchi xodimlarining katta bo'lman texnologik guruhlari tashkil etiladi. Yirik bekatlar BTM larida poyezdlarning kelishi bo'yicha hujjatlar bilan ishlovchi operatorlarning hamda poyezdlarni saralash-tuzish jarayonlari va ularni jo'natishga tayyorlash bilan band bo'lgan operatorlarning alohida texnologik guruhlari tuziladi. Ushbu texnologik guruhlar saralash tepaligi yonidagi binoga joylashtiriladi. Ko'pchilik bekatlarda bu binoda axborot markazi hamda BTM ning hisobot guruhi ham joylashtiriladi.

BTM binosi yonida manevr dispetcheri (DSS), saralash tepaligi navbatchisi (DSPG) va tepalik operatorlari joylashtiriladi.

BTM da quyidagi asosiy amallar bajariladi:

- poyezdlar, vagonlar va yuklarning yaqinlashishi haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash;

- poyezdlarning kelishi va jo‘natilishi bo‘yicha qayta ishlash hamda poyezd hujjatlarini rasmiylashtirish;
- saralash yo‘llari va yuk ortish-tushirish punktlarida vagonlarning mavjudligi va joylashishi bo‘yicha raqamli hisobni uzlusiz olib borish;
- kelayotgan mahalliy vagonlarning tashish hujjatlarini yuk kontorasiga uzatish va u yerdan yuklangan vagonlarning tashish hujjatlarini qabul qilib olish;
- saralanuvchi tarkiblarga saralash varaqalarini tuzish;
- poyezd tuzish rejasining, tarkiblarni tuzish bo‘yicha texnikaviy foydalanish qoidalari talablarining belgilangan og‘irlilik va poyezd uzunligi me’yorlarining bajarilishini nazorat qilish;
- vagonlarning bekatdan o‘z vaqtida jo‘natilishini nazorat qilish va tashish hujjatlarining butligini ta’minalash;
- boshqa bekatlarga poyezdlarning jo‘natilishi haqidagi ma’lumotni jo‘natish va yuk oluvchiga yukning kelganligi va vagonlarni yuk tushirish uchun uzatish haqida xabar berish;
- belgilangan shaklda hisob va hisobotni olib borish.

Tuzilgan poyezdlarga o‘z vaqtida natura varaqalarini tayyorlash, tashish hujjatlarini taxtlash maqsadida BTM operatorlari saralash yo‘llarida vagonlarning mavjudligi va joylashishi bo‘yicha tinimsiz raqamli hisobni olib boradilar.

Har bir saralash yo‘lida vagonlarning to‘planishi mobaynida BTM operatori (to‘plovchi) ularning soni (massasi) bo‘yicha yakunlarni hisoblaydi va dispetcherga xabar beradi.

2.13. Bekat ishini tezkor rejalashtirish

Bekatning poyezd va yuk ishlari rejaga asosan tashkil etiladi. Tezkor rejalashtirish zaruriyati temir yo‘ldagi ish sharoitining va ayrim yuklash sutkalarida yuk oqimlarining ko‘payishi natijasida vujudga keladi. Yuklarni jo‘natish, pog‘onali marshrutlar va yiriklashtirilgan vagonlar guruhini tashkil etish transport tarmoqlari bo‘yicha yuklash rejasining ortig‘i bilan bajarilishi, yuklashni va vagonlar parkini tartibga solish va boshqa o‘zgarishlar natijasida aniqlanadi. Bunday shartlarni oldindan uncha katta bo‘limgan vaqt oralig‘ida (smena yoki sutka) hisobga olish, tuzish poyezdlar harakati grafigini va tashish rejasini bajarishda texnik vositalarni

qanday ishlatishni aniqlashga imkon beradi. Bularning barchasi tezkor rejalashtirishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bekat ishlarini rejalashtirishda asos bo‘lib, smena rejasini xizmat qiladi, unga asosiy ma’lumot bo‘lib: mintaqaviy temir yo‘l uzeli-ning sutkali reja-topshirig‘i, poyezdlarning kelishi haqidagi ma’lumot, smena boshlanishi vaqtidagi bekatning holati xizmat qiladi. Smena rejasini bekat boshlig‘i yoki uning muovini alohida har smena uchun tuzadi.

Smena rejasini tuzish uchun quyidagi ma’lumotlar kerak bo‘ladi: bekatdagi qayta ishlashga kelgan poyezdlar va jo‘natishga tayyor poyezdlarning borligi, bekat yo‘llarining bandligi; yuklangan va bo‘sh vagonlarning borligi, ularning reja tuzish yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanishi; mahalliy vagonlarning borligi, ularning yuk tushirish va ortish yo‘llariga berilishi; manevr loko-motivlarning borligi va holati.

Saralash bekatining smena ish rejasida: qabul qilish, buzish va tuzish uchun poyezdlar soni; smenada jo‘natiladigan poyezdlar raqami, poyezd oqimiga beriladigan vagonlar topshirig‘i; saralash platformada, konteyner maydonida, yuk saroyining qayta yuklash yo‘lida va boshqalarda ishlov berish, yuk ortish va tushirish topshirig‘i; vagonlarni yuvish va ayrim yuklarni yuklash uchun vagonlarni jihozlash topshirig‘i nazarda tutilgan.

Uchastka bekatining smena ish rejasida: smenaning umumiyligi topshirig‘i, poyezdlarni qabul qilish-jo‘natish, tarkiblarni tarqatish va tuzish, yuk ishlari va maxsus topshiriqlar nazarda tutilgan.

Yuk bekatlari smena ish rejasiga qabul qilish, tarqatish, tuzish, poyezdlarni va uzatmalarni jo‘natish, jo‘natuvchi va zinali marshrutlarni tashkil etish; alohida shoxobcha yo‘llarida va alohida umumiyligi foydalanish joylarida ortish va tushirish; qayta ortish, saralash va boshqa amallar bo‘yicha topshiriqlar kiradi.

Smena ish rejasini amalga oshirish bekat dispetcheriga, agar bunday lavozim bo‘lmasa, bekat navbatchisiga topshiriladi.

Mintaqaviy temir yo‘l uzeli tomonidan bekatga yuboriladigan sutkali reja topshiriqda: sutka davomida poyezdlarni qabul qilish va jo‘natish, yuklarni ortish, tushirish, qayta yuklash, tushirishdan bo‘shagan vagonlarni jo‘natish topshirig‘i hamda vagonlarni yuvish, maxsus tashishlar uchun vagonlarni jihozlash va boshqa

topshiriqlar nazarda tutiladi. Sutkali rejada umumiy topshiriqlardan tashqari sutkaning birinchi yarmida bajariladigan ishlar ham ko'rsatiladi.

2.14. Bekat ishining sutkali reja-grafigi

Bekat ishining sutkali rejasi — bu poyezd va vagonlarni bekat asosiy qurilmalari yordamida qayta ishlash texnologik jarayonini grafik ravishda tasvirlashdir.

Grafik ravishda tasvirlashda bekatning sutkali ishi davomida asosiy jarayonlarning o'zaro munosabatlarini tekshirish imkoniyati yaratiladi, bunda ayrim elementlarning nozik tomonlarini, lokomotivlar yoki boshqa texnik vositalarning zaruriyatini aniqlash mumkin.

Reja-grafik — bu bekatning qayta ishlash va o'tkazish qobiliyatini asosiy strelka rayoni orqali aniqlashga yordam beradigan chizma hisobidir.

Reja-grafikda poyezdlarning kelish-ketishi belgilanadi; qabul qilish, tranzit va jo'natish parklarining bandligi; saralash-tuzish bo'yicha ishlari; saralash parkida vagonlarning yig'indisi; yuk saroyiga vagonlarni berish, olib chiqish; yuk tushirish va ortish punktlarida va saralash yo'llaridagi sutkaning boshlanishi hamda oxiridagi vagonlarning qoldig'i ko'rsatiladi. Sutkali reja-grafigi bekatning texnologik ish jarayoni, texnikaviy-boshqaruvalar dalo-latnomasi, poyezdlar harakati grafigi va poyezdlar tuzish rejasiga asosan tuziladi. Poyezdlar oqimining miqdori o'zgarishida reja-grafikning variantlari tuziladi.

Uchastka bekatining reja-grafigi 2.18- rasmida keltirilgan. Grafikning to'ridagi yon chiziqlar bekatning element va qurilmalari — yo'l, tepalik, yuk obyektlari, manevr lokomotivlarining ishlari, tik chiziqlar esa sutkaning soat va daqiqa vaqtлari. Har bir yon chiziqlarda yo'llarning poyezdlar yoki vagonlar bilan bandligi ko'rsatiladi. Reja-grafikda manevr lokomotivlarning ishi ham ko'rsatiladi.

Sutkali reja-grafik harakat grafigi va poyezdlar tuzish rejasi o'zgartirilganda hamda bekatning texnikaviy-boshqaruvalar dalo-latnomasi va bekat texnologik ishlari jarayoniga o'zgartirishlar kiritilganida qayta tuziladi.

Reja-grafikka asosan bekatning quyidagi ko'rsatkichlar hisobi olinadi: qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlarning turish me'yori; qayta ishlanadigan tranzit vagonlarning turish me'yori; mahalliy vagonlarning turish me'yori; bir yuk operatsiyasiga to'g'ri keladigan mahalliy vagonning turish vaqtisi, ikkilamchi yuk operatsiyasining koeffitsiyenti, bekatning sutkali vagon aylanmasi; manevr lokomotivlarining ishlatish koeffitsiyentlari; poyezdlarni tarqatish vaqtida tuzilgan poyezdlar foizi; bekat ayrim elementlarining o'tkazish va qayta ishslash qobiliyati; bir lokomotivning soat mobaynida qayta ishlagan vagonlar sonini aniqlash.

2.15. Bekat ishining asosiy ko'rsatkichlari

Bekat ishining ko'rsatkichlari kundalik reja-grafik yordamida aniqlanadi. Kundalik reja-grafik bekatning tranzit va mahalliy vagon oqimlarini qayta ishslash bo'yicha ishining grafik tasviridir. 2.18- rasmida uchastka bekatining kundalik reja-grafigidan parcha keltirilgan.

Reja-grafikda quyidagilar ko'rsatiladi:


- poyezdlarning kelish va ketish vaqtisi;
- qabul va jo'natish parklari yo'llarining ular bilan bandligi;
- saralash tepaligi va tepalik lokomotivlarining ishi;
- saralash parki yo'llarida vagonlarning to'planishi;
- manevr lokomotivlarining ishi—poyezdlar tuzishni tugallash va ularni jo'natish parkiga uzatish;
- vagonlarni yuklash punktlariga uzatish va yig'ishtirish;
- tortilgan yo'llarning, asosiy strelka va bo'g'izlarning bandligi;
- saralash parki yo'llarida va yuklash punktlarida vagonlarning manzillar bo'yicha kun boshidagi qoldig'i.

Bekat ishining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- yuk ortish (vagonlarda va tonnada);
- yuk tushirish (vagonlarda va tonnada);
- vagon aylanmasi;
- bekatning ishchi parki;
- tuzilgan, jo'natilgan poyezdlar va vagonlar soni;
- yuki tushirilgan bo'sh vagonlarni topshirish;

— vagonlarning turish vaqt; vagonlarni qayta ishlash tannarxi.

Tuzilgan, jo'natilgan poyezdlar va vagonlarning soni faqat texnikaviy va maxsus yuk bekatlarida aniqlanadi. Tuzilgan poyezdlar soni faqat umuman emas, balki uning turlari bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Jo'natilgan poyezdlar va vagonlar ham yo'nalishlar bo'yicha ajratilishi mumkin.



Shartli belgilari:

- ▲ — qabul qilish va jo'natishda marshrutning bandligi;
- — tarkiblarni, vagonlarni ko'chirib qo'yish;
- 2001 — tranzit poyezdga ishlov berish;
- 3405 — o'zida tuzilgan poyezdga ishlov berish;
- 3001 — saralashga kelgan poyezdga ishlov berish;
- vagonlarni yig'ish;
- tarkibni saralash va tuzish;
- tushirish va yuklash.

2.18- rasm. Uchastka bekat ishining sutkali reja-grafiqi.

Yuki tushirilgan bo'sh vagonlarni topshirish ko'rsatkichi bekatning vagon turlari bo'yicha yuki tushirilgan nechta vagonni jo'natish (topshirish) kerakligini aniqlaydi.

Vagon aylanmasi — bu vagon amallar yig'indisidir. Saralash va uchastka bekatlari uchun vagon-amallar deb, qabul qilingan va jo'natilgan vagonlar yig'indisiga aytildi, oraliq bekatlar esa ajratilgan va biriktirilgan vagonlar sonidir. Bu ko'rsatkich asosida boshqa ko'rsatkichlar, masalan, ishchi park hisoblanadi hamda bekat vagon oqimlariga umumiy tavsif beriladi. Vagonlar o'rtacha turish vaqtin o'rtacha solishtirma qiymat sifatida aniqlanadi:

$$t = \frac{\sum nt}{\sum n} \text{ soat.}$$

Bunda: $\sum nt$ — turish vagon-soatlari;

$\sum n$ — umumiy vagonlar soni.

Bekatlarda, odatda, qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlarning turish vaqtin t_{tr} , qayta ishlanuvchi tranzit vagonlarning turish vaqtin t_{per} , ularning o'rtacha solishtirma qiymati t_{tex} , mahalliy vagonning turish vaqtin t_m va bir yuklash amalga to'g'ri keluvchi mahalliy vagonning turish vaqtin t_yu hisoblanadi.

Tranzit vagonning o'rtacha solishtirma turish vaqtin:

$$t_{tex} = \frac{\sum n_{tr} t_{tr} + \sum n_{per} \cdot t_{per}}{\sum n_{tr} + \sum n_{per}} \text{ soat.}$$

Mahalliy vagonning o'rtacha turish vaqtin:

$$t_m = \frac{\sum n_m t_m}{\sum n_m} \text{ soat.}$$

Bunda: $\sum n_m t_m$ — yuklash amallarida ishtirok etuvchi vagonlarning turish vagon-soatlari;

$\sum n_m$ — mahalliy vagonlar soni.

Mahalliy vagonlarning ma'lum bir qismi bilan faqat bir yuklash amali (ortish yoki tushirish) bajarilsa, qolgan qismi bilan ikkilangan yuklash amallari bajariladi. Shu sababli turish vaqtin ushbu amallar soniga bog'liqdir va bir yuklash amaliga to'g'ri keluvchi mahalliy vagonlarning turish vaqtin hisoblanadi:

$$t_u = \frac{\sum n_m t_m}{U_o + U_t} \text{ soat.}$$

Bunda: $U_o + U_t$ — yuklash amallarining soni.

Ba'zi hollarda avval bir mahalliy vagonga to'g'ri keluvchi turish vaqtini t_m , keyin esa bir yuklash amaliga to'g'ri keluvchi turish vaqtini hisoblanadi:

$$t_{yu} = \frac{t_m}{K_n} \text{ soat.}$$

Bunda: K_n — ikkilamchi yuklash amallari koeffitsiyenti.

$$K_n = \frac{U_o + U_t}{\sum n_m}.$$

Ishchi park n_u^m bekatda kun mobaynida nechta vagon mavjudligini ko'rsatadi:

$$n_u^m = \frac{n_{per}^r \cdot t_{per}^m + n_{tr}^r \cdot t_{tr}^m + n_m^r \cdot t_m^m}{24} \text{ vagon - sutka.}$$

Bunda: n_{per}^r , n_{tr}^r , n_m^r — bekatga rejadagi o'rtacha keluvchi qayta ishlanuvchi tranzit, qayta ishlanmaydigan tranzit va mahalliy vagonlar soni;

t_{per}^m , t_{tr}^m , t_m^m — mos ravishda qayta ishlanuvchi tranzit, qayta ishlanmaydigan tranzit va mahalliy vagonlarning o'rtacha turish vaqtini me'yori, s.

1- masala. A bekatiga har kuni 32 tranzit poyezdi va 32 qayta ishlanuvchi poyezd keladi. Ularning tarkibi o'rtacha 60 vagondan iborat. Bekatga bir kunda yuk tushirish uchun 150 vagon keladi va 50 vagon c'rtiladi. Tranzit vagonning o'rtacha turish vaqtini: $t_{tr}^m = 0,6 \text{ s}$; qayta ishlanuvchi tranzit vagonning o'rtacha turish vaqtini: $t_{per}^m = 6 \text{ s}$; mahalliy vagonning bir yuk amallarida turish vaqtini: $t_{per}^r = 10 \text{ s}$, ikkilangan yuk amallarida turish vaqtini esa $t_{gr}^r = 16 \text{ s}$. Bekatda mavjud vagonlarning turlari bo'yicha va umumiy soni (ishchi park) aniqlansin.

Yechish. Qayta ishlovsiz tranzit vagonlar soni:

$$n_{tr} = \frac{32 \cdot 0,6 \cdot 60}{24} = 54 \text{ vagon.}$$

Qayta ishlanuvchi tranzit vagonlar soni:

$$n_{per} = \frac{(36 \cdot 60 - 150) \cdot 6}{24} = 503 \text{ vagon.}$$

Mahalliy vagonlar:

$$n_m = \frac{100 \cdot 10 + 50 \cdot 16}{24} = 75 \text{ vagon.}$$

Bekatda 150 vagon yuki tushirilib, faqat 50 ta vagon yuklan-gani sababli, qolgan 100 vagon bekatdan bo'sh holda jo'natiladi.

A bekatida vagonlarning ishchi parki:

$$n_i = n_{tr} + n_{per} + n_m = 54 + 503 + 75 = 632 \text{ vagon.}$$

2- masala. Quyidagi dastlabki ma'lumotlar yordamida bekatdagi vagonlar ishchi parki topilsin: $n_{tr} = 500$ vagon; $n_{per} = 5200$ vagon; $n_m = 110$ vagon; $t_{tr} = 0,6$ s; $t_{tex} = 6$ s; $t_m = 20$ s..

Yechish. Vagonlarning ishchi parkini aniqlash uchun qayta ishlanuvchi tranzit vagonlarning turish vaqtini hisoblanishi kerak:

$$t_{tex} = \frac{\sum n_{tr} t_{tr} + \sum n_{per} \cdot t_{per}}{\sum n_{tr} + \sum n_{per}}.$$

Ushbu ifodadan:

$$\sum n_{tr} t_{tr} = t_{tex} (\sum n_{tr} + \sum n_{per}) - \sum n_{tr} t_{tr} = 6 \cdot (500 + 5200) - 500 \cdot 0,6 = 33900 \text{ vagon-soat.}$$

Bu qiymatdan foydalangan holda:

$$n_i = \frac{500 \cdot 0,6 + 33900 + 110 \cdot 20}{24} = 1517 \text{ vagon bo'ladi.}$$

Qayta ishlanuvchi tranzit va mahalliy vagonlarning turish vaqtini raqamlı yoki raqamsiz usullarda, qayta ishlovsiz tranzit vagonlarning turish vaqtini esa ularning bekatda amalda turgan vaqtini bo'yicha hisobga olinadi. Hisobning raqamli usuli vagon aylanmasi kuniga 50 vagondan kam bo'lgan bekatlarda qo'llaniladi. Har bir vagonning umumiylar turish vaqtini butun soatgacha yaxlitlanadi (30 daqiqagacha bo'lgan vaqt tashlab yuboriladi, 30 daqiqadan ortig'i esa butun soatga teng qilib qabul qilinadi).

Raqamsiz usulda esa (vagon aylanmasi kuniga 50 vagondan ortiq), vagonlarning turish vaqtini soat davrlari bo'yicha hisobga olinadi. Unda maxsus kitobda soat davrlari bo'yicha kelgan n_k va jo'natilgan n_j vagonlar hamda har bir soat bo'yicha ularning

qoldig'i ko'rsatiladi. Shu sababli bekatda kun mobaynida turgan vagonlarning shartli soni:

$$n = \frac{O_1}{2} + n_k - \frac{O_2}{2} \text{ vagon.}$$

Bunda: O_1 — kun boshida vagonlar qoldig'i;

n_k — kelgan vagonlar soni;

O_2 — kun oxirida vagonlar soni.

$$O_2 = O_1 + n_k - n_j \text{ vagon.}$$

n_j — kun mobaynida jo'natilgan vagonlar soni.

O_2 ning qiymatini avvalgi ifodaga qo'yib, bekatda kun mobaynida mavjud bo'lgan vagonlar sonini topamiz:

$$n = \frac{n_k + n_j}{2} \text{ vagon.}$$

Raqamli hisobda vagonlarning bekatda turish o'rtacha vaqt:

$$t_{o'r} = \frac{\sum nt}{(n_k + n_j)/2} = \frac{2 \sum nt}{n_k + n_j} \text{ soat.}$$

Bunda: $\sum nt$ — kun mobaynidagi vagon-soatlar.

2.16. Bekat ishining tahlili

Bekat ishining tahlili kamchiliklarni aniqlash, ishdagi qiyin bo'g'inlarni belgilash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, ilg'or ish tajribalarini qo'llash imkoniyatlarini aniqlash maqsadlarida amalga oshiriladi. Tahlil uchun hisob va hisobotning birlamchi hujjatlaridan foydalaniлади.

Bekatda quyidagilar tahlil etiladi:

- poyezd va yuk ishlari rejasingin bajarilishi;
- vagonlar, lokomotivlar, texnikaviy qurilmalardan foydalanish;
- bekat, manevr dispetcherlari, bekat navbatchisi ishining tezkor boshqaruvi natijalari;
- bekatning alohida bo'g'inlari va turli xizmatlar xodimlari ishining hamkorligi.

Tahlilning tezkor (smena va kun), davriy (dekada, oy), maqsadli turlari amalga oshiriladi.

Bekat ishining tezkor tahlili bekat boshlig'i yoki uning muovini tomonidan kunda ikki marotaba har bir smena tugagandan so'ng smena rahbarlarining hisoboti mobaynida o'tkaziladi. Bunda ish rejasি va texnologik jarayonlarning buzilish holatlari aniqlanadi, ish yakunlari muhokama etiladi. Bekatning kundalik ishi tahlili mobaynida bekatda kundalik rejaning bajarilishi baholanadi va turli smenalarning ishi taqqoslanadi; yuk ortishning umuman va alohida jo'natuvchilar bo'yicha, yuk turlari va yo'nalistilar (manzil temir yo'llar) bo'yicha rejaning bajarilishi, yuk tushirish rejasиning umuman va muhim yuk qabul qiluvchilar bo'yicha bajarilishi ko'rib chiqiladi; tarqatilgan va tuzilgan poyezdlar soni, shu jumladan, bo'sh marshrutlar soni topshiriq bilan taqqoslanadi, poyezdlarni qabul qilish va jo'natish rejalarining bajarilishi va poyezdlar tuzish rejasiga poyezdlar massasi va uzunligi me'yorlariga amal qilish, har bir manzilga tuzilgan va jo'natilgan poyezdlar soni, jo'natilgan poyezdning o'rtacha massasi va umuman, bekat, smena bo'yicha vagonlarning turish me'yorlarining bajarilishi tekshiriladi.

Davriy tahlilni bekat muhandisi (bosh muhandis) amalgam oshiradi va unda xo'jalik faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha smenali va kundalik tahlillarning natijalari umumlashtiriladi, bekat ishini yaxshilash maqsadida tashkiliy-texnikaviy choralarни ko'rish belgilanadi.

Maqsadli tahlil bekatning alohida uchastkasining ishini churroq o'rganish maqsadida, muhim topshiriqlarni bajarish davrini yakunlashda va zarurat taqozosi bilan bajariladi.

2.17. Bekat ishini jadallashtirish

Saralash bekti ishini jadallashtirishning asosiy yo'nalistilariga quyidagilar kiradi:

— saralash tizimlarining, alohida saralash va boshqa bekat qurilmalarining (saralash tepaligi, tortish yo'llari, park bo'g'izlari va boshqalar) quvvatini oshirish. Hisoblar shuni ko'rsatadiki, saralash tizimi, saralash tepaligi qanchalik yirik bo'lsa, bir vagonga to'g'ri keluvchi qayta ishlash qobiliyatining hamda bekat qurilmalarini qurish va ulardan foydalanishga bo'lgan chiqimlarning sarfi shunchalik kichik bo'ladi;

— batamom yakunlangan texnologik jarayonlarni qamrab oluvchi mashinalar tizimiga o'tish.

Zamonaviy avtomatlashtirilgan saralash tepaliklari quyidagi boshqaruv tizimlarini o'z ichiga oladi:

— ajratma tepalikdan tushish tezligini rostlash avtomat tizimi;

— tarkiblarni tarqatishning tezligini belgilashning avtomat tizimi tepalik lokomotivlarini teleboshqarish bilan birgalikda;

— ajratmalarining ixtisoslashgan yo'llarga yo'naltirilishining nazorat tizimi.

Ushbu tizimlarda bir xildagi dastlabki ma'lumotlardan ko'plab foydalaniadi. Shu sababli saralash tepaligini avtomatlashtirishning barcha tizimlarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunga esa saralash tepaliklarida EHM keng qo'llanilgandagina erishish mumkin;

— texnologik amallarni bajarishni tezlashtirish va ularning parallellik darajasini oshirish, ketma-ket bajariluvchi amallar orasidagi uzilishlarni bartaraf etish. Bunga signallarning joyini o'zgartirish, uzun rels zanjirlarini bo'laklarga bo'lish, manevr lokomotivlari mashinistlarining signallarini yaxshiroq ko'rishi uchun sharoitlar yaratish va shu kabi tadbirlarni amalga oshirish orqali erishiladi;

— kam amalli texnologiyalarni rivojlantirish: bekatlar yo'il tarmog'ining ilg'or sxemalariga o'tish (parallel sxemadan ketma-ketga o'tish), ko'p guruhli poyezdlar tuzish uchun maxsus qurilma va texnologiyalarni joriy etish, axborotni qayta ishlash uchun EHM ni joriy etish;

— saralash tepaliklarining qayta ishlash qobiliyatlarini oshirish va qayta ishlanuvchi tranzit vagonlarning turish vaqtini kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni joriy etish.

Bunda, eng avvalo, bekatdan tashqari quyidagi omillar hisobiga qurilmalarning unumdorligini oshirish ko'zda tutiladi: bekatga poyezdlarni olib kelish va tayyor tarkiblarni jo'natish sharoitlari, turli yuklar bilan manevrlarni bajarishning belgilangan qoidalari va boshqalar.

Saralash bekatlarida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashni ta'minlovchi texnikaviy vositalarni takomillashtirish, ularning ishonchlilagini oshirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ajratish punktlariga nimalar kiradi?
2. Bekatlarning qanday turlari bor?
3. Bekatlarning sinflarga bo'linishi qanday?
4. Bekat ishining boshqaruv tizimi qanday?
5. Bekat ishini tashkil qilishning asosiy hujjatlariga nimalar kiradi?
6. Razyezdlarning va quvib o'tish punktlarining ish texnologiyasi qanday?
7. Oraliq bekatlarining ish texnologiyasi qanday?
8. Oraliq bekatlarida terma poyezdlar bilan qanday amallar bajariladi?
9. Uchastka va saralash bekatlarida qanday qurilmalar bor?
10. Saralash tepaligining ishi qanday tashkil qilinadi?
11. Saralash tepaliklarida poyezdlarni tarqatish-tuzish texnologiyasi qanday?
12. Bekat ishini tezkor rejalashtirish qanday bajariladi?
13. Bekat ishlarining sutkali reja-grafigini tuzishdan maqsad nima?
14. Bekat ishining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
15. Bekat ishining tahlili nima uchun kerak?

III BOB. MANEVR ISHLARI

3.1. Asosiy tushunchalar

Temir yo'l transportida harakatdagi vagonlar tarkibining bar-cha harakatlari poyezd va manevr turlariga bo'linadi. Harakatdagi tarkibning peregonlarda poyezd tarkibida ishlayotgan lokomotivlar va tegishli belgilari bilan jihozlangan holda harakatlanishi poyezd harakatlanishi deb ataladi. Harakatdagi tarkibning, vagonlar guruhi yoki alohida vagonning hamda alohida lokomotivning bekat yo'llari bo'ylab poyezd va vagonlar bilan ishlash, yuk ortish va tushirish ishlarini ta'minlash va boshqa amallarni bajarish maqsadida harakatlanishi manevr harakatlanishi deb ataladi. Manevr ishlarining asosiy qismini: yuklash joylariga vagonlar uzatishni, yig'ishtirishni, joyini o'zgartirishni, tarkiblarni tarqatishni va yangi poyezdlarni tuzishni, vagonlarni ta'mirlashga uzatish va yig'ishtirishni va boshqa amallarni bajarishni ta'minlovchi ixtisoslashgan manevr lokomotivlari bajaradi. Manevr ishlarini poyezd lokomotivlari yordamida ham bajarish mumkin (masalan, uchastkada terma poyezdlar tarkibiga vagonlar ulanganda yoki uzib qolinganda).

Manevr ishlarini bevosita tuzish brigadasi va manevr lokomotivi brigadasi bajaradi. Tuzish brigadasi tarkibi ikki kishidan iborat: poyezd tuzuvchi va uning yordamchisi. Manevr lokomotivi brigadasiga mashinist va uning yordamchisi kiradi. Ba'zi bekatlarda MTU boshlig'inining ruxsati bilan poyezd tuzuvchisi yordamchisiz ishlashi mumkin. DATK raisi belgilangan tartibda, ba'zi hollarda manevr lokomotivi mashinistiga yordamchisiz ishlashga ruxsat etiladi. Manevrlarning to'g'ri bajarilishiga poyezd tuzuvchisi javobgardir. Faqat uning ko'rsatmalariga muvofiq manevr lokomotivi brigadasi manevr harakatlarini amalga oshiradi.

Bekat yo'llari bo'ylab manevrlarni bekatning texnikaviy-boshqaruв dalolatnomasida ko'rsatilgan tartibda faqat bekat

navbatchisi, manevr dispatcheri, park yoki yo'llar navbatchisi boshqaradi.

Manevr harakatlarining aksariyati qisqa masofalarda (bir necha o'n yoki yuz metr) va nisbatan kichik tezliklarda bajariladi. Poyezdlarni tarqatish va tuzish bo'yicha manevr ishlari harakat yo'nalishini ko'p marotaba o'zgartirib harakatlanishlar xosdir. Manevrlar nafaqat vagonlar guruhi (poyezdlarni tarqatish va tuzish), balki alohida vagonlar bilan ham (yuklash joylariga vagonlarni uzatish va yig'ishtirish, oraliq bekatlarda manevr ishlari) bajariladi.

3.2. Manevr ishlaring turlari

Bekatga keluvchi poyezdlar tarkibi shu bekatda yuk ortiluvchi yoki tushiriluvchi vagonlar (mahalliy vagonlar) va shu bekatda tuziluvchi boshqa poyezdlar tarkibiga kiritiluvchi vagonlardan iboratdir. Ushbu vagonlarni manziliga muvofiq ravishda to'planish yo'llariga taqsimlash ishlari tarqatish manevrlaridir.

Temir yo'llardan texnikaviy foydalanish qoidalari, poyezdlar harakati va manevr ishlari bo'yicha yo'riqnomada poyezdlar tarkibida vagonlarni joylashtirish tartibi belgilangan. Unga muvofiq, razryadli (portlovchi va zaharli moddalar), xavfli (suyultirilan gaz, tez yonuvchan moddalar, kislotalar) yukli vagonlar poyezdlar tarkibiga kiritilganda ular odam tashuvchi vagonlar kuzatuvchisi bor vagonlardan, kerak bo'lganda bir-biridan ham chegaralanishi kerak.

Chegaralovchi vagonlarning eng kam miqdori poyezdlar harakati va manevr ishlari bo'yicha yo'riqnomada belgilangan. Chegaralovchi sifatida boshqa yukli va bo'sh vagonlardan foydalaniladi.

Tuzilgan tarkibda avtobiriktirish qurilmalarining gorizontal o'qlar orasidagi farq 100 mm dan ortmasligi lozim. Terma poyezdlar va ko'p guruhli poyezdlar tarkibida vagonlar guruhi uchastkada ishslash uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Sanab o'tilgan qoida va boshqa qator shartlar tuzish manevrlari bajarilishini taqozo etadi.

Saralash va uchastka bekatlarida tarqatish jarayonini shunday tashkil etishga harakat qilinadiki, unda to'planayotgan poyezd

tarkibidagi vagonlar ularni tarkibga joylashtirish talablarini qondiradi va ular bilan qo'shimcha manevr ishlari bajarilmaydi. Poyezdlarni tarqatish va tuzish jarayonlarini birgalikda olib borish keng qo'llanilmoqda.

Ushbu jarayonlarni bajarishdagi manevr ishlari poyezdlarni **tarqatish-tuzish manevrlari** deb ataladi.

Tarkiblarni yoki vagonlar guruhini bir parkdan ikkinchisiga, park ichida bir yo'ldan ikkinchisiga o'tkazish bo'yicha harakatlar **o'tkazish manevrlari** deb ataladi. Alovida vagonlar yoki ularning guruhini uzish va biriktirish bo'yicha manevrlar tranzit poyezdlarning massasi o'zgartirilganda, ko'p guruhli poyezdlarning guruhlari almashganda, oraliq bekatlarda terma poyezdlarga vagonlarni ulash yoki uzib qolishda bajariladi. Uzatish manevrlari vagonlarni yuklash joylariga uzatishda va yig'ishtirish manevrlari esa yuklash amallari tugagandan so'ng vagonlarni yig'ishtirish maqsadida bajariladi. Boshqa manevrlarga saralash yo'llarida vagonlarni zichlash, tortish; vagonlarni taroziga uzatish, nosoz vagonlarni ta'mirlash uchun vagon deposiga uzatish va boshqalar kiradi.

Bekatlarda manevrlarni bajarish uchun maxsus saralash qurilmalari mavjud bo'ladi. Ular — tortish yo'llari, saralash tepaliklari va tepachalaridir. Tortish yo'llari, asosan, berk yo'llar bo'lib, saralash yoki yuk ortish-tushirish yo'llariga birikadi va qabul qilish va jo'natish yo'llari bilan bog'lanadi. U gorizontal yoki saralash yo'llari tomon nishablikda joylashgan bo'lishi mumkin, tortish yo'llarida manevrlar joylash, bir guruhli ketma-ket, ko'p guruhli turki usullarida yoki vagonlarni beto'xtov saralash usulida (maxsus profili tortish yo'llarida) bajariladi.

3.3. Tortish yo'lida manevrlarni bajarish texnologiyasi

3.3.1. Manevrlarni joylash usuli

Joylash usuli manevrlarida tortish yo'liga uzatilgan tarkibni lokomotiv eng so'nggi vagonlar guruhi joylashishi lozim bo'lgan yo'lga uzatadi (3.1- rasm).

Ushbu vagonlar guruhi bu yo'lda uzib qoldiriladi va lokomotiv tarkibni keyingi vagonlar guruhini tegishli yo'lga joylashi uchun

yana tortish yo'liga chiqaradi. Joylash usuli vagonlarni tarkibga ulash va uzishda, ularni yuklash joylariga uzatishda, harakatlanshida ehtiyyotkorlik talab etiladigan vagonlar bilan manevr ishlarini bajarishda qo'llaniladi. Poyezdlarni tarqatish va tuzish manevrlerida joylash usuli qo'llanilmaydi, chunki bu usulda manevr ishlari ko'p vaqt talab qiladi.

3.3.2. Manevrlarning bir guruhli turtki usuli

Bir guruhli turtki usulidagi manevrlerda tarkib tortish yo'liga uzatilgandan so'ng oxirgi vagonlar guruhi tarkibdan uziladi (3.2-rasm), keyin esa manevr tarkibni orqa tomonga harakatlantiradi va tormozlanadi.

Bir guruhli turtki usuli tortish yo'lida vagonlarni saralashda unumli usul bo'lmasa-da, keng tarqalgan.

Tarkibdan uzilgan vagonlar guruhi inersiya bo'yicha harakatini davom ettiradi va tegishli yo'lning kerakli joyida o'zi to'xtaydi (agar turtki tezligi to'g'ri belgilangan bo'lsa) yoki uni tormoz boshmoqlari yordamida to'xtatiladi. Har bir turtkidan so'ng manevr tarkibi keyingi turkilarni bajarish uchun tortish yo'liga qaytib chiqariladi.


Bu usulda manevrerni bajarish joylash usuliga nisbatan ishlarni jadallashtirishga yordam beradi.

3.3.3. Manevrlarning ketma-ket turtki usuli


Ketma-ket turtki usuli bo'yicha manevr ishlari quyidagi tarzda bajariladi. Tarqatilishi lozim bo'lgan tarkib yoki vagonlar guruhi tortish yo'liga shunday uzatiladiki, uning so'nggi vagoni saralash parkining eng yaqin ajratish strelkasidan 150—200 m masofada to'xtatiladi. Shu yerda so'nggi vagonlar guruhi tarkibidan uziladi va mashinist tarkibni saralash parki tomon 12—15 km/soat tezlikkacha harakatlantiradi va tormozlaydi. Natijada birinchi guruhi turtki bilan saralash parkining tegishli yo'liga yo'llanadi. Keyingi turkining boshlanishida tarkib vagonlari o'zar o'shilgan holatda bo'ladi va poyezd tuzuvchisining yordamchisi keyingi guruhi tarkibidan uzadi. Mashinist tarkibni yana tezlashtiradi va navbatdagagi turtkini beradi.

Bunday turtkilar lokomotiv harakati yo'nalishini o'zgartirmasdan tarkib ajratish strelkasiga yetib borguncha davom ettiriladi.


Ketma-ket turtki usulida manevrlarni bajarishda tarkibning harakat tezligining o'zgarishi 3.3- rasmida ko'rsatilgan. Unda ketma-ket uchta turtki yordamida uch vagon guruhlari turli yo'llarga yo'naltirilishi ko'rsatilgan.



Manevr tarkibning vagonlari saralash boshlanishiga qadar holati



3.1- rasm. Tortish yo'lidagi joylash manevrlari.




3.2- rasm. Bir guruhli manevrlar.


I_{tez} , I'_{tez} — tezlanish masofasi; I_{tor} , I'_{tor} — tortish masofasi.

3.3.4. Manevrlarning ko‘p guruhli turtki usuli


Ko‘p guruhli turtki usulida manevrlar ketma-ket turtki usuliga o‘xshash bajariladi. Farq shundaki, bir marta turtkida parkka bir emas, balki avvaldan uzib qo‘yilgan bir necha vagonlar guruhlari yo‘naltiriladi. (3.2- rasm). 1- holatda tarkib tortish yo‘liga uzatilgandan so‘ng vagon guruhlari tarkibdan uzelindi (keltirilgan misolda — uchta). So‘ngra tarkib tezlashtirilib (2- holat), tormozlanadi. Shu tarkibdan uzelgan guruhlari ajralib, harakatini davom ettiradi. Tarkib ajralgan vagonlar bilan kerakli oraliq paydo bo‘limguncha sekinlashgan harakatini davom ettiradi (3- holat). Shundan so‘ng navbatdagi vagonlar guruhlari tarkibdan uzelindi va ular yangi turtki natijasida saralash parki yo‘llariga yo‘naltiriladi. Tarkibdan bir vaqtida ajralayotgan guruhlari o‘rtasidagi oraliqlar tormoz boshmoqlari yordamida hosil qilinadi.



Manevr tarkibning vagonlarni saralash boshlanishiga qadar holati



3.3- rasm. Ketma-ket turtkili manevrlar.



3.4- rasm. Ko‘p guruhli manevrlar.

3.3.5. Vagonlarni beto‘xtov saralash usuli

Saralash tepaligidagi manevrlarda lokomotiv tarkibini tepalikning eng yuqori nuqtasigacha surib boradi. Shu yerda poyezd tuzuvchisining yordamchisi vagonlar guruhini tarkibdan ajratadi va uzilgan guruh tepalikning eng yuqori nuqtasidan o‘tib, o‘zining og‘irlik kuchi ta’siri natijasida harakatini davom ettirib, saralash parkining kerakli yo‘liga yo‘naltiriladi.

3.4. Manevr ishlarini tashkil etish

Manevrlarni bajarishda lokomotivlar harakatiga faqat bir xodim — poyezd tuzuvchisi rahbarlik qiladi. Oraliq bekatlarda manevr ishlarini terma poyezdning bosh konduktori rahbarligida bajarish mumkin. Manevrlarni bajarish mobaynida poyezd tuzuvchisi shunday joyda turishi kerakki, u joydan bir vaqtning o‘zida uning yordamchisi, lokomotiv va manevrlanayotgan tarkibning oxiri ko‘rinib turishi kerak.

Uzun tarkib bilan yo‘lning egri uchastkalarida yoki qiyin ob-havo sharoitlarida (quyuq tuman, kuchli yog‘ingarchilik) manevrlar bajarilayotganda poyezd tuzuvchisiga signallarni uzatishga yordamchi sifatida markazlashtirish postlari operatorlari, strelkali postlar navbatchilari va vagonlar harakati tezligini moslovchilar jalg etilishi mumkin. Manevr harakatlarini bajarish uchun ko‘rsatmalar radio, qo‘l belgilari yoki tovushli belgilar, svetofor ko‘rsatkichlari orqali yuboriladi.

Agar bekatda radioaloqa va baland tovushli aloqa qurilmalari mavjud bo‘lsa, manevr ishlari bo‘yicha ko‘rsatma va ma’lumotlarni uzatish uchun ulardan foydalilanadi. Ma’lumotlar qisqa va aniq bo‘lishi lozim. Ko‘rsatma beruvchi xodim manevr lokomotivi mashinistining ma’lumotlarini to‘g‘ri qabul qilganiga ishonch hosil qilishi kerak.

Manevr harakati mobaynida strelkalar markazlashtirish postlari operatorlari yoki strelka postlari navbatchilari tomonidan manevrlar rahbarining farmoyishi bo‘yicha o‘tkaziladi. Rahbar marshrutlar tayyorlash bo‘yicha topshiriqni shaxsan radio, baland tovushli aloqa qurilmasi, lokomotivning hushtagi, qo‘l hushtagi, bekatning texnik jihozlanishiga qarab boshqa vositalar yordamida

uzatiladi. Har bir bekatda marshrutlar tayyorlash tartibi texnikaviy-boshqaruv dalolatnomasida belgilanadi. Manevr lokomotivi mashinisti lokomotivni faqat manevrlar rahbarining ko'rsatmasi yoki belgisini olgandan so'ng harakatlantiradi.

Bekatlarda tarkibiga smenali navbatchilikni olib boruvchi, poyezd va vagonlarni qayta ishlashda ishtirok etuvchi, tashish, yuk-tijorat xizmatchilari, aloqa vagon va lokomotiv xo'jaliklari xodimlari kiruvchi yagona smenalar tashkil qilinadi. Yagona smenalarga manevr dispetcheri, bunday lavozim ko'zda tutilmagan holda bekat navbatchisi rahbarlik qiladi. Saralash, yirik yuk va uchastka bekatlarida manevr ishlarini, poyezdlarni qabul qilish va jo'natish bo'yicha amallarni bajarish uchun kompleks brigadalar tuziladi. Ular tarkibiga bekat, texnikaviy xizmat ko'rsatish punktlari xodimlari, manevr lokomotivlari brigadalarini kiradi. Kompleks brigadalar ko'zda tutilmagan bekatlarda manevr brigadalarini tuziladi. Ular tarkibiga poyezd tuzuvchilari va ularning yordamchilari hamda manevr lokomotivlari mashinistlari, ularning yordamchilari kiradi.

Manevr ishlar katta hajmda bajariladigan bekatlar hududi manevr rayonlariga bo'linadi. Ularning har biriga ma'lum parklar yoki yo'llarning guruhi, tortish yo'llari yoki saralash tepaliklari biriktiriladi va alohida manevr lokomotivlari hamda tuzish brigadalarini tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Manevrlanayotgan tarkib yoki lokomotiv rayon hududidan faqat manevr dispetcheri ko'rsatmasi va bekat navbatchisi ruxsati bilan chiqishi mumkin.

Poyezd tuzuvchisi navbatchilikni belgilashdan avval o'z manevr rayonida yo'llarning holati bilan tanishadi, yo'llarda vagonlarning joylashuvi, tuzilgan tarkiblar va vagon guruhlari haqida ma'lumot oladi. Navbatchilik mobaynida u manevr dispetcheri (yoki bekat navbatchisi) dan 2 -3 soatga mo'ljallangan reja-topshiriq oladi. Manevr ishlarining dispetcherlik boshqaruvi bekatlarda poyezd tuzuvchisi manevr dispetcheridan har bir tarkibni tarqatish va tuzish uchun topshiriq oladi. Manevr ishlar rejasini poyezd tuzuvchisi brigadaning har bir a'zosi e'tiboriga havola qiladi.

Bekat yo'llarida harakatdagi tarkib chekllovchi ustunchalar oralig'ida joylashtiriladi. Manevrarda ishtirok etmaydigan vagonlar o'zaro ulangan, tormozlangan va o'z-o'zidan harakatlanishiga

yo'l qo'ymaslik uchun qo'l tormozlari yoki tormoz boshmoqlari yordamida ishonchli mahkamlangan bo'lishi kerak. Manevrlar quyida keltirilgandan ortiq bo'limgan tezlikda amalga oshiriladi:

— 60 km/s — bo'sh yo'llardan alohida lokomotivlar va ortiga avtotormozlari ishga tushirilgan va siqilgan, vagonlari ulangan lokomotivlar harakatlanganda;

— 40 km/s — bo'sh yo'llardan ortiga vagonlar ulangan lokomotivlar harakatlanganda;

— 25 km/s — bo'sh yo'llardan vagonlarni oldiga ulab, shuningdek, tiklash va yong'inni o'chirish poyezdlari harakatlanganda;

— 15 km/s — odamlar bilan band bo'lgan, shuningdek, 4-, 5- va 6- darajali yon va pastki nogabarit yuklar ortilgan vagonlar harakatlanganda;

— 5 km/s — manevrular turtkilar bilan amalga oshirilganda, saralash tepaligi osti parkida vagonlarning bir ulanmasi ikkinchi ulanmaga yaqinlashganida;

— 3 km/s — lokomotiv (vagonlar bilan yoki yakka) vagonlarga yaqinlashganda.

Bekatlarda poyezd va manevr harakatlari xizmatchilarning shaxsiy xavfsizligi ta'minotiga alohida e'tibor qaratilishini talab etadi. Bekat hududida yo'llar va yo'l oraliqlari ozoda saqlanishi kerak. Yo'llar ustidan o'tish uchun maxsus yo'lkalar barpo etiladi, yo'llar bo'ylab harakatlanish yo'lkalar eng keng yo'l oraliqlarida belgilanadi. Shunday joylarda «Yo'ldan o'tish joyi», «Yo'l bo'ylab yurish joyi» belgilari o'rnatiladi. Tormoz boshmoqlarini saqlash uchun yashik va tokchalar eng keng yo'l oraliqlarida o'rnatiladi va ular qishda qora rangga, yozda esa oq rangga bo'yaladi.

Qorong'i vaqtida bekat yo'llari yoritilishi lozim. Yoritish me'yorlari belgilangan. Masalan, yo'llar saralash tepaligida 10 lk, yirik bekatlarning qabul qilish-jo'natish yo'llarida 5 lk miqdorida yoritilishi kerak.

Agar strelka posti yo'l o'qidan 6 m dan kam masofada joylashgan bo'lsa, uning eshigi yo'l bo'ylab yo'nalgan bo'lishi kerak. Aks holda, postdan bevosita yo'lga chiqishni chekllovchi to'siq o'rnatiladi.

Ayniqsa yo'llarda yurish qoidalari qattiq amal qilinishi kerak. Yo'llar bo'ylab faqat yo'l oraliqlarida harakatlanish, yo'llarni faqat to'g'ri burchak ostida kesib o'tish lozim. Vagonlar bilan band yo'lni kesib o'tishda tormoz maydonchalaridan foydalani-

ladi. Agar vagonlar uzilgan bo'lsa, ular orasidagi masofa 5 m dan kam bo'Imagan holda yo'lni kesib o'tish mumkin. Yo'lda turgan harakatdagi tarkibni 3 m dan kam bo'Imagan masofada aylanib o'tish mumkin. Yo'lni kesib o'tishda relsni, krestovinani bositib o'tish, strelka o'tkazgichi va rama relsi oralig'iga qadam qo'yish taqiqlanadi. Bekat parklarida ishlanganda harakatdagi tarkibning chiqib turuvchi qismlariga ilashib qolmaslik uchun ish kiyimlari ixcham, tugmalangan bo'lishi kerak.

Manevrlarning boshlanishidan avval poyezd tuzuvchisi harakatlanish uchun to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qilishi va manevr bajarish hududidagilarning barchasini bajarilayotgan ishlar haqida ogohlantirishi kerak. Undan tashqari, poyezd tuzuvchisi ochiq turdag'i wagonlarga yuklarning to'g'ri joylashganligini, zarur miqdorda tormoz boshmoqlari borligini tekshirishi lozim. Poyezd tuzuvchisi yordamchisi ish mobaynida vagonlarning yon tomonida bo'lishi, ularni faqat qo'lqop kiygan holda uzishi lozim. Harakat mobaynida vagonlar oralig'iga kirish, ularni strelkali o'tkazgich hududida uzish taqiqlanadi. Manevrarda harakat mobaynida tormoz maydonchasida lokomotiv va vagonlarning maxsus zinachalarida turishga ruxsat etiladi.

Vagonlarni tormozlash uchun tormoz boshmoqlari oldindan qo'yiladi va vagon kelgunga qadar poyezd tuzuvchisi xavfsiz masofaga ketishga ulgurishi kerak. Vagonlar oralig'iga tormoz boshmog'i maxsus uzatgich yordamida qo'yiladi.


Elektrlashtirilgan yo'llarda manevrlar mobaynida elektr simlariga 2 m dan yaqin masofada bo'lish (vagonlar ustiga chiqish va h.k.) taqiqlanadi. Poyezd tuzish brigadasi odamlar turgan joylarda (yo'lovchi platformalari, yo'l ishlari bajarilayotgan joylar va h.k.) manevrlar bajarayotganda, ayniqsa, hushyor bo'lishlari, tez-tez signal berishlari, odamlarni ogohlantirishlari va manevr tarkibini darhol to'xtatishga shay bo'lib turishlari kerak.

3.5. Manevr ishlari nazariyasi asoslari

Manevr ishlari nazariyasini yaratishda rus olimlari N.A. Demchinskiy, I.I. Rixter, A.N. Frolov, I.I. Vasilyev, V.A. Sokovich va boshqalarning xizmatlari kattadir. Ushbu olimlar manevr amallarini ilmiy me'yorlashga asos solganlar.


1882- yili N.A. Demchinskiy birinchi bo‘lib manevrлarni ilmiy jihatdan tasniflash va manevr amallarining sonini hisoblashni taklif etdi. 1883–1892- yillarda I.I. Rixter manevrлar texnologiyasi va tashkili asoslarini ishlab chiqdi. U manevrлarni turtkilar bilan amalga oshirish va bu maqsadda nishabga ega bo‘lgan tortilgan yo‘llar qurishni taklif etdi. Manevrлar amaliyotini takomillashtirish va manevrлar nazariyasini yaratishda prof. A.N. Frolovning hissasi kattadir. Prof. I.I. Vasilyev tomonidan tarkibni saralash tepaligisiz bekatlarda tarqatishda bo‘laklarga bo‘lishning samarali usuliga va murakkab manevrлarni matematik tahlil qilish tizimiga asoslangan manevrлar tizimini yaratdi. Professorlar M.M. Protodyakonov va L.V. Odinsovlar turli murakkabliklardagi manevrлarni me’yorlashda birinchi bo‘lib tortish hisoblarini qo‘lladilar. M.L. Zabello, A.M. Baranov, V.P. Kazansev va boshqalar turli amaliy sharoitlar va istiqbol uchun manevr lokomotivlarining samarali turini tanlash nazariyasini ishlab chiqdilar. Poyezd tuzuvchilardan K.S. Krasnov, M.M. Kojuxar, N.D. Guryev, I.O. Karashkovich, P.I. Cherselevskiy va boshqalar manevrлarning zamonaviy texnologiyasini takomillashtirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Manevr ishlarini to‘g‘ri me’yorlash va uning eng qulay usul-larini tanlash manevr amallarini alohida qism va elementlarga bo‘lish va ularni tahlil etishga asoslangandir. Manevrлarning eng sodda qismi yarimreysdir. Manevr yarimreysi deb, vagon-larning lokomotiv bilan yoki bir lokomotivning bekat yo‘llari bo‘ylab harakat yo‘nalishini o‘zgartirmay harakatlanishiga aytildi (3.5- rasm).



3.5- rasm. Yarimreys manevrining chizmasi.

Lokomotivning vagonlar bilan yoki ularsiz bir yo'ldan ikkin-chisiga harakat yo'nalishini o'zgartirib o'tishi manevr reysi deb ataladi (3.6- rasm).



3.6- rasm. Manevr reysining chizmasi.

Har bir manevr reysi manevr tarkibining bekat yo'llari bo'ylab harakat yo'nalishini o'zgartirmay harakatlanishidan tashkil topgan ikkita yarimreyslardan iboratdir.

Reyslar va yarimreyslar lokomotivning vagonlar bilan harakatlanganida — ishchi, lokomotivning vagonlarsiz harakatlanganida — bo'sh hisoblanadi. Har bir yarimreys quyidagi ikki yoki undan ortiq elementlar ketma-ketligidan iboratdir: tezlanish T_z , tormozlash T , inersiya bo'yicha harakatlanish I va belgilangan tezlikda harakatlanish B .

Manevrlar turli yarimreyslar ketma-ketligidan iboratdir. Yarim-reyslar uzunligi va manevr harakatlarining elementlari ketma-ketligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1- tur — tezlanish-tormozlash ($T_z T$).

Unda manevr tarkibi tezlashadi va ma'lum tezlikka yetgach, darhol tormozlanadi (3.7- a rasm);

2- tur — tezlanish belgilangan tezlikda harakatlanish-tormozlash ($T_z BT$). Unda manevr tarkibi tezlashadi va belgilangan tezlikka yetgach, shu tezlikda harakatini davom ettiradi, shundan so'ng tormozlanadi (3.7- b rasm);


3- tur — tezlanish inersiya bo'yicha harakatlanish ($T_z I$)da manevr tarkibi ma'lum tezlikkacha tezlashadi va so'ngra inersiya bo'yicha harakatini davom ettiradi (3.7- d rasm).

4- tur — tezlashish inersiya bo'yicha harakatlanish-tormozlash ($T_z IT$). Unda manevr tarkibi tezlashgandan so'ng qolgan masofaning ma'lum qismini inersiya bo'yicha harakatlanib, so'ngi qismini esa tormozlanib o'tadi (3.7- e rasm).

5- tur — tezlashish belgilangan tezlikda harakatlanish — inersiya bo'yicha harakatlanish (Tz BI). Unda manevr tarkibi mumkin bo'lgan tezlikkacha tezlashadi, so'ngra shu tezlikda ma'lum vaqt yo'l bosadi, keyin inersiya bo'yicha to'liq to'xtaguncha yo'l bosadi (3.7- f rasm).

6- tur — tezlashish belgilangan tezlikda harakatlanish-inersiya bo'yicha harakatlanish — tormozlash (Tz BIT). Unda yarim reysning mumkin bo'lgan barcha (to'rtta) elementlari qo'llaniladi (3.7- e rasm).

Yarimreysning to'liq uzunligi tezlashish l_{TZ} , tormozlash l_{TOR} va yarimreysning turiga ko'ra belgilangan tezlikda harakatlanish l_B va inersiya bo'yicha harakatlanish l_{in} uzunliklari yig'indisidan iborat (3.7- rasm).



3.7- rasm. Yarimreyslar manevrilarining turlari.

Yarimreyslar turlaridan foydalanish saralash manevrularini bajarish usuliga, yarimreyslarning tavsifi, vazifalari va uzunligiga, bekatda yo'llarning joylashuvi va ularning bandlik darajasiga bog'liqdir.

T_z T va T_z BT (1- va 2- turlar) yarimreyslari asosiy bo'lib, ular ko'proq qo'llaniladi.

3-6- turdag'i yarimreyslar faqat ularning vaqtini kamaytirishga zarurat bo'limgan hollardagina (tepalikning birinchi yo'lida tarqatish jarayoni tugallanmaganda tepalikka ikkinchi yo'lidan tarkibni surish va b.) qo'llaniladi. 1- turdag'i yarimreyslar ko'proq turtki orqali manevrilar bajarilganda, 2- turdagisi esa joylash manevrilar bajarilganda qo'llaniladi.

Ishchi reys yoki yarimreys bajarilayotgan vagonlar **manevr tarkibi** deb ataladi. Tarkibda yonma-yon turgan, saralash jarayonida bir yo'lga qo'yilishi kerak bo'lgan bir yoki bir necha vagonlar **ajratma** deb ataladi.

U yoki bu manevr amallarini bajarish uchun vaqt sarfini aniqlash ularni **me'yorlash** deb nomlanadi. Manevrlarni me'yorlash ikki usulda: xronometraj tekshiruvlar natijalari asosida va tortish hisoblari yordamida.

Tortish hisoblari usuli uzoqroq masofaga bajariluvchi yarimreyslardan iborat oddiy manevrularni me'yorlashda qo'llaniladi.

Xronometraj usuli, asosan, ko'p takrorlanuvchi, nisbatan qisqa masofali yarimreys va reyslardan iborat manevrularni me'yorlashda qo'llaniladi (saralash va guruhlash manevrulari).

Manevr yarimreyslarini bajarish uchun sarflanadigan vaqt manevr tarkibining uzunligiga, manevrularni bajarish usuli, manevr lokomotivi turi, yarimreys uzunligi, yo'llarning yoritilish darajasi, ob-havo sharoitlari, tortish yo'llari profili, manevr bajaruvchi xodimlarning malakasiga bog'liqdir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Manevr ishi deb qanday ishga aytiladi?*
2. *Manevr yarimreyslarining turlari qanday?*

IV BOB. VAGON OQIMLARINI TASHKIL ETISH

4.1. Yuk oqimlari va vagon oqimlari haqida tushuncha

Bekat yoki bekatlar guruhi tomonidan qaysi bir yo‘nalishda ma’lum bir muddat mobaynida (kun, oy, yil) jo‘natilgan yuk miqdori (tonna) **yuk oqimlari** deb ataladi. Temir yo‘l liniyasi yoki uchastkasining jami yuk oqimlari deb, ushbu liniyadan bir yo‘nalishda ma’lum vaqt mobaynida jo‘natilgan yuk miqdori tushuniladi.

Yuk oqimlarining rejalashtirish davri yil hisoblanadi.

Yil mobaynida tashish hajmining o‘zgarishlari mavsum notekisligi koeffitsiyentida hisobga olinadi. Ushbu koeffitsiyent tashish ishlari hajmining maksimal oydagisining o‘rtacha oydagisiga nisbati orqali topiladi.

Yuk oqimlari yuk turlari bo‘yicha rejalashtiriladi. Oylik rejalashtirishda yuk turlari ro‘yxati batafsil ko‘rsatiladi. Chorak va yillik rejalashtirishda bajariladigan yuklar soni kamayadi. Yuk oqimlari yilda ming tonna hisobida rejalashtiriladi.

Vagon oqimlari sifatida birorta yo‘nalishda ma’lum bir vaqt oralig‘ida, asosan, bir kun mobaynida qatnaydigan vagonlar soni tushuniladi. Ma’lum bir punkt (bir bekatda yoki bir uchastka)da paydo bo‘ladigan va boshqa bir punkt (bir bekatga yoki uchastka)ga yo‘llaniladigan vagonlarning o‘rtacha kundalik soni **vagon oqimlarining tarmog‘i** deb ataladi. «Vagon oqimlarining tarmog‘i» tushunchasi poyezd tuzish rejasiga manziliga kiritiluvchi vagonlar sonini ham anglatadi. Vagon oqimlarini tashkil etish masalalarini hal etish uchun ularning rejaviy miqdorini aniqlash lozim. Foydalanish hisoblarda vagon oqimlari vagonlarning o‘rtacha kundalik soni orqali aniqlanadi.

Rejalashtirilgan vagon oqimlari hisobli harakat miqdorini aniqlash uchun zarurdir. Ular asosida esa temir yo‘l qurilmalarini o‘tkazish va qayta ishlash qobiliyatlari hisoblanadi, poyezdlar harakati grafiklari va boshqalar tuziladi.


Natijalardan foydalanishda qulaylik uchun aniqlangan vagon oqimlari tarmoqlari bo'yicha qiya jadvalga (4.1- jadval) joylashtiladi va bundan tashqari, yaxshi tasavvurga ega bo'lish uchun zinasimon grafik ko'rinishida tasvirlanadi.

4.1- jadval

Vagon oqimlarining qiya jadvali

| Bekat va uchastkaga | A | B | B-D | D | E | Jami |
|-----------------------------|-------------|------------|------------|------------|-------------|-------------|
| Bekat va uchastkadan | | | | | | |
| A..... | X | 150 | 50 | 200 | 1300 | 1700 |
| B..... | 100 | X | 50 | - | 150 | 300 |
| B-D..... | 100 | - | X | 50 | 100 | 250 |
| D..... | 100 | - | - | X | 100 | 200 |
| E..... | 900 | 100 | 100 | 50 | X | 1150 |
| Jami | 1200 | 250 | 200 | 300 | 1650 | 3600 |

Vagon oqimlarining zinasimon grafigi (4.1- rasm) harakat yo'nalishlari bo'yicha tuziladi. Boshlang'ich bekatdan har bir manzil punktigacha masshtabsiz gorizontal yo'lakcha o'tkaziladi. Yo'lakchaning kengligi vagon oqimlari ko'rsatkichlarini o'ziga sig'dira olishi kerak. Jo'natuvchi bekatni belgilovchi vertikal chiziqning yonida ushbu yo'lakchaning manziliga yuboriladigan vagonlar soni yoziladi.



4.1- rasm. Vagon oqimlarining zinasimon grafigi.

4.2. Vagon oqimlarini tashkil etishning vazifalari

Vagon oqimlarini tashkil etish uchun quyidagilarga erishish kerak:

- yuklangan va bo'sh vagon oqimlarining temir yo'llar yo'nalishlari bo'ylab samarali harakatlanish yo'lini belgilash;
- saralash ishlarini bekatalararo to'g'ri taqsimlash;
- yuklarni manziliga yetkazishni tezlashtirish;
- vagonlarning to'planish va qayta ishlanish jarayonlarida turish vaqtini kamaytirish;
- saralash qurilmalari va manevr vositalaridan samarali foydalanish;
- tashish ishlari tannarxini kamaytirish.

Agar yukni manziliga bir necha parallel temir yo'l liniyalari orqali yetkazish mumkin bo'lsa, u holda vagonlarning samarali harakatlanish yo'lini tanlash texnik-iqtisodiy hisoblar yordamida belgilanadi.

Samarali harakatlanish yo'li eng qisqa yo'1 bo'lmasligi ham mumkin, balki uzunroq bo'lsa ham, texnikaviy jihatdan yaxshiroq jihozlangan (ikki yo'lli, elektr tortishdagi va h.k.) yo'1 bo'lishi mumkin.


Yo'nalishni tanlashning iqtisodiy samaradorligi yo'nalishlar bo'yicha tashish ishlariga sarf bo'ladigan va poyezdlar soniga bog'liq bo'lgan foydalanish chiqimlari yig'indisining o'zaro taqqoslanishi orqali belgilanadi.

Samarali harakatlanish yo'lini belgilash bo'yicha yakuniy xulosani chiqarishda narx ko'rsatkichlaridan tashqari har bir yo'nalish uchun quyidagi ko'rsatkichlar ham taqqoslanadi: vagonlarning harakatlanish vaqt; poyezdlarni tortish uchun yoqilg'i (elektr energiyasi) sarfi; yo'nalishning poyezd o'tkazish qobiliyati; bekatlarning qayta ishslash qobiliyati.

Yakuniy xulosa bo'yicha tanlangan yo'nalishlarni poyezdlar tuzish rejasiga kiritish uchun tavsiya etiladi.

4.3. Yuk poyezdlarining turlari

Yuk poyezdlari turlarini tuzish shartlari qatnash masofasi va tashish ishlarining turi, undagi vagonlarning ahvoli va tarkibdagi guruhlar soni bo'yicha tasniflanadi.



4.2- rasm. Yuk poyezdlari turlarining sxemasi.

Poyezdlarni tuzish shartlari quyidagilarga bo'linadi:

- yuk ortish bekatlarida tuziladigan jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar;
- yuk jo'natuvchining ishtirokisiz saralash, uchastka va yuk bekatlarida tuziladigan poyezdlar.

Jo'natuvchi marshrutlar quyidagi vagonlardan tashkil etilishi mumkin:

- bir yuk jo'natuvchisi tomonidan shoxobcha yo'llarda yoki umumiy foydalanish yo'llarida yuklangan vagonlardan;
- shoxobcha yo'llarda kontragentlarning yoki korxonalarining birlashgan transport xo'jaliklari ishtirokida yuklangan vagonlardan;
- marshrut bazalariga qaytadan jo'natilgan vagonlardan.

Zinasimon marshrutlar bir bekatda bir jo'natuvchi tomonidan yoki bir necha jo'natuvchi tomonidan bir yoki bir necha bekatda, yoki shoxobcha yo'llarida tashkil etilishi mumkin.

Jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar manziliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: yuk tushirishning bir bekti yoki bir uchastkasiga boruvchi marshrutlar; tarqatish uchun boruvchi marshrutlar.

Qatnash masofasi va tashish ishlarining turiga ko'ra poyezdlar quyidagilarga bo'linadi:

- tezyurar va tezkor poyezdlar. Ular kamaytirilgan og'irlik me'yorlari va yuqori marshrut tezligiga ega bo'ladilar. Ular

qatoriga refrijerator poyezdlari, tez buzuluvchan va boshqa tez yetkazilishi zarur bo'lgan yukli poyezdlar kiradi;

— o'tkinchi poyezdlar. Ularga bir yoki bir necha uchastka yoki saralash bekatlaridan qayta ishlanmay o'tadigan poyezdlar kiradi;

— uchastka poyezdlari. Ularga bir uchastka mobaynida tarkibini o'zgartirmay qatnaydigan poyezdlar kiradi;

— terma poyezdlar. Ular uchastkaning oraliq bekatlariga vagonlarni tarqatish va yig'ishtirish uchun xizmat qiladi;

— chiqaruvchi poyezdlar. Ular saralash va uchastka bekatlaridan birikkan uchastkaning alohida oraliq bekatigacha qatnaydi;

— uzatuvchi poyezdlar. Ular bir temir yo'l uzelining bekatlari orasida vagonlarni uzatish uchun xizmat qiladi.

Vagonlarning ahvoliga ko'ra poyezdlar yuklangan, bo'sh va aralash (yuklangan va bo'sh vagonlardan tuzilgan) turlarga bo'linadi.

Tarkibagi vagonlar guruhi soniga ko'ra poyezdlar bir guruhli — bir manzilli vagonlardan tuzilgan va ko'p guruhli — ikki va undan ortiq manzilli vagonlar guruhidan tuzilgan turlarga bo'linadi.

4.4. Poyezdlar tuzish rejasি

Yuklangan va jo'natishga tayyorlangan vagonlar poyezdlarga biriktirilishi va iloji boricha tezroq manziliga yetkazilishi kerak. Vagonlarni poyezdlarga biriktirish qayta ishlanishlar sonini kamaytirishni, ularning to'planish va qayta ishlanishlar jarayonida turish vaqtini qisqartirishni, yuklarni yetkazishni va vagonlar aylanmasini tezlashtirishni, saralash va manevr vositalaridan foydalanishni jadallashtirishni ta'minlovchi ma'lum bir tizim asosida amalga oshiriladiki, unda bekatlararo saralash ishlari to'g'ri taqsimlanadi va tashish ishlarining tejamkorligiga erishiladi.

Poyezdlar tuzish rejasи poyezdlar harakati grafigining amal qilish davriga ishlab chiqiladi. Poyezdlar tuzish rejasida bekat uchun jo'natiluvchi poyezdlarning turlari, tarqatish bekatlari va tarkibagi vagonlarning manzillari, bo'sh vagonli poyezdlar uchun harakat-dagi tarkibning turi ko'rsatiladi. Poyezdlar tuzishning samarali rejasini ishlab chiqish poyezd tuzuvchi punktlarning va yuklangan vagon manzil bekatlarining ko'pligi sababli murakkab masaladir.

Ushbu masala u yoki bu bekatga poyezd tuzish vazifasini yuklab, vagon oqimlari yo'nalishlarini hisobga olgan holda, bu ishning shu bekatda bajarilishining maqsadga muvofiqligini, bekatning imkoniyatlarini (saralash va yo'l qurilmalarining rivoji) hisobga olish lozimligi bilan ham yanada murakkablashadi.

4.5. Poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish tartibi

Poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish quyidagi ikki yo'naliishda olib boriladi: birinchisi, yuklash joylarida jo'natuvchi va zinasimon marshrutlarni tashkil etish, ikkinchisi, saralash va uchastka bekatlarining poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish.

Poyezdlar tuzish rejasini uchun asosiy dastlabki ma'lumotlar quyidagilardir:

- jadval shaklida yuk tashish rejasи;
- poyezdlar harakati grafigi va poyezdlar tuzish rejasining amal qilish davriga belgilangan poyezdlarning og'irlik va uzunlik me'yorlari;
- lokomotivlarning harakatlanish va lokomotiv brigadalarining ishlash uchastkalari chizmasи;
- foydalanish chiqimlari, yuklangan va bo'sh vagonlarni hamda zaxira lokomotivlarini harakatlantirish uchun yoqilg'i (elektr energiyasi) sarfi, uchastkalar bo'ylab tranzit poyezdlarning yurish vaqtini chizma-kartalari;
- asosiy rayon va mahalliy bekatlarning texnikaviy jihozlanishi va ularning ish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar.

Poyezdlar tuzish rejasini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning eng yaxshi natijalariga erishishni ta'minlovchi ma'lum ketma-ketlikda ishlab chiqiladi.

Avval rejali yuk oqimlari aniqlanadi, ularning harakatlanish yo'llari belgilanadi, ulardan barqaror jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar tuziladigan vagon oqimlari ajratib olinadi. So'ngra qolgan vagonlardan asosiy va rayon saralash bekatlari orasidagi vagon oqimlari jadvali tuziladi. Yuklangan vagon oqimlari asosida bo'sh vagonlar oqimi hisoblanadi, ularning harakatlanish chizmasи hal etiladi va bo'sh vagonlardan poyezdlar tuzish punktlari belgilanadi.

Bundan so'ng tezkor va tezyurar, refrijeratorli va boshqa turdagи maxsus poyezdlar tuzish rejasini belgilanadi.

Qolgan vagon oqimlaridan temir yo'llar tarmog'ining asosiy va rayon miqyosidagi saralash bekatlari orasidagi bir guruhli va ko'p guruhli poyezdlar tuzishning samarali rejasи hisoblanadi.

Temir yo'llararo poyezdlar tuzish rejasи aniqlangandan so'ng temir yo'lning ichki poyezdlar tuzish rejasи tuziladi. Uni ishlab chiqish tartibi yuqorida bayon etilgandekdir.

Faqat undagi hisoblarda mahalliy ishlarni samarali tashkil etishga ko'proq ahamiyat beriladi.

4.6. Jo'natuvchi marshrutlarni tashkil etish

Jo'natuvchi marshrutlar vagonlarning harakatlanishini tezlash-tirish va tashish ishlarining tannarxini kamaytirishning muhim vositasidir. Uning qo'llanilishi kalendar reja bo'yicha ma'lum kunlarda bir manzilga yuklarni to'plab jo'natishga asoslanadi. Bunday uslub o'rtacha kundalik miqdori katta bo'limgan vagon oqimlaridan marshrutlarni korxonaning ish jarayonini buzmay va yuklarning uzoq davr mobaynida to'planishini talab qilmay tashkil etish imkonini yaratadi.

Yuklash joylaridan marshrutlar tashkil qilinar ekan, bunda manevr ishlarining hajmini kamaytirishga va vagonlarning texnikaviy bekatlarda qayta ishlanish jarayonlarida turish vaqtining kamaytirilishiga erishiladi.

Yuklash joylaridan marshrutlar tashkil etish rejasи poyezdlar tuzish rejasining amal qilish davriga ishlab chiqiladi va buning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar butun tarkiblar tuzish hajmidagi yuk jo'natuvchi bekatlar uchun rejalashtiriladi. Unda, birinchi navbatda, bir bekat (bir uchastka)da tushirilishi kerak bo'lган marshrutlar, so'ngra tarqatish uchun mo'ljallanganlari ajratib olinadi.

Agar katta hajmda yuklarni tashish va ularning butligini ta'minlash uchun vagonlarning maxsus qurilma va jihozlari ishlatiladigan bo'lsa, u holda ushbu vagonlarni yuklash joylariga qaytarish maqsadga muvofiqdir. Bunday marshrutlar aylanma marshrutlar deb ataladi.

Umuman olganda, u yoki bu vagon oqimlarini yuklash joylaridan marshrutlashning maqsadga muvofiqligi marshrutlashda

va vagonlarni marshrulgarsiz guruhlarda jo‘natishdagi sarf-xarajatlarning o‘zaro taqqoslanishi orqali hal etiladi.

Bunday sarf-xarajatlarga quyidagilar kiradi:

— mahsulotning butun tarkib miqdorida to‘planishi uchun chiqimlar va ishlab chiqarish sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa chiqimlar;

— yuklash-tushirish amallari hamda manevr lokomotivlari bilan vagonlarni uzatish va yig‘ishtirish bo‘yicha manevr ishlari narxi;

— vagonlarning yuk ortish-tushirish hamda yo‘l mobaynida saralash va uchastka bekatlarida turish vaqtini narxi;


— vagonlarni qayta ishslash bo‘yicha manevrlarning chiqimlari.

Kalendar rejalashtirishda har bir marshrutning jo‘natilish vaqtini belgilanayotganda oy mobaynida manzillar bo‘yicha ravon yuk jo‘natilishiga erishish kerak. Oy mobaynida bir manzil bo‘yicha marshrutlar jo‘natishni zichlashtirish mumkin emas. Bu hol bekatlar, uchastkalar va hattoki liniyalarning notekis bandligiga olib keladi. Bundan tashqari, bir bekat manziliga, bir yuk oluvchiga yuk ortish zichlashtirilganda uning yuk tushirish imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Aks holda yuk ortish bekatida va yo‘l-yo‘lakay qayta ishlanmasdan o‘tishdan hosil bo‘lgan samaradorlik yuk tushirish manzilida vagonlarning haddan ziyod turib qolishi bilan yo‘qqa chiqishi mumkin.

Marshrutlashtirishda yuk ortish-tushirish ishlari chiqimlarining ko‘paymasligi, hatto kamayishi mumkin, chunki bunda mexanizatsiya vositalarini qo‘llash sharoitlari yaxshilanadi.

Marshrutlashtirishda yuk ortish va tushirish bekatlarida vagonlarning turish vaqtini ko‘payadi. Buning sababi jo‘natish bekatida yuk ortilgan vagonlar guruhi yuk ortish tugashi bilan darhol jo‘natilmay, balki marshrutning qolgan vagonlariga yuk ortishning tugashini kutishga to‘g‘ri keladi; yuk tushirish bekatida esa yuk tushirish joyining bo‘shatilishini kutish bilan bog‘liq turishlar yuzaga keladi. Lekin yuk ortish-tushirish joyi sig‘imining va mexanizatsiya vositalarining yetarliligida vagonlarning turish vaqtini ko‘paymasligiga erishish mumkin.

Vagon-soatlar tejaming eng ko‘p miqdoriga yo‘lda harakatlanish mobaynida erishiladi, chunki unda marshrut alohida vagon guruhlaridan ko‘ra tezroq o‘tadi.



4.3- rasm. Jo'natuvchi marshrutning harakatlanish chizmasi.

Umumiy holda (4.3- rasm) vaqt tejamiga yo'lning bosh va oxirgi uchaştkalarida (D—E va N—I bekatlari orasida) erishiladi, chunki marshrutning uchastka tezligi terma poyezdning uchastka tezligiga qaraganda kattadir. Vaqt tejamiga yo'l-yo'lakay uchastka va saralash bekatlarida (D, E, I, J) ham erishiladi, chunki jo'natuvchi marshrutlar bo'lмаган holda ularda poyezdlar tuzish rejasiga ko'ra vagonlar qayta ishlanishi kerak bo'lar edi.

Yuk ortish-tushirish joylarining sig'imi har bir yuk jo'natuvchiga butun tarkibni yuklash imkonini bermaganda bir necha jo'natuvchining bir yoki bir necha bekatdan yoki ikki qo'shni uchastkadan ortgan yuklarini birlashtirib, marshrutlar tuzilishi mumkin. Bu tarzda tuzilgan marshrutlar **zinasiomon** deb nomlanadi.

Yuklash joylaridan poyezdlar tuzish rejasining samaradorligi uning quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi:

- marshrutlarda yuklash hajmining temir yo'l (mintaqaviy temir yo'l uzeli) umumiy yuklash hajmidagi ulushi;
- bir yuk tushirish bekatiga (yoki uchastkasiga) to'g'ri keluvchi jo'natuvchi va zinasimon marshrutlarda yuklash hajmining ulushi;
- marshrutlarning o'rtacha qatnash masofasi;
- jo'natuvchi marshrutlash tufayli saralash va uchastka bekatlarida vagonlarni qayta ishlashning kamayish miqdori;
- marshrutlarni tuzish rejasini bo'yicha vagon-soatlarning umumiy tejami.

4.7. Texnikaviy bektalarda vagon oqimlarining tashkil etilishi

Saralash va uchastka bektalari poyezdlar tuzish rejasining maqsadi jo'natuvchi marshrutlar bilan qamrab olinmagan, tezyurar va tezkor poyezdlar tarkibiga kiritilmagan vagonlardan

poyezdlarni eng samarali tashkil etishdir. Samarali tashkil etish tushunchasi quyidagilarni anglatadi:

- yuklarni manziliga tezda yetkazish;
- vagonlarni qayta ishlashida saralash va uchastka bekatlari orasida maqsadga muvofiq tarzda o‘zaro taqsimlash;
- vagonlarni qayta ishlashida eng kam xarajatlarga erishish.

Avval bir guruhli poyezdlar tuzish rejasida ko‘rib chiqiladi, keyin esa ko‘p guruhli ixtisoslashni qo‘llab rejani yaxshilash imkoniyati aniqlanadi.

Poyezdlar tuzish rejasida bekatning poyezd tuzishi kerak bo‘lgan manzillari belgilanadi. Poyezdlar tuzish rejasining manzili deb, poyezdning tarkibi tarqatiladigan oxirgi bekatga aytildi.

Ko‘p guruhli poyezdlar uchun poyezdlar tuzish rejasining manzili deb, vagonlar guruhi tarqatilmay harakatlanadigan oxirgi bekatga aytildi.

Texnikaviy bekatga birikuvchi har bir yo‘nalish bo‘yicha poyezdlar tuzish rejasining bir necha manzili ajratilishi mumkin. Masalan, Chuqursoy bekti g‘arbiy yo‘nalishda Xovos, Jizzax, Samarqand, Navoiy bekatlariga, ya’ni to‘rt manzilga poyezdlar tuzishi mumkin. Bu hol poyezdlar tuzishni tashkil etishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar g‘arbiy yo‘nalishda faqat bir manzil belgilangan bo‘lganda edi, bu yo‘nalishdagi barcha Chuqursoy bekatida qayta ishlanishga kelgan vagonlar tuzilayotgan poyezd tarkibiga kiritilishi mumkin bo‘lar edi.

Lekin manzillar soni to‘rtta bo‘lgani uchun tuzilayotgan poyezd tarkibi (masalan, Navoiy bekti)ga faqat bir manzilning vagonlari kiritilishi mumkin. Demak, Chuqursoy bekatida Navoiy bekatiga jo‘natiladigan poyezd tarkibiga yetarli miqdorda vagon to‘planishi uchun kelayotgan bir necha poyezdlar tarkiblarini qayta ishlash kerak. Bu holda bиринчи poyezd tarkibida kelgan vagonlar eng so‘nggi to‘planish jarayonini tugallovchi vagonlar guruhi qayta ishlashga kelmaguncha kelgan poyezdlarning vagonlarini kutib turadi.

Demak, alohida bekat uchun poyezdlar tuzish rejasidagi manzillarning soni ko‘proq belgilangan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida shuncha ko‘p vagon tugallovchi guruhlarni kutib turadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bekatda manzillar sonining ko‘payishi vagonlarning qayta ishlash jarayonida turish vaqtining oshishiga olib keladi.

Faraz qilaylik, Chuqursoy bekatida g'arbiy yo'nalishda faqat bir manzilga — Xovos bekatiga poyezd tuzadi. U holda Xovos bekatida undan keyingi bekatlarga boradigan barcha vagonlar qayta ishlovdan o'tadi va ularning jo'natishni kutish vaqtini ko'payadi. Agar Chuqursoy bekatida Jizzax, Samarqand va Navoiy bekatlariga poyezd tuzilganda edi, ushbu manzillar vagonlari ketayotgan tarkiblar Xovos bekatida eng kam — qayta ishlovsiz tranzit poyezdning turishi vaqtichalik turgan bo'lar edi. Xuddi shunday holat keyingi bekatlarda (Jizzax va Navoiy) ham kuzatiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, manzillar sonining ko'payishi poyezd tuzish bekatida vagon-soatlar sarfini ko'paytirib, yo'l-yo'lakay texnikaviy bekatlarda uning tejamiga olib kelishi mumkin.

Poyezdlar tuzish rejasini bo'yicha hisoblarning vazifasi shundan iboratki, poyezdlar tuzish manzilini belgilayotganda poyezdlar tuzish bekatida ham, yo'l-yo'lakay bekatlarda ham eng kam umumiy vagon-soatlar sarfiga erishish kerak.

Poyezdlar tuzish rejasining bu shartni qanoatlantiruvchi varianti eng maqbul variantdir.

Poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish masalalarining mohiyatini tushunish uchun vagonlarning to'planish jarayonidagi turish vaqtini nimalardan iborat bo'lishini va poyezdlarning bekatlardan qayta ishlovsiz o'tishida qayta ishlanib o'tishiga nisbatan vagon-soatlar tejami qanday miqdorda hosil bo'lishini ko'rib chiqishimiz lozim.

4.8. Vagonlarning to'planish jarayoni haqida tushuncha


Tuzilayotgan poyezd to'liq tarkibining hosil bo'lish jarayoni **to'planish** deb ataladi. Tarkibning to'planish jarayoni so'nggi tugallovchi vagonlar guruhi kelganida tugaydi. Vagonlarning tugallovchi vagonlar kelishini kutish davri to'planishda turish davri, vagonlarning poyezdga to'planish vaqtini esa tarkibning to'planish davri deb ataladi.

Tarkibning to'planish jarayoni vagonlarning birinchi guruhi kelishidan boshlanadi va u guruh so'nggi tugallovchi guruhi kelgunga qadar to'planish jarayonida turadi. Tugallovchi guruhi uchun turish vaqtini bo'lmaydi, chunki u kelishi bilan to'planish jarayoni tamom bo'ladi. Agar tarqatish uchun kelayotgan poyezdlarning kelish vaqtini va poyezdlar tuzish rejasini manzillari

bo'yicha vagonlar soni ma'lum bo'lsa, har bir tuzilayotgan tarkibning to'planishi uchun vagon-soatlarni hisoblab topish mumkin. Lekin vagonlarning qayta ishlashga kelishi notekisligi va boshqa sabablarga ko'ra, poyezdlarning tarqatishga kelish vaqtłari va uning tarkibidagi vagonlarning manzillar bo'yicha soni oldindan noaniqidir va bu har kuni o'zgarib turadi.

Shu sababli, poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni hal etishda to'planish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash kerak. Misol tariqasida poyezdlar tuzish rejasining bir manzili bo'yicha hisoblarni ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, A bekatiga B bekatiga har kuni tarkibida 48 tadan vagon bo'lgan 4 ta poyezd tuzadi. Bu manzilning umumiyligi vagon oqimlari $48 \times 4 = 192$ vagonga teng. A bekatiga qayta ishlashga kelayotgan poyezdlarda B bekatiga uchun 8 tadan vagon bor. Demak, bir tarkibning to'planishi uchun $48 : 8 = 6$ poyezdni tarqatish kerak. Poyezdlarning bir maromda kelishi va jo'natalishi sharoitlarida tarkiblarni har $24 : 4 = 6$ soatda tuzish kerak. Bu davr mobaynida 6 ta poyezd kelishini hisobga olsak, ular orasidagi vaqt intervali 1 soatga tengdir.

4.4- rasmida yuqorida bayon etilgan sharoitlar uchun tarkiblar-ning vagonlar qoldig‘isiz to‘planish jarayoni chizmasi keltirilgan. Unda birinchi poyezd bilan kelgan 8 ta vagon 5 interval, ikkinchi poyezd bilan kelgani 4 intervalda turadi.



4.4- rasm. Tarkibning to‘planish grafigi.

So'nggi guruh vagonlari to'planish jarayonida turmaydi. Bir tarkibning to'planishi uchun vagonlarning umumiy turish vaqtini quyidagiga tengdir:

$$8 \cdot 1(5+4+3+2+1)=120 \text{ vagon-soat}.$$

B bekatiga jo'natilayotgan barcha poyezdlarning bir kundagi to'planish vagon-soatlari:

$$120 \times 4=480 \text{ vagon-soat}.$$

Bunda ushbu manzil vagonining o'rtacha turish vaqtini:

$$480:192=2,5 \text{ soat}$$

bo'ladi.

Endi vagon oqimlari miqdori o'zgarsa, qanday bo'lishini ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, bir kunda 4 poyezd (192 vagon) emas, balki 8 poyezd (384 vagon) tuziladi. Kelayotgan poyezd guruhidagi vagonlar soni o'zgarishsiz qoladi (8 vagon). U holda kelayotgan guruhlar orasidagi vaqt intervali 0,5 soatgacha kamayadi, ya'ni 30 daqiqa bo'ladi. Demak, bir tarkib to'planishi uchun vagonlarning turish vaqtini:

$$8 \cdot 0,5(5+4+3+2+1)=60 \text{ vagon-soat}.$$

0,5 soatgacha kamayadi. Lekin barcha tarkiblarning to'planishi vagon-soatlari o'zgarishsiz qoladi:

$$60 \times 8=480 \text{ vagon-soat}.$$

Bir vagonning to'planish jarayonida o'rtacha turish vaqtini kamayadi va:

$$480:384=1,25 \text{ soatga}$$

teng bo'ladi.

Endi, faraz qilaylikki, xuddi shunday vagon oqimlarida (192 vagon), kelayotgan tarkiblarda B bekati uchun 8 tadan emas, balki 16 tadan vagon bor, lekin tarkiblar har 1 soatda emas, har 2 soatda keladi. U holda bir tarkibning to'planishi uchun vagon-soatlari:

$$16 \cdot 2(2+1)=96 \text{ vagon-soat}.$$

Hamma poyezdlar uchun esa:

$$96 \times 4 = 384 \text{ vagon-soat.}$$

To'planish jarayonida bir vagonning o'rtacha turish vaqtি:

$$384 : 192 = 2 \text{ soat}$$

bo'ladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu sharoitlarda vagonlarning to'planish jarayonida o'rtacha turish vaqtি kamayadi.

Demak, poyezdlar tuzish rejasи manzilining vagon oqimlari ko'payganda, guruhlardagi vagonlar soni ortganda, to'planish jarayonida vagonlarning o'rtacha turish vaqtি kamayadi.

4.9. Vagonlarni texnikaviy bekatlardan qayta ishlovsiz tranzit poyezdlarda o'tkazishning foydasini hisoblash

Agar ilgari bekatda qayta ishlangan vagon endilikda bekatdan qayta ishlovsiz o'tsa, vagon-soatlarning tejamiga erishiladi. Ushbu tejamning miqdorini to'g'ri hisoblash maqsadida bekatda vagonlarni qayta ishslash qanday chiqimlardan iborat va ularning qaysi qismini qisqartirish mumkinligini ko'rib chiqamiz.


Bekatda qayta ishlanuvchi vagonlarning turish vaqtি texnologik amallar (kelish, tarqatish, tuzish, jo'natish) vaqtি t_{amal} va vagonlarning to'planish vaqtি $t_{\text{to:p}}$ dan iborat, ya'ni:

$$t = t_{\text{amal}} + t_{\text{to:p}} \text{ soat.}$$

Agar vagon qayta ishlanmaydigan tranzit poyezd tarkibida bo'lsa, u holda vagonning bekatda turish vaqtি tranzit poyezd bilan ishslash vaqtি t_{tr} ga teng bo'ladi.

Vaqt tejami $t_{\text{q.i.}}$ va t_{tr} orasidagi farqqa teng bo'ladimi, degan savol tug'iladi. Bunga javobni 4.5- rasmni tahlil qilib topish mumkin. Ushbu rasmda tuzish rejasining ikki varianti keltirilgan: birinchisi (a) da — barcha vagonlar B bekatida qayta ishlanadi va ikkinchisi (b) da — vagonlarning bir qismi (n_m) B bekatidan qayta ishlovsiz tranzit poyezdlar tarkibida o'tadi. B bekatida tarkiblarning to'planishi uchun sarflanadigan vagon-soatlarning tejamiga erishilishi mumkinligini ko'rib chiqamiz. Amalda bunday bo'lmas ekan. Avvalgi bandlardan ma'lumki, to'planish uchun sarflar vagon oqimlarining o'zgarishiga bog'liq emas, ularning miqdori esa manzillar soni bilan aniqlanadi. Ikkinci variantda

B bekatida qayta ishlanuvchi n_v vagon oqimlari $n_v - n_m$ miqdorigacha kamaydi, lekin manzillar soni o'zgarishsiz qoladi. Demak, to'planish uchun vagon-soatlar sarfi o'zgarishsiz qoldi. Marshrutlanadigan n_m vagon oqimlarining har bir vagoni tejagan vagon-soatlar B bekatida qayta ishlanuvchi $n_v - n_m$ vagonlar tomonidan sarflanadi, chunki ular avvalgidan ko'proq davr mobaynida to'planish jarayonida turadi.



4.5- rasm. Poyezdlarni manzillar bo'yicha tuzish chizmasi.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilamizki, qayta ishlanuvchi vagonning tranzit poyezdlarida o'tkazilishidan hosil bo'luvchi vagon-soatlarning tejami to'planishni hisobga olmaga, amallarni bajarish vaqtining qisqartirilishiga bog'liqdir.

4.10. Poyezdlar tuzish rejasini hisoblash usullari

Poyezdlar tuzish rejasini hisoblashning barcha usullari ikki guruhga bo'linadi:

- absolyut hisoblash;
- analitik taqqoslash.

1944- yil prof. A.P. Petrov tomonidan tavsiya etilgan absolyut hisoblash usulining mohiyati mumkin bo'lgan variantlar bo'yicha hisoblash va natijalarni taqqoslash yordamida eng yaxshi variantni topishdan iboratdir. Hisoblash variantlarining ko'pligi tufayli hisoblashni ikki bosqichda olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu maqsadlarda temir yo'llar tarmog'ining hisobiyo'nalishida soni oltitadan ortmagan tayanch saralash bekatlari ajratib olinadi. Hisoblarning birinchi bosqichida faqat tayanch bekatlar inobatga olinadi, ikkinchi bosqichda esa tayanch bekatlar bilan cheklangan uchastkalar bo'yicha hisoblar olib boriladi. Bir vaqtning o'zida

hisoblarda ishtirok etuvchi bekatlar sonining kamayishi variantlar sonining keskin kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, maxsus jadvallarning qo'llanilishi hisob ishlarini soddalashtirish va xatoliklar ehtimolini kamaytirish imkonini beradi.

Absolyut hisoblash usulining afzalliklari undagi hisoblarning soddaligi, aniqligi va ishonchlilikidadir.

Analitik taqqoslash usulining asoschisi prof. I.I. Vasilyev bo'lib, keyinchalik bu usul Umumrossiya temir yo'l transporti ilmiy-tadqiqot instituti, Moskva Davlat temir yo'l transporti muhandislari universiteti, Sankt-Peterburg Davlat temir yo'l transporti muhandislari universiteti olimlari tomonidan takomillashtirildi. Ushbu usulning mohiyati vagon oqimlarining tarmoqlarini ma'lum tartibda ko'rib chiqib, ularni to'planish uchun vagon-soatlар sarfini va yo'l-yo'lakay bekatlardan qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'ladigan tejamlar bilan taqqoslash asosida biriktirib, poyezdlar tuzish rejasining optimal variantiga qo'shiluvchi o'tkinchi poyezdlar manziliga kiritishdan iboratdir.

Ushbu manzillarga kiritilgan vagon oqimlari keyingi hisoblarda ishtirok etmaydi va qolgan vagon oqimlari tarmoqlaridan avvalgidek taqqoslashlar orqali optimal manzillar ajratilib, keyingi hisoblardan chiqariladi. Hisoblar shu tartibda to vagon-soatlarning sarfi, ularning tejamidan ortiq bo'lgan vagon oqimlari tarmoqlari qolguncha davom ettiriladi.

Bu usul bekatlarning istagan soni uchun qo'llanilishi mumkin bo'lib, ancha murakkabdir.

Hozirgi davrda poyezdlar tuzish rejasini EHM yordamida quyidagi usullar bo'yicha hisoblanadi:

- optimal variantni ketma-ket topish usuli;
- variantlarning yo'naltirilgan tanlovi usuli;
- biriktirilgan analitik taqqoslashlar usuli;
- tuzish rejasini ketma-ket yaxshilash usuli.

4.11. Bir guruhli poyezdlar tuzish rejasining hisobi

Bir guruhli poyezdlar tuzish rejasining hisobi unda tarkiblarning to'planishi va vagonlarning qayta ishlanishi uchun sarflanadigan umumiy vagon-soatlari eng kam miqdorda bo'lishi kerak.


Bunday masalani hal etish murakkabdir, chunki poyezdlar tuzish rejasining bunday variantini ko'plab variantlar ichidan tanlab olish kerak. Masalan, yo'nalishdagi poyezd tuzuvchi bekatlar soni beshta bo'lganda, variantlar soni 103 ta, 6 ta bekat bo'lganda, 3720 ga tengdir. Ko'rinish turibdiki, bekatlar soni olititadan ortganda variantlar soni juda katta miqdorda bo'ladi.

Shu sababli variantlar sonini keskin kamaytirish maqsadida, avval aytib o'tganimizdek, hisoblar ikki bosqichda olib boriladi. Avval asosiy saralash bekatlari orasida so'ngra esa qo'shni saralash bekatlari orasida bir guruhli poyezdlar tuzish rejasi hisoblanadi.

Vagon oqimlari tarmog'ini bir guruqli o'tkinchi poyezdlarning alohida manziliga ajratish faqat vagonlarning yo'l-yo'lakay texnikaviy bekatlardan qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'lgan umumiy vagon-soatlardan tejami tarkibning to'planishi uchun sarflangan vagon-soatlardan katta yoki teng bo'lgandagina amalgamoshirilishi mumkin. Bu shart zaruriy shart deb ataladi.

Buni misol yordamida ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, A—E yo'nalishida to'rtta texnikaviy bekat A, B, D, E bo'lib, vagon oqimlarining uch tarmog'i bor: $n_{AE} = 160$, $n_{AD} = 240$, $n_{AB} = 100$ vagon (4.6- rasm).



4.6- rasm. A—E yo'nalishida vagon oqimlarining zinasimon grafigi.

n_{AE} vagon oqimlari tarmog'i uchun vagon-soatlarning tejami:

$$160 \text{ (4,5+4,0)} = 1360 \text{ vagon-soat.}$$

Bir manzilga tarkibning to'planishi uchun, masalan, 1000 vagon-soat sarflanadi. U holda n_{AE} vagon oqimlari tarmog'inining umumiy tejami:

$$1360 - 1000 = 360 \text{ vagon-soat}$$

bo'ladi.

n_{AD} vagon oqimlari tarmog'i uchun tejam:

$$240 \cdot 4,5 = 1080 \text{ vagon-soat}$$

ga teng.

Umumiy tejam esa:

$$1080 - 1000 = 80 \text{ vagon-soat.}$$

Ikkita tarmoqni alohida manzillarga ajratishdan hosil bo'lgan umumiy tejam:

$$360 + 80 = 440 \text{ vagon-soat.}$$

Lekin faqat zaruriy shartning bajarilishi vagon oqimlari tarmoqlarining poyezdlar tuzish rejasini alohida manzillarga ajratishning optimal variantini bermaydi. Ikki tarmoqni bir manzilga biriktirilsa, yanada kattaroq tejamga erishish mumkin ekan.

Biriktirilgan $n_{AE} + n_{AD}$ tarmog'inining B bekatini qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'lgan tejam:

$(160 + 240) \cdot 4,5 = 1800$ vagon-soatga teng. Tarkibning to'planishi uchun vagon-soatlar sarfini hisobga olsak, umumiy tejam:

$$1800 - 1000 = 800 \text{ vagon-soat}$$

bo'ladi, ya'ni, bu avvalgi holatdan ko'proqdir.

Demak, uzoqroq tarmoqni poyezdlar tuzish rejasining alohida manzili (yaqinroq tarmoq bilan biriktirish o'rni)ga ajratish faqat yaqinroq tarmoqning harakati tugaydigan bekatni qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'lgan tejam to'planish uchun sarflardan ortiq bo'lgandagina maqsadga muvofiqdir. Bu shart yetarli shart deb ataladi.

Agar biror tarmoqning texnikaviy bekatni qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'lgan tejam to'planish uchun vagon-soatlar sarfidan katta bo'lsa, bu tarmoq umumiy yetarli shart talablariga javob beradi, deb hisoblanadi. Bunday tarmoqlar doimo alohida manzillarga ajratiladi.

4.12. Ko'p guruhli poyezdlar tuzish

Vagon oqimlarining nisbatan kichik tarmoqlarini poyezdlar tuzish rejasining alohida manziliga ajratish to'planish uchun ortiqcha sarflarga olib keladi. Shu vaqtning o'zida boshqa tarmoqlar bilan

biriktirilishi katta hajmda saralash ishlarini amalga oshirishga mo'ljallanmagan uchastka bekatlarining bandligini haddan ziyod oshirib yuboradi. U holda ko'p guruhli poyezdlar tuzish maqsadga muvofiqdir. Bunday poyezdlarda bir tarkibda uzoq va yaqinroq tarmoqlarning yoki bir xil uzoqlikdagi turli yo'nalishlardagi uzel bekatigacha harakatlananidan tarmoqlarning vagonlari jamlanadi.


Ko'p guruhli poyezdlar tuzishda har bir tarmoqni mustaqil manzillarga ajratishga nisbatan vagonlarning to'planish jarayonida turish vaqtini kamayadi. Shu bilan birga, har bir tarmoq vagonlarini alohida guruhlarga ajratish poyezdni jo'natish bekatida tuzish vaqtini kam miqdorda uzaytirgan holda guruhlarni qayta biriktirish bekatida ishlarni ancha yengillashtiradi. Chunki uzoqroqqa jo'natiluvchi vagonlar qaytadan saralanib tuzilmaydi, balki bu guruh butunicha jo'natilayotgan poyezd tarkibiga kiritiladi va u boshqa poyezdlar bilan kelgan guruhlar bilan yoki shu bekatda tuzilgan vagonlar guruhi bilan to'ldiriladi. Shunday qilib, ko'p guruhli poyezdlar vagonlar to'planishi uchun vagon-soatlar sarfini kamaytirib, bekatlararo saralash ishlarining samarali taqsimotini saqlab qolishga imkon beradi.

Ko'p guruhli poyezdlarni, asosan, saralash qurilmalari rivojlangan bekatlarda tuzish maqsadga muvofiqdir. Ko'p guruhli poyezdlarni tuzish ularni tuzishga bo'lган qо'shimcha chiqimlar bir guruhli poyezdlar qayta ishlov bekatida erishadigan tejamdan kichik bo'lgandagina samaralidir.


Ko'p guruhli poyezdlarni tuzish poyezdlarning og'irlilik me'yordi o'zgaradigan sharoitlarda ham maqsadga muvofiq. Buning uchun tarkibning asosiy qismi og'irlilik me'yori o'zgartiriluvchi bekatda qayta ishlanuvchi vagonlar guruhi bilan to'ldiriladi.

4.7- va 4.8- rasmlarda *A* va *B* bekatlarida *D* va *E* bekatlariga jo'natiluvchi vagon guruhlaridan iborat ikki guruhli poyezdlar tuzish chizmasi keltirilgan. Guruhlar *F* bekatida qayta biriktiriladi.

Bir guruhli poyezdlar tuzish uchun yetarli miqdorda vagon oqimlariga ega bo'lмаган birikuvchi va kesishuvchi yo'nalishlarda guruhlari o'zgarmas va aniq jadval bo'yicha harakatlanuvchi ko'p guruhli poyezdlar tuzish samara berishi mumkin. Yuklash joylaridan bunday poyezdlarni tuzish samaralidir, chunki kalendar rejalash orqali tegishli manzillar bo'yicha ma'lum sondagi vagonlar tuzishni boshqarish mumkin.



4.7- rasm. Ikki guruhli poyezdlar tuzish chizmasi.



4.8- rasm. Guruhlarni almashlash chizmasi.

Marshrutlar harakatlanishining ba'zi yo'nalishlarida poyezdlar og'irligining turli me'yorlaridan foydalaniadi va shu sababli yo'l-yo'lakay vagonlarni uzish yoki biriktirish amallari bajariladi.

Poyezdlarning og'irlik me'yorlari kamaytiriladigan holatlarda, agarda og'irlik me'yori o'zgartiriladigan bekat manzilida vagonlar bor bo'lsa, marshrut ikki guruhdan tuziladi: asosiy guruh — kamaytirilgan og'irlik me'yoriga mos bo'lgan vagonlar guruh va qo'shimcha guruh. Qo'shimcha guruh vagonlari bo'Imagan holda marshrut bir guruhli poyezd sifatida jo'natiladi va og'irlik me'yori kamaytiriladigan bekatda uzib qolningan vagonlardan qo'shimcha marshrutlar tuziladi.

Poyezdlarning og'irlik me'yorlari ko'paytiriladigan holatlarda marshrut xuddi shu manzilga belgilangan vagonlar bilan to'ldiriladi. Agar bunday vagonlar yo'q bo'lsa, u holda yo'l-yo'lakay bekatlar manziliga belgilangan vagonlar bilan to'ldiriladi.

Ba'zi hollarda texnik-iqtisodiy hisoblar ijobiy natija berganda marshrutlar tarkibi o'zgarishsiz o'tkaziladi.

4.13. Uchastka, terma va chiqaruvchi poyezdlarni belgilash

Marshrut va o'tkinchi poyezdlar bilan qamrab olinmagan vagon oqimlaridan uchastka, terma, chiqaruvchi poyezdlar, temir yo'l uzellarida esa uzatuvchi poyezdlar ham tuziladi.

Mahalliy vagon oqimlarini tashkil etish mahalliy ishlar huddida ko'rib chiqiladi. Uchastka poyezdlari vagon oqimlari kuniga 2,5 tarkib to'planishi mumkin bo'lgan hollarda belgilanadi. Uchastka vagon oqimlarining hajmi kamroq bo'lganda uni quyidagi uch variantda tashkil etiladi:

- 1) uchastka manzilini belgilash va u bilan birga uchastka oqimining barcha vagonlarini jo'natish; u holda uchastkada terma poyezdlar soni kam miqdorda bo'ladi;
- 2) uchastka manzilini belgilash va uchastka oqimining bir qismi bilan terma poyezdlarning og'irlilik me'yorini to'ldirish;
- 3) uchastka vagon oqimlarini terma poyezdlar tarkibida jo'natish iqtisodiy jihatdan samarador hisoblar yordamida aniqlanadi.

4.14. Bo'sh vagon oqimlarini tashkil etish

Bo'sh vagonlardan poyezdlar bevosita yuk tushirish bekatlarida yoki yuk tushirish punktlaridan terma, chiqaruvchi yoki uzatuvchi poyezdlar bilan saralash va uchastka bekatlariga keltirilib, u yerda tuziladi.

Bo'sh vagonlardan marshrutlar, asosan, bir turli vagonlardan tuziladi. Ba'zi hollarda marshrutlar ma'lum bir turli yuk tashish uchun tayyorlangan vagonlardan tuzilishi ham mumkin. Masalan, bo'sh yopiq vagonlardan don mahsulotlarini tashish uchun tayyorlangan yoki chorva mollarini tashish uchun moslashtirilgan marshrutlar, sisternalardan neft mahsulotlarini tashuvchi marshrutlar va boshqalar.

Agar turlari bo'yicha bo'sh vagonlar soni kam bo'lsa, u holda poyezd tarkibida bu vagonlar turlari bo'yicha guruhlarga bo'lib joylashtiriladi. Agar bo'sh vagonlar umuman kam miqdorda

bo'lsa, ular aralash poyezd tarkibida yuklangan vagonlar bilan birgalikda jo'natiladi.

Bo'sh vagonlardan marshrutlar tuzish hisoblar yordamida tanlanadi. Bu hisoblarda to'planish uchun chiqimlar yo'l-yo'lakay saralash va uchastka bekatlaridan qayta ishlovsiz o'tishidan hosil bo'lgan tejamlar hamda manzil bekatida tarkiblarni qaytadan tuzishsiz yuklash joylariga uzatish mumkinligi samaradorligi bilan taqqoslanadi.

Hisoblar tartibi bo'sh vagon oqimlari o'zgarish xarakteriga ham bog'liq.

Kamayuvchi vagon oqimlarida marshrutlarni ajratishning maqsadga muvofiqligi, asosan, bo'sh vagonlarning manzil bekatida erishiladigan eng kam tejamga bog'liqdir. Ko'payuvchi va harakat mobaynida o'zgaruvchi oqimlarda, bundan tashqari, bo'sh vagonlardan marshrutlar tuzishning vagon oqimlari o'suvchi yo'l-yo'lakay saralash va uchastka bekatlariga ko'chirishning maqsadga muvofiqligi bilan tekshiriladi.

Aralash tarkibli ko'p guruhli poyezdlar tuzishning samaradorligi ularni poyezdlarni alohida yuklangan va bo'sh vagonlardan tuzish bilan taqqoslab aniqlanadi.

4.15. Poyezdlar tuzish rejasini rasmiylashtirish

Bekatlar ishini poyezdlar tuzish rejasiga muvofiq tashkil etishda bekatning belgilangan bandlik darajasi, uning texnikaviy rivojiga mosligi muhim ahamiyatga ega.

Ma'lum darajada bektlarning texnikaviy rivoji hisoblarda inobatga olinadi: saralash qurilmalari yaxshi rivojlangan bektatlarga katta hajmda qayta ishlash yuklanadi; relsni ishlab chiqishda saralash yo'llarinining soni bo'yicha cheklashlar hisobga olinadi. Ammo bekatning to'liq bandligi barcha hisoblar bajarilgandan so'ng va umumtarmoq hamda mahalliy yo'nalishdagi manzillarni hisobga olgan holda optimal variant belgilangandan so'ng aniqlanadi. Shu sababli poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqishning yakuniy bosqichida har bir bekat bo'yicha quyidagilar tekshiriladi:

— saralash tepaligi qurilmalari va uzaytirilgan yo'llar rivoji rejalashtirilgan hajmda poyezdlarni tarqatish bo'yicha ishlarni bajara olish;

— rejada belgilangan manzillar bo'yicha poyezdlarni tuzish uchun saralash parklaridagi yo'llarning yetarli ekanligi.

Agar rejaning amaldagi imkoniyatlarga mos emasligi aniqlansa va bu hol tashkiliy-texnikaviy tadbirlar orqali bartaraf etila olinmasa, rejaga o'zgartirishlar kiritilishi va ishlarning bir qismi boshqa bekatlarga o'tkazilishi lozim.

Poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarning sifati uning ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Texnikaviy bekatlarda poyezdlar tuzish rejasining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

— poyezdlar turi bo'yicha manzillar soni;

— texnikaviy bekatlardan qayta ishlovsiz va qayta ishlanib o'tkaziladigan tranzit vagonlar soni va qayta ishlash koeffitsiyenti;

— qayta ishlash vagon-soatlari, to'planish vagon-soatlari va vagonning to'planish jarayonida o'rtacha turish vaqt;

— o'tkinchi va uchastka poyezdlarining o'rtacha harakatlanish masofasi va vagonning qayta ishlovsiz harakatlanish o'rtacha masofasi.

Barcha ko'rsatkichlar bekatning poyezdlar tuzish rejasini pasportiga yozib qo'yiladi. Ushbu pasport quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Poyezdlar tuzish rejasini bajarish uchun texnikaviy vositalar.

2. Poyezdlar tuzish rejasining asosiy ko'rsatkichlari.

3. Bekat tuzuvchi poyezdlarning manzillari, saralash yo'llari bilan ta'minlanganligi va vagon oqimlari tahlili.

4. Bekatdan tranzit tarzda o'tkaziluvchi vagon oqimlari, ularning jo'natilish va manzil bekatlari.

5. Bekat ishining amaldagi ko'rsatkichlari.

Poyezdlar tuzish rejasini temir yo'llararo manzillar uchun asosiy saralash bekatlari bo'yicha alohida kitobcha shaklida chop etiladi va o'zida quyidagi ma'lumotlarni jamlaydi:

— asosiy saralash bekatlarining alfavitli ro'yxati;

— bu bekatlar uchun poyezdlar tuzish rejasini;

— temir yo'llararo poyezdlar tuzish rejasini;

— tez buzuluvchan yuklarni marshrutlarda tashish uchun refrijerator poyezdlar ro'yxati.

Bekatlar uchun poyezdlar tuzish rejasini quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— bekatda tuziluvchi poyezdlar ro'yxati;

- poyezdlarning va tarkibdagi vagonlarning manzillari;
- poyezdlarda vagonlarni jamlash tartibi, poyezd turlari.

Chuqursoy bekti uchun poyezdlar tuzish rejasining namunasi quyidagi 4.2- jadvalda keltirilgan.

4.2- jadval

| Poyezdning manzil bekati | Vagonlar guruhining manzili | Poyezd turi |
|-----------------------------|--|--------------|
| Chuqursoy — Ohangaron. | Ohangaron va boshqalar, bo'sh sement tashuvchilarni qo'shib. | Chiqaruvchi. |
| Chuqursoy — Jizzax. | Paxtaorol —Jizzax uchastkasiga. | Terma. |
| Chuqursoy — Xovos. | Xovos va boshqalar, Qo'qongacha. | O'tkinchi. |

Temir yo'llararo tuzish rejasini tuzuvchi bektalar nomi va poyezdlarning manzili, har bir birikish punktida qo'shni temir yo'llarga topshiriluvchi vagonlar guruhining manzili va poyezdlar turi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Temir yo'lning ichki poyezdlar tuzish rejasini temir yo'l rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi va alohida kitobcha shaklida chop etiladi.

U quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1. Umumiy ko'rsatkichlar.
2. Temir yo'lning o'zida tuzilgan poyezdlarni jo'natuvchi har bir bekti bo'yicha tuzish rejasini.
3. Temir yo'lning qabul qilish va topshirish punktlari bo'yicha temir yo'llararo tuzish rejasini.
4. Jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar tuzish rejasini.

4.16. Poyezdlar tuzish rejasiga tezkor o'zgartishlar kiritish


Temir yo'llarda yuk tashish ishlari turli sabablarga ko'ra notekisidir. Vagon oqimlarining notekisligi va ular tarkibining o'zgarishini hisobga olgan holda ma'lum davr o'tgandan so'ng amaldagi poyezdlar tuzish rejasiga tezkor o'zgartishlar kiritiladi.

Poyezdlar tuzish rejasiga o'zgartishlar kiritishga asos bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- poyezdlar tuzish rejasni bajarilishining tahlili;
- vagon oqimlarining ko'payishi yoki kamayishi;
- davlatlararo tashish ishlari uchun chegara punktlarining o'zgarishi.

Tezkor o'zgartishlar kiritishga asos — ob-havo sharoitlarining ta'siri va favqulodda holatlardir.

Poyezdlar tuzish rejasiga va vagon oqimlarini yo'naltirish tartibiga o'zgartishlar quyidagicha kiritiladi: davlatlararo yo'nalishlar uchun hamdo'stlik davlatlari temir yo'l transporti bo'yicha kengash direksiyasi tomonidan taqdim qilinadi va uning rahbari tomonidan tasdiqlanadi; davlat ichidagi yo'nalishlar uchun — temir yo'l transporti ma'muriyati tomonidan taqdim qilinadi va uning rahbari tomonidan tasdiqlanadi; bekatlarda manevr ishlari mijozlar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq bekat muhandisi va boshlig'i tomonidan tashkil qilinadi va tezkor tartibda unga o'zgartishlar manevr dispetcheri va bekat navbatchisi tomonidan kiritiladi.



4.9- rasm. Saralash bekatida poyezdlar tuzish rejasiga o'zgartishlar kiritish chizmasi.

AHM — axborot-hisoblash markazi.

Saralash bekatida poyezdlar tuzish rejasiga o'zgartishlar tashish ishlari boshqarmasi (D) telegrammalari asosida kiritiladi (4.9- rasm).

Ushbu telegrammalarda temir yo'llararo va temir yo'lning ichki yo'nalishlarida poyezdlar kiritish, ularni bekor qilish yoki tarkiblarga o'zgartirishlar kiritish haqida ma'lumotlar aks ettirilishi kerak.

4.17. Poyezdlar tuzish rejasining bajarilishini ta'minlash

Poyezdlar tuzish rejasini bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

- bekatlarning texnik kontoralarini zarur ko'rsatmalar va hujjatlar bilan ta'minlash (tarmoq belgisi kartalari, bekatlarning tarmoq belgisi bilan birga alfavitli ro'yxati, poyezdlar tuzish rejasini kitobchalari va h.k.);
- tegishli xizmatchilar tomonidan poyezdlar tuzish rejasining o'rganilishi;
- asosiy saralash bekatlarida poyezdlar tuzish rejasining bajarilishi va uning ko'rsatkichlari tahlili;
- saralash yo'llari ixtisoslashtirilishiga o'zgartishlar kiritish;
- guruhlari almashtiriluvchi va tezkor yukli poyezdlar bilan ishslash tartibini belgilash;
- rejani bajarishning dispetcherlik boshqaruvi tizimini tartibga solish;
- bekatda vagonlar turish vaqtini hisobga olishni tekshirish.

Poyezdlar tuzish rejasini qanday sifatli ishlab chiqilganiga qaramay, uning bajarilishini muntazam nazorat etilmasa u ijobjiy samara bermaydi.

Poyezdlar tuzish rejasining buzilishi deb, vagon oqimlarini amaldagi tuzish rejasiga mos bo'lmanan va temir yo'llarga iqtisodiy zarar yetkazadigan holda tashkil etishga aytildi.

Poyezdlar tuzish rejasining buzilishlariga quyidagilar kiradi:

- o'tkinchi poyezdlar uchun — poyezdlar harakati aylanma bo'lgan bir yoki bir necha vagonlarni tarkibga kiritish;
- tarqatishga keluvchi poyezdlar uchun — poyezdlar tuzish rejasida ko'zda tutilmagan, orqaga qaytuvchi vagonlarni tarkibga kiritish;
- uzoqroq manzilli uch va undan ortiq, amaldagi poyezdlar tuzish rejasiga muvofiq qayta ishlovsiz o'tishi kerak bo'lgan vagonlarni shu bekatda qayta ishlanuvchi poyezdlar tarkibiga kiritish;
- ko'p guruqli poyezdlar tarkibiga kiruvchi vagonlar guruqlarini ularni tuzish va tarkibda joylashtirishning belgilangan tartibiga amal qilmaslik;

— jo‘natuvchi marshrut tarkibiga marshrut manziliga mos bo‘lмаган вагонларни киритиш;

— jo‘natuvchi marshrutlar va texnikaviy bekatlarda tuzilgan poyezdlarni yo‘l-yo‘lakay to‘ldirishning belgilangan tartibiga riosa qilmaslik;

— bo‘sн вагонлардан marshrutlar tuzishning belgilangan tartibiga riosa qilmaslik;

— poyezdlar va jo‘natuvchi marshrutlarni manzil bekatiga yetib bormasdan tarqatish;

— tarqatilishi lozim bo‘lgan poyezdlarni bekatdan o‘tkazib yuborish;

— poyezd tarkibiga tashish hujjatlari bo‘lмаган yuklangan вагонларни киритish.

Poyezdlar tuzish rejasи buzilishlarining amaldagi nazorat tizimi quyidagilarga imkon beradi:

— buzilishlarni aniqlash;

— vagon oqimlarini tashkil etish tizimida ushbu buzilishlarga ruxsat etish;

— ushbu buzilishlarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslik;

— poyezdlar tuzish rejasи buzilishlarining umumiy statistikasini olib borish.

Hozirgi davrda poyezdlar tuzish rejasи bajarilishi nazoratning takomillashtirilgan tizimini qo‘llash maqsadga muvofiqdir (4.10- rasm).

Poyezdlar tuzish rejasи bajarilishi nazoratining takomillashtirilgan tizimi quyidagilarni bajarish imkonini berishi kerak:

— poyezdlar tuzish rejasи buzilishlarini aniqlash;


— buzilishlar ko‘lamini aniqlash, buzilishlar keltirgan iqtisodiy talafotlarni aniqlash;

— buning asosida poyezdlar tuzish rejasи buzilishlariga ruxsat etish yoki poyezdlar tuzish rejasи bo‘yicha amallarni taqiqlash;

— amallar taqiqlanganda tuzish bekti texnikaviy vositalari yordamida buzilishlarni darhol bartaraf etish;

— amallar ruxsat etilganda yo‘l-yo‘lakay bartaraf etish choralarini qo‘llash yoki tuzatishlar kiritmaslik;

— poyezdlar tuzish rejasining yo‘l qo‘yilgan buzilishlar statistikasini olib borish.



Poyezdlar tuzish rejasи nazoratining takomillashtirilgan tizimi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuk oqimlari deb nimaga aytildi?
2. Vagon oqimlari deb nimaga aytildi?
3. Vagon oqimlarini tashkil etishning vazifalari nimalardan iborat?
4. Yuk poyezdlarining qanday turlari bor?
5. Poyezdlar tuzish rejasining ahamiyati nimadan iborat?
6. Poyezdlar tuzish rejasи qanday tartibda ishlab chigiladi?
7. Jo 'natuvchi va zinasimon marshrutlar deb qanday marshrutlarga aytildi?
8. Texnikaviy bekatlarda vagonlar oqimi qanday tashkil etiladi?
9. Vagonlarning to'planish jarayonini qanday tezlatish mumkin?
10. Poyezdlar tuzish rejasи qaysi usullar bilan hisoblanadi?
11. Bir guruhli poyezdlar tuzish rejasining hisobi qanday?
12. Ko'p guruhli poyezdlar tuzish tartibi qanday?
13. Bo'sh vagonlar oqimi qanday tashkil etiladi?
14. Poyezdlar tuzish rejasи qanday rasmiylashtiriladi?
15. Poyezdlar tuzish rejasining bajarilishini ta'minlash uchun nimalar zarur?

V BOB. POYEZDLAR HARAKATI GRAFIGI

5.1. Poyezdlar harakati grafigining ahamiyati

Temir yo'l transportida muhim texnologik masalalardan biri poyezdlar harakatini ratsional tashkil qilishdir.

Poyezdlar harakati murakkab ishlab chiqarish jarayonidir. Bu jarayonda temir yo'llarning barcha turdag'i texnikasi — bekatlar, lokomotivlar va vagonlar, yo'l va sun'iy inshootlar, energetik va boshqa qurilmalar ishtirok etadi: ushbu texnikaga temir yo'lning turli mutaxassislik va sohadagi ishchilar xizmat ko'rsatadi. Ular qatoriga bekatlar, lokomotiv va vagon depolari, yo'l, signal-lashtirish va aloqa distansiyalari, energiya ta'minoti uchastkalari va boshqa ishlab chiqarish korxonalarining ishchi va xizmatchilar ham kiradi. Transport jarayonining aniq bajarilishini ta'minlash uchun temir yo'llarning barcha bo'linmalari va xodimlarining ishini poyezdlar harakatini bir maromda va bexatar tashkil qilishga yo'naltirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi temir yo'llaridan texnikaviy foydalananish qoidalariiga muvofiq poyezdlar harakati grafigi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- yo'lovchi va yuk tashish rejasining bajarilishini;
- poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashni;
- harakatdagi tarkibdan samarali foydalanishni;
- bekat va unga birikuvchi uchastkalar ishining o'zaro mutanosibligi hamda ularning poyezd o'tkazish qobiliyatidan samarali foydalanishni;
- lokomotiv brigadalarining to'xtovsiz ishlash vaqt me'yoriga amal qilishni.

Grafikda ko'rsatiladigan poyezdlar jo'natilishi rejalahtirilgan yo'lovchilar soni va yuk hajmi orqali aniqlanib, yo'lovchi va yuk hisobga olingan holda tashish ishlari rejasining bajarilishini ta'minlashi kerak. Bekat va unga birikuvchi uchastkalar ishining o'zaro mutanosibligi poyezdlarning bektalg'a kelishi bektlar-

ning quvvatiga muvofiq tarzda, jo‘natilishi esa peregonlarning poyezd o‘tkazish qobiliyatidan to‘liq foydalanishni ko‘zda tutgan holda amalga oshirilishi orqali ta’minlanadi.

Yo‘lovchi poyezdlarning harakat grafigi qat’iy reja bo‘lib, undan chetlanish ishlab chiqarish intizomining qo‘pol tarzda buzilishi deb hisoblanadi.

Yuk poyezdlarining harakat grafigi texnologik me’yoriy hujjat bo‘lib, ayni vaqtida u dispetcher uchun sifat va son ko‘rsat-kichlarini yaxshilash maqsadida poyezdlar harakatini boshqarishga ijodiy yondoshish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

5.2. Poyezdlar harakatini grafikda ifodalash


Poyezdlar temir yo‘llarda qat’iy ishlab chiqilgan reja bo‘yicha harakat qiladi. Aniq ravshanlik uchun grafik xizmat qiladi, unda poyezdlarning boshlang‘ich bekatdan jo‘nash, yo‘l davomida har bir bekatga kelish, jo‘nash, to‘xtash davomiyligi (yoki to‘xtovsiz o‘tish vaqt) va nihoyat oxirgi bekatga kelish vaqtini ifodalaydi.

Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi shartlari quyidagilar: har bir yo‘l qurilmalari (blok-uchastka, bekat yo‘llari, marshrut strelkasi, seksiyasi va boshqalar) faqat bir harakat birligi — poyezd, lokomotiv, derzina va h.k. bilan band bo‘lishi lozim. Shuning uchun poyezdlar harakati grafigini tuzishda uchastkadagi faqat bir emas, shu vaqtga to‘g‘ri kelgan uchastkadagi barcha transport vositalarining harakatini hisobga olish kerak bo‘ladi. Bunga poyezdlar harakatini grafik tarzda ifodalash bilan erishiladi. Shunday qilib, grafik — bu uchastkadagi poyezdlar uchun barcha texnologik talablar va xavfsizlikni hisobga oluvchi asosiy reja hisoblanadi. Bunday xususiyat grafikda belgilash va standart shakllarda ifodalashga rioya qilishni talab qiladi.

Grafik katak yoki ko‘ndalang va tik chiziqlardan iborat. Ko‘ndalang chiziqlar bo‘yicha masofa oralig‘i va tik chiziqlar bo‘yicha vaqt belgilanadi. Ko‘ndalang chiziqlar bo‘yicha ajratish punktlarining o‘q chiziqlari, ingichka chiziq bilan post va kichik bekatlar, yo‘g‘on chiziqlar bilan uchastka yoki saralash bekatlari chiziladi. Punktir chiziqlar bilan esa texnik ahamiyatga ega bo‘lmagan to‘xtash punktlari ko‘rsatiladi. Tik chiziqlar o‘n daqiqalik oraliq bilan; soat chiziqlari yo‘g‘on, yarim soatli

chiziqlar esa punktir bilan chiziladi. Vaqt mahalliy «0» dan 24 soatgacha ko'rsatiladi. Poyezd harakati shartli ravishda yotiq to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi (5.1- rasm). Poyezd harakati tezligining o'zgarishlari vaqtida tezlanish va tormozlash uchun sarflangan vaqt rasmida shtrix-punktir bilan belgilangan.

Poyezdning o'rtasi bekatning o'qini kesib o'tishi — yurish chiziqning va bekat o'qining kesish chizig'i raqam bilan belgilanadi (kelish, jo'nash yoki to'xtovsiz o'tish). U holda o'nlikdan ortiq daqqa soni ko'rsatiladi. Masalan, 5.1- rasmida 2201 poyezdining «b» bekatiga kelish vaqt 0 s 31 daq. 30 va 40 orasida 1 raqami yozilgan, 2203 poyezdning shu bekatdan o'tishi 0 s 25 dan ko'rsatilgan bo'lsa, 5 raqami yozilgan. Poyezdning kelishi, jo'nashi va to'xtovsiz o'tish vaqt poyezdning o'rtasi va bekatning o'qi bilan kesishgan grafikdagagi hosil bo'lgan o'tmas burchakka yoziladi. Poyezd alohida punktda to'xtovsiz o'tgan bo'lsa, faqat jo'nash vaqt ko'rsatiladi.



5.1- rasm. Grafikda poyezdlar harakatining ko'rinishi.

Poyezdlar harakati grafigining yagona shakli «O'zbekiston temir yo'llari» DATK rahbariyati tomonidan tasdiqlangan. Grafikning me'yoriy vaqt masshtabi 10 daqqa uchun 4 mm, harakatning katta miqdordagi uchastkalar uchun — 6,8,12 mm gacha bo'lishi mumkin. Masofalar uchun standart masshtab yo'q. Umuman 1 km masofa uchun 1,5 mm qabul qilingan.

Agar grafikda yuk tashuvchi poyezdlarning yurish yo'llarida egri chiziqlar bo'imasligi va to'g'ri chiziqlar bo'lishini xohlasangiz, oraliq punktlarni oraliq masshtabi bilan emas, balki ketma-ket vaqt orqali o'tkazish mumkin.

Grafikda poyezdlar yurish chizig'i ko'rsatilgan soat katagidan tashqari bir qator uchastka xarakterining texnik jihozlanganligiga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Grafikning soat chizig'i bo'yicha chap tomonida poyezdlar bilan texnik amallarni bajaruvchi texnik punktlar, ularning bu maqsadda turish me' yori oraliq yo'li yurish vaqt, alohida punktlar nomi, poyezdlar harakatidagi ishorat va aloqa vositalari, bekat va oraliq yo'lidagi yo'llar soni (tik chiziqlar soni bilan) ko'rsatiladi. Kataknинг o'ng tomonida oraliq masofasi va ketma-ketligi kilometrda ko'rsatiladi. Soat katagi ustida ikkita jadval joylashgan bo'ladi — chap tomonida yo'lovchi poyezdlar og'irligi va xizmatdagi lokomotivlar seriyasi, o'ng tomonida esa yuk tashuvchi poyezdlarning shu kabi ma'lumotlari berilgan bo'ladi. Oraliq masofasida saralash va uchastka bekatlarga birikkan uchastkalarda poyezdlar yurish chizig'i ustiga poyezdlar raqami yoziladi.

5.3. Poyezdlarni raqamlash

Barcha temir yo'llar uchun poyezdlarni yagona raqamlash qabul qilingan, bunda nafaqat poyezd va harakat turi, balki ularning yo'nalishi ham ko'rsatiladi. Har bir uchastkada bir yo'nalish toq, ikkinchi yo'nalish juft son bilan belgilanadi. Toq yo'nalishda barcha poyezdlar harakat turlaridan qat'iy nazar, toq son bilan raqamlanadi, teskari yo'nalishda esa juft sonli raqamlar bilan. Grafik katagida toq sonli poyezdlar raqamini yuqorida pastga joylashtiriladi. Bundan tashqari har bir turdag'i poyezdlarga raqamlar guruhi beriladi, uning orasida poyezd darajasiga ega bo'lgan qo'shimcha raqam bo'ladi. Vaqtiga vaqtiga bilan poyezdlarni raqamlash qayta ko'rib chiqiladi. Amalda quyidagi raqamlash qo'llaniladi:

yo'lovchi poyezdlar:

| | |
|-----------------------------------|------------|
| tezyurar | 1—130; |
| uzoq masofaga yuruvchi, yo'lovchi | 171—300; |
| yo'lovchi-mahalliy | 601—699; |
| pochta-bagaj | 901—948; |
| yuk-yo'lovchi | 951—968; |
| shahar atrofi | 6001—6999; |

tezlatilgan yuk poyezdlari:
refrigeratorli va boshqalar

1001–1598;

yuk tashuvchi poyezdlar:

| | |
|-------------|------------|
| o'tkinchi | 2001–2998; |
| uchastka | 3001–3398; |
| terma | 3401–3498; |
| chiqaruvchi | 3501–3598; |
| uzatuvchi | 3601–3798; |

lokomotivlar:

| | |
|--------------------------------|------------|
| dispatcher lokomotivlari | 3801–3898; |
| yakka lokomotivlar (zaxiraviy) | 4301–4398; |

xo'jalik poyezdlari:

| | |
|---------------------------|------------|
| avtodrezina va motovozlar | 5101–5198; |
| xo'jalik | 5201–5398; |
| qor tozalovchi | 7001–7098; |
| tiklovchi | 8001–8098. |

Poyezdlarni raqamlash har yili «O'zbekiston temir yo'llari» DATK tomonidan poyezdlar harakati jadvalida e'lon qilinadi.

5.4. Poyezdlar harakati grafigining turlari


Peregondalagi bosh yo'llarning soniga va ulardan foydalanishning belgilangan tartibiga ko'ra, grafiklar ikki turga bo'linadi: bir yo'lli va ikki yo'lli grafiklar.

Peregonda har biri orqali bir tomonlama poyezdlar harakati amalga oshiriluvchi ikki bosh yo'l bo'lganda, ularning har biridagi harakat tasviri ikki yo'lli grafikda (5.2- rasm) mujassamlashtiriladi.

Bu grafikda har bir yo'nalish bo'yicha poyezdlar harakati bir-biriga bog'liq bo'lmanan holda tasvirlanadi va bu qaramaqarshi yo'nalishdagi poyezdlarning o'zaro kesishuvchi bekatlarda ham, peregondalarda ham amalga oshirilishi mumkin.


Agar peregonda bir bosh yo'l bo'lsa va u har ikkala yo'nalish bo'yicha poyezdlar harakati uchun foydalanilsa, u holda bir yo'lli grafik (5.3- rasm) tuziladi. Bu grafikda bir harakat yo'nalishdagi poyezdlarni o'tkazish teskari yo'nalishdagi poyezdlar harakati

bilan muvofiqlashtiriladi, qarama-qarshi yo'nalishlardagi poyezdlarning o'zaro kesishuvi faqat yo'l tarmog'iga ega bo'lgan ajratish punktlarida amalgalashiriladi.




5.2- rasm. Poyezdlar harakatining ikki yo'lli grafigi.

Bir bosh yo'lli uchastkalarda ham, ikki bosh yo'lli uchastkalarda ham harakat yo'nalishlari bo'yicha poyezdlar soni bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Agar harakat yo'nalishlari bo'yicha poyezdlar soni bir xil bo'lsa, grafik juftlangan, turlicha bo'lsa, grafik juftlanmagan deb ataladi.




5.3- rasm. Bir yo'lli juftlangan poyezdlar harakati grafigi.

Bundan tashqari, bir bosh yo'lli uchastkalarda ketma-ket harakatlanayotgan poyezdlarning o'zaro joylashuviga qarab, agar ular orasida bekatlararo peregon bo'lsa, pachkali, poyezdlararo vaqt intervali bo'lsa, paketli grafik hisoblanadi. Paketli grafiklar avtoblokirovka yoki postli yarim avtoblokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda qo'llaniladi.




5.4- rasm. Bir bosh yo'lli paketli grafik.

Agar paketlarda poyezdlarning faqat biror qismi joylashtirilgan bo'lsa, grafik qisman paketli hisoblanadi.



5.5- rasm. Bir bosh yo'lli qisman paketli grafik.

Barcha turdag'i grafiklar ikki asosiy toifaga mansubdir. Agar barcha peregonlarda hamma poyezdlar bir xil tezlikda harakatlansa, grafik parallel, turli tezlikda harakatlansa, neparallel hisoblanadi. MDH davlatlari temir yo'llarida asosan neparallel grafik qo'llaniladi.



5.6- rasm. Bir bosh yo'lli juft neparallel grafik.

5.5. Grafiklarning iqtisodiy tavsifi

Harakat grafigini to‘g‘ri tanlash uchastkaning o‘tkazish qobiliyatini hamda poyezdlar harakati tezligini oshiradi, yukni yetkazish tezlashadi, ekspluatatsion xarajatlar pasayadi. Harakat grafigini noto‘g‘ri tanlash sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashuviga, tashish tannarxining oshishiga olib keladi. Bu esa lokomotiv aylanmasining o‘sishiga, uchastka tezligining kamayishiga, oraliq bekatlar yo‘llarini rivojlantirishga qo‘srimcha xarajatlar keltirib chiqaradi.

Grafikning iqtisodiy samarali turini tanlash uchun har bir tur bo‘yicha sifat va hajm ko‘rsatkichlari aniqlanadi, so‘ngra tejam va xarajatlar har bir tur bo‘yicha solishtiriladi. Identik peregonli parallel grafiklarda maksimal uchastka tezligiga, o‘tkazish qobiliyatiga erishiladi va lokomotivlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ushbu grafiklar nazariy jihatdan yaxshiroq deb yuritiladi. Biroq identikli peregonli uchastkalar mavjud emas. Temir yo‘l liniyalarida poyezdlar har xil tezlikda harakatlanadi. Bunday sharoitlarda yanada samarali grafik bo‘lib, identikligi eng kam darajada va parallelga yaqinroq bo‘lganlari foydali hisoblanadi.

5.6. Poyezdlar harakati grafigining elementlari

Poyezdlar harakati grafigi elementlariga quyidagilar kiradi:

- poyezdlarning peregonlar bo‘ylab toza yurish vaqtini hamda ularning to‘xtashlarida sekinlashish va tezlanish vaqtlarini hisobga olingandagi yurish vaqtini;
- poyezdlarning bekatlarda turish vaqtini;
- bekat intervallari, ya’ni poyezdlarning bekatlarga kelishi, to‘xtamasdan o‘tkazilishi va jo‘nashi bir vaqtida bajarilishi mumkin bo‘limgan holda bu amallar bajarilishi orasidagi vaqt intervallari;
- paketdagagi poyezdlar orasidagi interval;
- lokomotivlarning asosiy va aylanma depolar bekatlarida turish vaqtini me’yorlari.

Grafik elementlari poyezdlar harakati xavfsizligiga, poyezd o‘tkazish qibiliyatiga, uchastka tezligiga, lokomotiv va vagonlarning aylanmasiga, ya’ni temir yo‘llardan foydalanishning asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi.

Grafik elementlari poyezdlar harakati xavfsizligini va vaqt me'yorlarining kichikligini ta'minlashi hamda ilg'or transport xodimlarining ish tajribasi va yutuqlarini hisobga olishi lozim.

Poyezdlarning yurish tezliklari har bir peregon uchun juft va toq yo'nalishlarda turli massa va tezlik me'yorlariga ega bo'lgan yo'lovchi, yuk poyezdlari va bir o'zi harakatlanayotgan lokomotivlar uchun alohida hisoblanadi.

5.6.1. Peregonlarda yurish vaqt

Poyezdlarning peregonlarda yurish vaqtлари ajratish punktlarining yoki qabul qilish-jo'natish parklarining o'qlari (agar ularning o'qlari o'tish signallarining o'qlari bilan mos kelmagan holda) oraliq'ida hisoblanadi.

Peregonda yurish vaqt poyezdlarning yurish tezligi orqali aniqlanadi. O'z navbatida bu tezlik lokomotivning quvvatiga, tarkib og'irligiga va uning harakatiga bo'lgan qarshilikka, yo'l plani va profiliga hamda tezlikning cheklanishlariga bog'liq. Yurish tezligi konstruksiya va yuqori tezlikdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Lokomotiv konstruksiyasi ta'minlaydigan eng katta tezlik konstruksiya tezligi deb ataladi.

Peregonlarda yurish vaqt tortish hisoblari yordamida aniqlanadi. Yurish vaqtлари poyezdlarning ajratish punktlaridan to'xtab va to'xtamay o'tgan holatlari uchun alohida hisoblanadi. Bu holatlar bo'yicha yurish vaqtларining farqi poyezdning tezlashish va sekinlashish vaqtini tashkil etadi.

5.6.2. Bekat intervallarining turlari va ularni hisoblash usuli


Bekat intervallari deb, ajratish punktlarida poyezdlarni qabul qilish, jo'natish yoki to'xtamasdan o'tkazish amallarini bajarish uchun zarur bo'lgan eng kam vaqt miqdoriga aytildi. Bu intervallar barcha ajratish punktlarida unga birikuvchi har bir peregon tomonga yuk poyezdlari uchun aloqadordir.

Bekat intervallarining aniq belgilanishi va unga qat'iy amal qilish poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlaydi, ularning harakat tezligini, peregon va bekatlarning poyezd o'tkazish qobiliyatini oshiradi.

Bekat intervalining miqdori bekatda bajariladigan amallar uchun zarur vaqt miqdori bilan aniqlanadi. Bu vaqt mobaynida peregon navbatdagi poyezd bilan band qilinishi mumkin emas. Bekat intervallarining miqdori quyidagilarga bog'liq:

- birikuvchi peregonlarda poyezdlar harakatini signallashtirish va aloqa vositalariga, strelkali o'tkazgich va signallarni boshqarish usuliga;
- ajratish punktlari qurilmalariga — strelkali uchastka uzunligiga, poyezdlarni qabul qilish-jo'natish marshrutidagi strelkali o'tkazgichlar soniga, signallarning joylashtirilishiga va bekat navbatchisi binosining qabul qilish-jo'natish yo'llarining o'qiga nisbatan joylashishiga;
- ajratish punktiga birikuvchi yo'l profiliga, lokomotiv quvvatiga va poyezd tarkibining kattaligiga, alohida hollarda poyezdning texnik amallarni bajarish vaqtining davomiyligiga;
- mashinistga peregonni band qilishi uchun ruxsatnomani topshirish tartibiga.

Qarama-qarshi yo'nalishdagi poyezdlarning turli vaqtida kelish intervali deb, bir yo'nalishdagi poyezdning bekatga kelgan vaqtidan to qarama-qarshi yo'nalishdagi poyezdning shu bekatga kelishi yoki to'xtamasdan o'tkazilishigacha bo'lgan eng kam vaqt miqdoriga aytildi. Bu interval poyezdlardan birining bekatda to'xtab o'tishi hamda qarama-qarshi yo'nalishlardagi poyezdlarning bekatga bir vaqtida qabul qilinishi taqiqlangan holatda har ikkala poyezdlarning to'xtab o'tish vaqtidir.



5.7- rasm. Turli vaqtida kelish bekat intervallari.

Turli vaqtida kelish intervalining eng kam miqdorini quyidagi ifoda yordamida aniqlash mumkin:

$$\tau_{t.v.k} = t_{mar} + 0,06 \frac{L_{pr}}{v_{vx}} \text{ daqiga.}$$

$$\text{Yoki } \tau_{t.v.k} = t_{mar} + 0,06 \frac{l_p + l_t + l_{vx}}{v_{vx}} + t_v \text{ daqiga.}$$

Bunda: L_{pr} — kirish masofasi, m;

l_p — poyezd uzunligi, m;

l_t — tormoz yo'lining uzunligi, m;


l_{vx} — kirish strelkali bo'g'izining uzunligi, m;

t_v — kirish yoki ogohlantirish signali ko'rsatkichining mashinist tomonidan qabul qilinish vaqtini ($t_v = 0,05 - 0,08$ daqiga);

t_{mar} — marshrut tayyorlash vaqtini, daqiga;

V_{vx} — poyezdnинг bekatga hisobli masofada o'rtacha kirish tezligi, km/s.


Kesishish intervali (r_{sk}) deb, poyezdnинг bir yo'lli peregondan bekatga kelishi yoki to'xtamasdan o'tkazilishidan shu peregonga qarama-qarshi yo'nalishdagi poyezdnинг jo'natilishiga qadar bo'lgan eng kam vaqtga aytildi (5.8- rasm).



5.8- rasm. Turli vaqtda kelish va kesishish bekat intervallari.


Ketma-ket yurish intervali $r_{p.s}$ — bu poyezdnинг qo'shni bo'lgan ajratish punktiga kelishidan ushbu bekatdan shu yo'nalishdagi keyingi poyezdni jo'natishgacha bo'lgan vaqtdir. $r_{p.s}$ ning miqdori poyezdlarni ajratish punktlaridan o'tkazish tartibga bog'liq (5.9- rasm).

Bu interval avtoblokirovka bilan jihozlanmagan uchastkalarda qo'llaniladi.



5.9- rasm. Poyezdlarni ketma-ket yurish intervalida ajratish punktlaridan o'tkazish tartibi.

Poyezdlararo interval (paketdagi poyezdlar oralig‘idagi interval) deb, avtomat blokirovka (dispatcherlik markazlashtirish) va blok-postli yarim avtomat blokirovka bilan jihozlangan uchastkalarda ma’lum hisobli sharoitlarda ketma-ket harakatlanayotgan poyezdlar orasidagi eng kam vaqtga aytildi (5.10- rasm).



5.10- rasm. Poyezdlarni paketda o’tkazish chizmalari: a—ikki yo’lli uchastkalarda, b—bir yo’lli uchastkalarda.

Paketdagi poyezdlar orasidagi vaqt intervali quyidagicha topiladi:

$$I = 0,06 \frac{L_r}{v_x} = 0,06 \frac{l'_{bl} + l''_{bl} + l'''_{bl} + l_p}{v_x} \text{ daqiga.}$$

Bunda: l'_{bl} , l''_{bl} , l'''_{bl} — birinchi, ikkinchi va uchinchi blok-uchastkalarning uzunligi, m;

l_p — poyezd uzunligi, m;

v_x — peregonning ko‘rilayotgan qismida o‘rtacha yurish tezligi, km/s;

0,06 — o’tkazish koeffitsiyenti;

L_r — hisobli masofa, m.

Yo‘nalish uchun belgilangan poyezdlararo interval miqdoriga muttasil amal qilinishi uchun peregonlarda svetoforlar to‘g‘ri joylashtirilishi lozim. Bu talab tortish hisoblari yordamida amalgalash oshiriladi.

Buning uchun yo‘nalish profilida poyezdning yo‘l elementlari bo‘ylab yurish vaqtini ko‘rsatuvchi egri chiziq quriladi. Berilgan poyezdlararo intervalga teng bo‘lgan vaqt kesmalari yo‘l profilida svetoforlarni o‘rnatish joylarini aniq belgilash imkonini beradi.

5.6.3. Bekatlarda poyezd va lokomotivlarning turish vaqtлари

Poyezdlarning ajratish punktlarda turish vaqt 4 turga bo‘linadi:

- 1) harakat xavfsizligini ta‘minlash talablari va poyezdlarni grafikka joylashtirish sharoitlariga muvofiq;
- 2) oraliq bekatlarda vagonlarni uzib qolish; biriktirish va manevr ishlarini bajarish bilan bog‘liq;
- 3) poyezd tarkiblari va lokomotivlar bilan texnikaviy amallarni (tarkibning texnikaviy ko‘ruvi, tormozlarni sinash, lokomotiv brigadalarini almashlash, lokomotivni uzish, biriktirish va ekipirovka qilish va b.) bajarish bilan bog‘liq;
- 4) yo‘lovchilarini tashish bilan bog‘liq amallarni bajarish.

Yuk poyezdlarining oraliq bekatlari va razyezdлarda o‘zaro kesishishi yoki ularni yo‘lovchi poyezdlari tomonidan quvib o‘tishi uchun turish vaqtining me’yorlari bekat intervallarining miqdori va uchastka peregonlarining o‘xhashlik darajasiga bog‘liq. Yo‘lovchi poyezdlar turish vaqt me’yorlariga yo‘lovchilarini poyezdga chiqarish va tushirish hamda bagaj va pochta yuklarini ortish va tushirish bilan bog‘liq amallarning davomiyligi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Lokomotivlarni almashlash, ularni ekipirovka qilish, avto-tormozlarni sinash, tarkibni texnikaviy va tijorat ko‘ruvidan o‘tkazish davomiyligi bekatning texnologik ish jarayoni va texnikaviy boshqaruv akti (TBA)ga muvofiq ilg‘or ish tajribasini qo‘llagan holda belgilanadi.

5.7. Poyezdlar harakati grafigini tuzish tartibi

Poyezdlar harakati grafigini tuzishdan avval tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

- yangi grafik uchun birlamchi ma'lumotlar to'planadi;
- o'tgan davrda qo'llanilgan grafikning ekspluatatsion ko'rsatkichlari tahlil etiladi.

Poyezdlar harakati grafigini tuzish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar zarur:

- barcha turdag'i poyezdlar soni va ularning massa me'yorlari;
- poyezdlarning peregonlarda yurish vaqt, bekat intervallari va paketdagi poyezdlar orasidagi vaqt intervali;
- poyezdlar tuzish rejasi;
- lokomotiv, lokomotiv brigadalarini almashlash punktlarida o'tkinchi poyezdlarning turish vaqt me'yorlari va poyezdlarning texnikaviy zaruratlarga ko'ra oraliq bekatlarda turish vaqlari;
- lokomotiv brigadalarining tinimsiz ishlash vaqt me'yorlari;
- qayta ishlanuvchi poyezdlarning uchastka va saralash bekatlariga kelish vaqt intervallarining eng kam qiymati;
- alohida punktlar ostonasida yo'lning bo'ylama profili;
- aylanma punktlarda va asosiy depoda lokomotivlar bilan bajariladigan amallar me'yorlari;
- terma poyezdlarning oraliq bekatlarda turish vaqt me'yorlari va mahalliy yuklarni tarqatishni tashkil etishning qabul qilingan tizimi;
- yo'l va kontakt tarmoqlarini ta'mirlash uchun poyezdlar harakati grafigida «tanaffus» («okno») belgilashga bo'lgan talablar.

Jo'natuvchi marshrutlar va terma poyezdlar harakati jadvali poyezdlar harakati grafigi tuzilgunga qadar uchastkada yuk ishlarining bir maromda bajarilishini ta'minlashni, bekat va shoxobcha yo'llarning texnologik jarayonlarini muvofiqlashtirishni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Grafik tuzish jarayonining asosiy vazifasi — ekspluatatsion ko'rsatkichlar bo'lmish harakat tezliklari, o'tkinchi poyezdlarning texnikaviy bekatlarda turish vaqt, lokomotivlarning o'rtacha kundalik bosib o'tgan masofasi, mahalliy vagon aylanmasi kabi ko'rsatkichlarning ma'lum miqdoriga erishilishini ta'minlashdir.

Grafik quyidagi tartibda tuziladi: avval ikki va undan ortiq temir yo'llar bo'ylab qatnovchi uzoq yo'nalishdagi yo'lovchi

poyezdlar aks ettiriladi. So'ngra grafikka mahalliy ishni bajaruvchi terma, chiqaruvchi va shu kabi poyezdlar joylashtiriladi. Boshqa turdag'i yuk poyezdlarini grafikka joylashtirish doimiy qatnovchi jo'natuvchi va zinasimon marshrutlar yurish chiziqlarini tortishdan boshlanadi. Qolgan poyezdlarning yurish chiziqlarini tortish jarayonida grafikka avvalroq joylashtirilgan poyezdlarning yurish chiziqlari qisman o'zgartirilishi mumkin.

Grafikka joylashtirilgan har bir poyezdga raqam beriladi va bu raqam poyezd qatnovining oxirgi manziliga saqlab qolinadi.

Grafik tuzishning muhim vazifalaridan biri yo'lovchi va yuk tashish ishlarining uyg'unlashishini ta'minlashdir.

Grafikni ishlab chiqishda quyidagilar aks ettirilishi zarur:

- temir yo'llarning texnikaviy vositalaridan unumli foydalanish;
- poyezdlarning eng yuqori harakat tezligiga erishish;
- poyezdlarning bosh bekatlarga kelishi va undan jo'nashini yo'lovchilarga qulay bo'lgan vaqtga belgilash;
- uzel bekatlarda jadvallarni to'g'ri muvofiqlashtirish.

Bu va boshqa talablarning bajarilishi yo'lovchilar uchun qulaylik tug'diradi.

5.8. Poyezdlar harakati grafigining ko'rsatkichlari

Poyezdlar harakati grafigi tuzilgandan so'ng uning son va sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Son ko'rsatkichlari grafikda ko'zda utilgan yuk va poyezd ishlarining hajmini tavsiflaydi.

Sifat ko'rsatkichlari poyezdlar harakati grafigini sifat tomonidan tavsiflaydi. Ularga texnikaviy, uchastka va marshrut tezliklari; tezlik koeffitsiyenti; lokomotivlarning o'rtacha kundalik bosib o'tgan masofasi, yuk poyezdlarining tarkibi va o'rtacha massasi; o'tkinchi yuk poyezdlarining saralash va uchastka bekatlarida o'rtacha turish vaqtini kiradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Poyezdlar harakati grafigining ahamiyati qanday?*
2. *Poyezdlar harakati grafigi nimani ta'minlashi lozim?*
3. *Poyezdlar harakati grafigining turlari.*
4. *Poyezdlar harakati grafigining elementlari.*
5. *Poyezdlar harakati grafigi tuzilgandan so'ng qanday ko'rsatkichlar aniqlanadi?*

VI BOB. TEMIR YO'L TARMOQLARINING O'TKAZISH QOBILIYATI

6.1. Temir yo'l tarmoqlarining poyezd va yuk o'tkazish qobiliyatları haqida tushuncha


Temir yo'l yo'nalishi (uchastkasi)ning poyezd o'tkazish qobiliyati deb, ma'lum davr (kun, soat) mobaynida doimiy qurilmalar, harakatdagи tarkibning turi va quvvati, poyezdlar harakatini tashkil etish usullari (grafik turi)ga bog'liq holda berilgan yo'nalish (uchastka)dan o'tkazilishi mumkin bo'lgan poyezdlar yoki juft poyezdlarning eng ko'p miqdoriga aytildi.

Poyezd o'tkazish qobiliyati bir yo'lli yo'nalishlar uchun juftlangan grafikda poyezdlar juft soni, ikki yo'lli yo'nalishlarda va bir yo'lli yo'nalishlarda nojuft grafiklarda alohida har bir harakat yo'nalishi uchun poyezdlar soni orqali ifodalanadi.

Poyezd o'tkazish qobiliyatini belgilovchi har bir yo'nalish (uchastka)ning doimiy texnikaviy qurilmalariga peregonlar, bekatlar, lokomotiv xo'jaligi va elektr ta'minoti qurilmalari kiradi.

Temir yo'lning o'tkazish qobiliyati yuqorida keltirilgan doimiy texnik qurilmalar yig'indisining har bir asosiy elementi bo'yicha aniqlanishi va oshirilishi zarur. Ushbu elementlarning biridagi eng kam bo'lgan o'tkazish qobiliyati liniyaning natijaviy o'tkazish qobiliyati deyiladi. 6.1- rasmida uchastkaning o'tkazish qobiliyati diagrammasi keltirilgan. Misol: agar uchastkadagi peregonning o'tkazish qobiliyati sutkasiga 70 juft poyezdlar bo'lsa, bekatning – 65, elektr ta'minoti qurilmalarining – 80, lokomotiv xo'jaligining – 68, unda uchastkaning natijaviy o'tkazish qobiliyati sutkasiga 65 juft poyezdlarga teng bo'ladi.

Temir yo'l liniyasining alohida elementlari bo'yicha o'tkazish qobiliyatini aniqlash, bularidan qaysi biri chegaralovchi bo'lishligini va liniyaning umumiy natijaviy o'tkazish qobiliyatini oshirish uchun qanday tadbirlarni qanday ketma-ketlikda o'tkazishlikni belgilash imkonini beradi.



6.1- rasm. O'tkazish qobiliyatining diagrammasi.

Poyezd o'tkazish qobiliyatining joriy va zaruriy turlari mavjud. Uchastka yoki yo'nalishga ayni damda ega bo'lgan poyezd o'tkazish qobiliyati joriy hisoblanadi. Belgilangan miqdordagi poyezdlarni tegishli zaxirani hisobga olgan holda o'tkazish uchun kerak bo'ladigan poyezd o'tkazish qobiliyati zaruriy hisoblanadi. Poyezd o'tkazish qobiliyatining zaxirasi davlat miqyosida aniqlanib, u o'ta zarur holatlarda poyezdlarni o'tkazish uchun ishlatalidi.

6.2. Parallel grafikning o'tkazish qobiliyati

Peregonning poyezd o'tkazish qobiliyati grafikning turi va uning elementlarining (peregonda yurish vaqt, bekat intervallari va paketdag'i poyezdlar intervali) miqdoriga bog'liq. Parallel grafikda peregonlar bo'yicha maksimal poyezd o'tkazish qobiliyati poyezdlarda yoki poyezdlar juftida aniqlanadi. Kun mobaynida davriy takrorlanuvchi, shu turdag'i grafikka xos bo'lgan poyezdlar guruhi tomonidan peregonning band bo'lish vaqtiga **grafik davri** deb ataladi.

Berilgan turdag'i grafikda peregonning poyezd o'tkazish qibiliyatini hisoblash uchun daqiqalarda ifodalangan kun davri (ya'ni, 1440), grafik davriga bo'linadi va natija davrdagi poyezdlar soniga ko'paytiriladi. Bu hisob quyidagicha ifodalananadi:

$$N = \frac{\alpha_n (1440 - t_{texn}) K}{T_d} \text{ poyezd}$$

Bunda: α_n — uchastka texnikaviy qurilmalari ishining ishonch-lilik koeffitsiyenti;

t_{texn} — texnologik «tanaffus»ning davomiyligi, daq.;


K — grafik davrida poyezdlar yoki poyezdlar juftining soni;

T_d — grafik davri, daq.

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, poyezd o‘tkazish qobiliyati grafik davriga teskari proporsionaldir, ya’ni grafik davri qanchalik kam bo‘lsa, poyezd o‘tkazish qibiliyati shunchalik ko‘payadi.

Bir yo‘lli parallel juftlangan noplaket grafikning davri quyida-gildan iborat (6.2- rasm).

$$T_d = t' + t'' + \tau_a + \tau_b + t_{t,s}.$$



6.2- rasm. Bir yo‘lli parallel juftlangan noplaket grafikning davri.

Bunda: t' , t'' — juft va toq poyezdlarning peregonda yurish vaqtisi (poyezdning tezlashish va sekinlashish vaqtleri hisobga olinmaydi), daq.;

τ_a , τ_b — a va b alohida punktlarida bekat intervallari, daq.;

$t_{t,s}$ — poyezdlar juftining tezlashish va sekinlashish uchun ketgan umumiy vaqt, daq.

Grafik davrining qiymatiga asosan poyezdning peregonlar bo‘ylab yurish vaqtini ta’sir etadi. Eng katta grafik davri qiymatiga ega bo‘lgan peregon chekllovchi hisoblanadi va u umuman uchastkaning poyezd o‘tkazish qibiliyatini belgilaydi. Grafik davri shu peregonni chegaralovchi alohida punktlardan poyezdlarni o‘tkazish variantiga qarab turli qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin.


6.3. Ikki bosh yo‘lli peregonlarning o‘tkazish qibiliyati

Ikki bosh yo‘lli uchastka peregonlarining poyezd o‘tkazish qibiliyati har bir harakat yo‘nalishi uchun alohida belgilanadi. Avtoblokirovka (dispatcherlik markazlashuv) bilan ji-

hozlanmagan ikki yo'lli uchastkalarda pachkali grafik qo'llaniladi.

Pachkali grafikda grafik davri poyezdning peregon bo'ylab yurish vaqtini t (tegishli vaziyatlarda poyezdning tezlanishi va sekinlashishi uchun vaqtini hisobga olgan holda) va ketma-ket yurish intervalini τ_{ps} ning yig'indisiga tengdir (6.3- rasm). Shundan kelib chiqib, pachkali grafikda poyezd o'tkazish qobiliyati quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$N = \frac{\alpha_n (1440 - t_{texn})}{t + \tau_{ps}} \text{ poyezd.}$$




6.3- rasm. Ikki yo'lli pachkali grafik davri.

Dispatcherlik markazlashuv, avtomat blokirovka va yo'l postli yarim avtomat blokirovka bilan jihozlangan ikki yo'lli uchastkalarda poyezdlar harakati paketli grafik asosida tashkil etilishi mumkin (6.4- rasm). Har bir harakat yo'nalishi uchun poyezd o'tkazish qobiliyati quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$N = \frac{\alpha_n (1440 - t_{texn})}{I} \text{ poyezd.}$$

Bunda: I—paketdagi poyezdlararo interval, daq.




6.4- rasm. Ikki yo'lli paketli grafik davri.

6.4. Noparallel grafikning o'tkazish qobiliyati

Noparallel grafik yuk va yo'lovchi poyezdlarning turli tezlikda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi. Bir yo'lovchi poyezd tomonidan harakat grafigidan olinuvchi yuk poyezdlarining soni olish koeffitsiyenti ε_{pas} deb ataladi. Yo'lovchi poyezdlarining soni N_{pas} va olish koeffitsiyenti ε_{pas} qiymatini bilgan holda yuk poyezdlari uchun poyezd o'tkazish qobiliyati quyidagi ifoda yordamida topilishi mumkin:

$$N_n = N - \varepsilon_{pas} N_{pas}.$$



6.5- rasm. Noparallel grafikning davri.

6.5. Temir yo'l tarmog'ining yuk o'tkazish qobiliyati

Temir yo'l tarmog'ining yuk o'tkazish qobiliyati deb, undan vaqt birligi (yil) mobaynida poyezdlar harakatini tashkil etishning qabul qilingan tizimida va yo'nalishning ma'lum texnikaviy jihozlanishida eng ko'p tashilishi mumkin bo'lgan yuk hajmiga (tonnada) aytildi. U yo'nalishning poyezd o'tkazish qobiliyatiga va poyezdlarning massasi me'yoriga bog'liq.

Temir yo'l tarmog'ining yuklangan yoki teskari (yoki har ikkala) yo'nalishlarda joriy yuk o'tkazish qobiliyati quyidagi ifoda yordamida topiladi:

$$G_j = \frac{365 N_m^{gr} Q_{br} \varphi}{10^6 K_n} \text{ mln. t netto / yil.}$$

bunda: N_m^{gr} — berilgan yo'nalish (yoki ikkala yo'nalish)da yuk poyezdlari uchun eng ko'p poyezd o'tkazish qobiliyati;

Q_{br} — yuk poyezdining massa bruttosi, t;

K_n — tashish ishlarining oylik notekislik koeffitsiyenti;

φ — yuk poyezdi massa nettosining massa bruttosiga nisbati.

6.6. Temir yo'l yo'nalishlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish

Temir yo'l liniyalarining o'tkazish qobiliyatini oshirish zaruriyati tashish hajmining ortishi bilan bog'liq. Temir yo'llarning quvvatini oshirish zaruriyati joriy o'tkazish qobiliyati bilan zaruriy o'tkazish qobiliyatini taqqoslash asosida bajariladi. Tashish hajmi ortishi bilan liniyalarni dam-badam qayta qurmaslik uchun temir yo'llari ma'lum zaxiraga ega bo'lishi kerak. Joriy o'tkazish qobiliyatini zaruriy o'tkazish qobiliyati bilan keltirilgan harakat soni orqali solishtirish kerak. Buning uchun yo'lovchi tezlangan va terma poyezdlar sonini parallel grafikdagi yuk poyezdlariga keltirishi lozim.

Temir yo'l yo'nalishlari poyezd va yuk o'tkazish qibiliyatlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Tashkiliy-texnikaviy tadbirlar. Bu tadbirlar texnikaviy qurilmalardan ulardan foydalanish sharoitlarini o'zgartirish yoki poyezdlar harakatiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini ko'paytirish orqali yanada intensiv foydalanishni ko'zda tutadi; ushbu tadbirlarni tatbiq etish unchalik ko'p bo'limgan miqdorda kapital mablag'larni talab etish mumkin.

2. Rekonstruktiv tadbirlar. Bu tadbirlar kapital mablag'lar hisobiga amalga oshirilib, yo'nalish texnikaviy jihozlanishining yangilanish va rekonstruksiyanishini ko'zda tutadi.

Tashkiliy-texnikaviy tadbirlar, asosan, qisqa vaqt foydalanishga mo'ljallangan tezkor chora hisoblanib, parallel yo'nalishlarda yoki ikki (ko'p) yo'lli yo'nalishlarning ba'zi yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borilayotgan holatlarda vaqtinchalik poyezdlar sonining ko'payish davrida qo'llaniladi.

Rekonstruktiv tadbirlar yordamida nafaqat hozirgi davrda poyezd o'tkazish qobiliyati ta'minlanadi, balki yanada ko'payayotgan tashish ishlarini bajarish uchun yetarli zaxira hosil qilinadi.

6.7. Tashkiliy-texnikaviy tadbirlar

Tashkiliy-texnikaviy tadbirlarga poyezdlar harakatini tashkil etishda zamонавиъ usullarni tatbiq etish, temir yo'llarning texnik vositalarini samarali ishlatish hisobiga o'tkazish qibiliyatini

oshirish tadbirlari kiradi. Tashkiliy-texnikaviy tadbirlar temir yo'lning doimiy qurilmalaridagi zaxirani ishlatish, ba'zi holatlarda «tor» joylarni bartaraf etish uchun unga katta bo'lmanan kapital xarajatlar talab qiluvchi ishlarni bajarish hisobiga olib boriladi.

O'tkazish qobiliyatini oshiradigan asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- cheklovchi peregonlarga tutashgan ajratish punktlarida bekat intervallarini qisqartirish uchun bekat signallarining o'rmini o'zgartirish, to'qnash marshrutlarni yo'qotish, jezl apparatlarini (agar bor bo'lsa) strelka postlariga ko'chirish, poyezdlarning bekatga kirish yoki chiqish tezliklarini oshirish;

- peregonlarning o'tkazish qobiliyatidan yanada yaxshi foydalanish maqsadida bor bo'lgan holat uchun birmuncha samarali grafiklar turlari (paket, qisman paket, noplaket va boshqalar)ni qo'llash;

- poyezdlarning yurish vaqtлari bo'yicha cheklovchi va boshqa og'ir peregonlardan poyezdlarni tezlatib o'tkazish;

- kelajakda lokomotivlardan foydalanishni yaxshilash hamda itarish va ikkilamchi tortishni qo'llash hisobiga poyezdlar massasini oshirish;

- butun uchastka yoki uning biror-bir qismi bo'yicha ikkilangan yoki qo'shilgan poyezdlarni o'tkazish;

- noto'g'ri yo'ldan foydalanish;

- yo'lovchi va terma poyezdlarning olish koefitsiyentlari ta'sirini kamaytirish;

- yilning ba'zi davrlarida harakatning notekisligini kamaytirish;

- vagonlarning ko'tarish kuchlaridan foydalanishni yaxshilash.

6.8. Rekonstruktiv tadbirlar

O'tkazish qobiliyatining rekonstruktiv tadbirlari temir yo'lning texnik jihozlanishini rivojlanirishda kapital xarajatlar bilan bog'liq. Ularga quyidagilar kiradi:

- liniyalarning yo'l va ustki tuzilishi rivojlanishini oshirish
- razyezdlar, quvib o'tish punktlarini, ikki yo'lli ulamalarni qurish, peregonlarda ikkinchi va uchinchchi bosh yo'llarni yotqizish, bekat va uzellarni taraqqiy ettirish (yo'llarni uzaytirish, qo'shim-

cha yo'llar yotqizish va boshqalar), og'ir tipdag'i yangi reoslarni yotqizish, ko'priklarni qayta qurish, profilni yumshatish va boshqalar;

— harakat tarkibi quvvatini oshirish — quvvatli lokomotivlarni kiritish va borlarini yangilash, vagonlarning yuk ko'tarishini oshirish, harakat tarkiblarni rolikli podshipniklar bilan jihozlash;

— signal, markazlashtirish, blokirovka qurilmalarini va aloqani qayta qurish — strelka va signallarni markazlashtirish, nozirlik markazlarini, avtoblokirovkani qurish, saralash tepaligini mexanizatsiyalash, ularni avtomatlashtirish va boshqalar;

— yangi liniyalarni qurish.

Bunday guruhlash bir qadar shartli, negaki, ba'zi tadbirdilar qo'shimcha ish bajarishni talab etadi. Rekonstruktiv tadbirdarda temir yo'l liniyalari elementlarida biror-bir uzilish bo'lmasligi uchun o'tkazish qobiliyatini birdaniga oshirish talab etiladi.

O'tkazish qobiliyatini oshirishning rekonstruktiv tadbirdari tashkiliy-texnikaviy tadbirdarga nisbatan ko'p vaqt va yirik kapital mablag'lar talab etadi. Bir qator holatlarda tashkiliy-texnikaviy va rekonstruktiv tadbirdar bir vaqtda qo'llaniladi.

Temir yo'l o'tkazish qobiliyatini oshirish tadbirdari quyidagi-larni o'stirishga imkon beradi:

- poyezdlar harakat miqdorini;
- poyezdlar og'irligini;
- bir vaqtning o'zida harakat miqdorini va poyezdlar og'irligini.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Temir yo'l uchastkasining o'tkazish qobiliyati deb nimaga aytildi?
2. Uchastkaning natijaviy o'tkazish qobiliyatini aniqlash zaruriyatni nimada?
3. Joriy o'tkazish qobiliyati deb nimaga aytildi?
4. Zaruriy o'tkazish qibiliyati deb nimaga aytildi?
5. Parallel grafikning o'tkazish qobiliyati qanday aniqlanadi?
6. Pachkali grafikda poyezd o'tkazish qobiliyati qanday aniqlanadi?
7. Paketli grafikda poyezd o'tkazish qibiliyati qanday aniqlanadi?
8. Noparallel grafikning o'tkazish qibiliyati qanday aniqlanadi?
9. Temir yo'l liniyalarining yuk o'tkazish qobiliyati qanday aniqlanadi?
10. Temir yo'lning o'tkazish qobiliyatini oshirish tadbirdari qanday?

VII BOB. TEMIR YO'L UZELLARINING ISH TEXNOLOGIYASI

7.1. Uzel chizma va qurilmalarining umumiy tavsifi

Transport uzeli deb, o'zaro yuk oqimi almashinuviga va bir necha transport turlariga mansub bo'lgan qurilmalar majmuasiga aytildi. Temir yo'l uzeli — transport uzelining asosiy elementlaridan biri — o'zaro bog'liq bir necha ixtisoslashgan bekatlar, ajratish punktlari, ulovchi liniyalardan iborat bo'lib, unga uchtadan kam bo'limgan miqdorda temir yo'l yo'nalishlari birikadi. Uzellarda lokomotivlarni ta'minlash qurilmalari, lokomotiv va vagon depolari, energiya ta'minoti xo'jaligi va boshqalar mujassam etiladi.

Bekatlarda bajariluvchi amallardan tashqari uzellar tranzit yuk va yo'lovchi poyezdlar oqimlarini to'g'ridan-to'g'ri o'tkazadi yoki qayta ishlaydi, shu yerda yuklarni boshqa turdag'i transportga uzatish yoki qayta ortish ishlari bajariladi. Uzellar aholi punktlarida, daryo va dengiz qirg'oqlarida joylashtiriladi va shu sababli ular yo'lovchi va yuklarni turli transportda hamkorlikda tashishni ta'minlaydi.


Temir yo'l uzellari turli yo'nalishlar ishini o'zaro bog'laganligi sababli transportning bir maromda ishlashida muhim ahamiyatga ega. Ularda yirik saralash, yo'lovchi va yuk bekatlari joylashgan. Uzellarning chizmasi va tuzilishi mahalliy geografik va topografik sharoitlarga, yuk va yo'lovchi oqimlarining miqdori va yo'nalishlariga, tarmoqning foydalanish ishlaridagi ahamiyatiga bog'liq. Uzelda alohida qurilmalarning o'zaro joylashuvi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

— tranzit poyezdlarni tezda va to'siqsiz bir liniyadan ikkinchi-siga brigadalarni almashlab yoki almashlamay o'tkazish;

- ko‘p guruhli, harakat yo‘nalishini o‘zgartiruvchi tranzit poyezdlarni qayta ishlash;
- tranzit va mahalliy vagon oqimlarini qayta ishlash va ulardan barcha yo‘nalishlarga poyezdlar tuzish;
- vagonlarni bir bekatdan ikkinchisiga uzatish va shoxobcha yo‘llarga xizmat ko‘rsatish.

Asosiy elementlarining joylashishiga ko‘ra uzellarning quyidagi turlari mavjud:


- bir bekatli;
- kesishuvchan;
- uchburchak shaklidagi;
- asosiy bekatlari parallel joylashgan;
- asosiy bekatlari ketma-ket joylashgan;
- aylana shaklidagi;
- yarim aylana shaklidagi;
- aralash turdagi.



7.1- rasm. Bir bekatli uzel chizmasi.


Bir bekatli uzellar (7.1- rasm) ikki magistralning kesishish yoki bir magistralning ikkinchisiga birikish joylarida o‘rtacha va kichik shaharlar hududida joylashadi. Bu turdagи uzellarda barcha yo‘nalishlar yuk va yo‘lovchi harakatlariga xizmat ko‘rsatuvchi yagona bekatga birikadi. Bunday bekat ishining tavsifi va qurilmalarining rivojiga ko‘ra, u uchastka bekti hisoblanadi. Unda asosan uchastka va terma poyezdlar qayta ishlanadi, yo‘lovchi harakati va mahalliy yuk ishlariga xizmat ko‘rsatiladi. Bunday uzellarning kamchiliklari — harakat yo‘nalishini o‘zgartiruvchi oqimlarni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar, kesishuvchi magistrallarga xizmat ko‘rsatuvchi bir bekatda katta hajmda ishlarning mujassamlashganligidir.

Kesishuvchan turdagı uzellar (7.2- rasm) kesishuvchan liniyalar orqali, asosan, qayta ishlovsiz tranzit oqimlar harakatlanganda va qayta ishlanuvchi harakat yo‘nalishini o‘zgartiruvchi oqimlar hajmi katta bo‘lmasdan hollarda barpo etiladi. Uzel har bir liniyada joylashgan ikki bekattan iborat bo‘lib, ularning biri ko‘proq ish hajmiga ega, lokomotiv va vagon xo‘jaligi qurilmalari joylashgani asosiy, ikkinchisi esa yordamchidir. Biriktiruvchi yo‘llar uzeldagi alohida yo‘nalishlarni bog‘laydi va shu sababli birikuvchi yo‘nalishlarga poyezdlarni yo‘naltirish uchun xizmat qiluvchi qo‘srimcha ajratish punktlari bo‘ladi. Liniyalar kesishish joyida yo‘l o‘tkazgich qurilmalar barpo etiladi. Har ikkala liniya bo‘yicha harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdlar ham asosiy, ham yordamchi bekatlarda to‘xtab o‘tishi mumkin, tranzit yuk poyezdlari esa o‘z liniyalari bo‘yicha harakatlanadilar. Yordamchi bekatda lokomotivlar almashushi tashkil etilsa, ular asosiy bekatdan biriktiruvchi yo‘llar orqali uzatiladi. Harakat yo‘nalishini o‘zgartiruvchi qayta ishlash bo‘yicha saralash ishlari, uchastka va terma poyezdlarni tarqatish va tuzish bo‘yicha ishlar bosh yo‘nalishning asosiy bekatida mujassamlanadi. Yuk amallari uchun qurilmalar, odatda, asosiy bekatda ko‘zda tutiladi, lekin ular yordamchi bekatda ham joylashtirilishi mumkin. Biriktiruvchi yo‘llarning ko‘pligi, harakat yo‘nalishini o‘zgartiruvchi vagon oqimlarining ikki marotaba qayta ishlanishi va qo‘srimcha masofalarni bosib o‘tishi kesishuvchi turdagı uzellarning kamchiliklari hisoblanadi.




7.2- rasm. Kesishuvchi turdagı uzel chizmasi.

Uchburchak shaklidagi uzellar (7.3- rasm) o'zaro katta hajmdagi yuk va yo'lovchi oqimlarini almashlovchi uchta temir yo'l liniyalari birikuvchi punktlarda barpo etiladi. Uzelning alohida bekatlarining vazifalari shaharning va uning sanoat zonasining uzelga nisbatan joylashuviga va unda saralash, yuk va yo'lovchi bekatlarining joylashuviga bog'liq. Keltirilgan misolda 1-bekat yo'lovchi, 2-bekat uchastka va 3-bekat yuk bekatlaridir. Uchburchak shaklidagi uzellar katta manevraniш qobiliyatiga ega bo'lib, u vagon oqimlarini istagan yo'naliшhga qayta taqsimlash imkoniyatini beradi. Bunday uzellarning kamchiligi, qayta ishlanuvchi vagon oqimlarining ma'lum qismining qo'shimcha masofalarni bosib o'tishi, uzelning uchta bekatida shtat va qurilmalar uchun qo'shimcha chiqimlarning zarurligidir.



7.3- rasm. Uchburchak shaklidagi uzel chizmasi.


Bekatlari parallel joylashgan uzel chizmasi (7.4- rasm) shaharning joylashuvi bekatlarni ketma-ket joylashtirishga imkon bermasa, liniyalar bo'yicha kelayotgan poyezdlar, asosan, qayta ishlansa va uzelagi boshqa yo'naliшhga o'tishi kerak bo'lgan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunday uzelda ikki asosiy bekat — yo'lovchi va saralash bekatlari mavjud. Yo'lovchi bekating vazifasi barcha yo'naliшharning tranzit yo'lovchi poyezdlarini o'tkazish, mahalliy va shahar atrofi yo'lovchi poyezdlariga xizmat ko'rsatishdir. Yuk poyezdlari uzelda umumiш bo'lgan saralash bekti orqali o'tadi. Uzelning alohida xususiyati — uzelga har ikki tomonдан yaqinlashishda asosiy yo'llarning yo'l o'tkazgichlari orqali o'zaro kesishuvi tashkil qilinishidir. Bu hol uzelga kirmasdan avval yo'lovchi poyezdlarning yuk poyezdlaridan ajratib olish imkonini beradi.



7.4- rasm. Bekatda parallel joylashgan uzel chizmasi.

Yarim aylana shaklidagi uzel (7.5- rasm) yirik aholi va sanoat markazlarida, qator temir yo'l liniyalari berk yo'lovchi va boshqa turdag'i bekatlari orqali birikuvchi punktlarda tashkil etiladi. Bunday uzellarning xususiyatlari shundan iboratki, unda alohida yo'lovchi va saralash bekatlari yarim aylana shaklidagi biriktiruvchi liniya yordamida yagona majmuaga biriktiriladi. Yarim aylana shaklidagi liniya poyezdlarning istagan yo'nalishga va istagan bekatga o'tish imkonini beradi. Bekatlarga yaqinlashishda yo'llarning kesishishi yo'l o'tkazgichlar, postlar va biriktiruvchi yo'llar orqali amalgalash oshiriladi.

Bu holda uzellarning kesishuvchan, uchburchak shaklidagi va bekatlari ketma-ket joylashgan chizmalari birgalikda qo'llaniladi.



7.5- rasm. Yarim aylana shaklidagi uzel chizmasi.

7.2. Uzeldagi bekatlar orasida ishni taqsimlash

Foydalanish ishlarining tavsifiga ko'ra, uzellar tranzit, mahalliy va tranzit-mahalliy turlarga bo'linadi. Tranzit uzellar bir necha liniyalar birikadigan yoki kesishadigan joylarda barpo etiladi. Ularning asosiy vazifasi — tranzit vagon oqimlarini qayta ishlash va ularni bir liniyadan boshqasiga o'tkazishdan iborat.

Bu yerda poyezd brigadalarini va lokomotivlari almashlanadi. Mahalliy uzellarning vazifasi katta hajmdagi yuk ortish-tushirish ishlarini va ular bilan bog'liq bo'lgan tijorat va texnikaviy amallarni bajarishdir. Bunday uzellar, odatda, temir yo'lning yakuniy punktida, katta hajmdagi yuk oqimlarining paydo bo'lish yoki tugallanish punktlarida joylashtiriladi. Tranzit vagon oqimlari umuman bo'lmaydi yoki juda kichik hajmda bo'ladi.

Temir yo'l uzeli tarkibiga bir-ikki saralash, bir-ikki yo'lovchi va bir necha yuk bekatlari kiradi. Uzelga kiruvchi barcha bekatlar o'zining ma'muriy mustaqilligini saqlagan holda, bir-biri bilan hamjihatlikda faoliyat ko'rsatadi.

Har bir bekat ishining texnologik jarayoni uning uzeldagi boshqa bekatlar bilan o'zaro aloqasi, ularning uzeldagi joylashuvi, ixtisosi, uzel ichida vagonlarni uzatishni tashkil etish va boshqalardan kelib chiquvchi xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bundan tashqari, umuman temir yo'l uzeli ishining texnologik jarayoni ishlab chiqiladi. U uzel miqyosida ishni tashkil etishning quyidagi umumiy masalalarini o'z ichiga oladi: uzelni boshqarishni tashkil etishni; uzelda lokomotivlarga xizmat ko'rsatishni, yo'lovchi tarkiblarini, shahar atrofi harakatini tashkil etishni va boshqalarni hisobga olgan holda yo'lovchi harakatini tashkil etish.

Uzelda bir necha saralash, yuk va yo'lovchi bekatlar mavjud bo'lsa, ularni ma'lum amallarni bajarish uchun ixtisoslash maqsadga muvofiqdir. Xuddi shuningdek, bosh yo'llar, biriktiruvchi liniyalar alohida turdagи poyezdlarning (yo'lovchi, yuk) harakatlanishi yoki harakat yo'nalishi (juft, toq) bo'yicha ixtisoslashtiriladi.

Uzelda bekatlarni ixtisoslash vagonlarning ko'p marotaba qayta ishlanishini bartaraf etadi, ularning aylanmasini tezlashdiradi, texnikaviy vositalardan foydalanishni yaxshilash, xodimlarni

joy-joyiga samarali qo'yish imkonini beradi. Bekatlarni ixtisoslashda, odatda, tranzit poyezdlarni uzel orqali o'tkazish tartibi belgilanadi hamda bekatlar orasida saralash, yuk vazifalari va yo'lovchi tashish ishlariga xizmat ko'rsatishlari o'zaro taqsimlanadi.

Uzelda saralash ishlarining taqsimoti vagonlarni qayta ishlashni tezlashtirish, bu ishlarni texnikaviy jihatdan yaxshiroq jihozlangan bekatlarda mujassamlashtirish; vagonlarni ko'plab qaytadan ishlashni hamda harakat yo'nalishini o'zgartiruvchi oqimlarning hajmini iloji boricha kamaytirish; ma'lum manzillarning vagon oqimlarini toplash uchun vaqtini kamaytirish maqsadida iloji boricha ularni bir bekatda mujassamlashtirishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tranzit vagon oqimlarini qayta ishslashning texnikaviy jihatdan jihozlangan bekatda jamlanganda, uzelning boshqa saralash bekatlaridan mahalliy vagon oqimlarini qayta ishslash uchun ham foydalilanadi.

Uzelning yuk bekatlari orasida ishlar yukning turi yoki tashish ishlarining yo'nalishi bo'yicha taqsimlanadi. Ko'p sonli yuk bekatlari mavjud bo'lgan yirik uzellarda bekatlarni yuk turlarini tushirish bo'yicha ixtisoslash maqsadga muvofiqdir.

Yuk bekatlarini ixtisoslash nafaqat yuk ortish-tushirish amallarini to'laroq mexanizatsiyalash, balki bir manzilga mo'ljallangan vagonlar guruhini yiriklashtirish va shu orqali uzeldagi saralash ishlarining hajmini kamaytirish imkonini beradi. Yuk bekatlarini vagonlarning qo'shimcha masofalarni bosib o'tishiga va saralash bekatlarida ko'p marotaba qayta ishlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ommaviy yuklarni tushirish uchun kelish yo'nalishlarini hisobga olgan holda, avtovozning ortiqcha masofalarini bosib o'tishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu yuklarni oluvchi asosiy tashkilotlarning joylashuvini hisobga olgan holda ixtisoslashtiriladi.

Bekatlarni ixtisoslashda yuklash amallarini mexanizatsiyalash vagonlar turish vaqtini va yuklovchilar shtatining qisqartirilishi vagonlar hamda avtovozning bir oz ortiqcha masofalar bosib o'tishining chiqimlariga qaramay, katta iqtisodiy samara berishi mumkin.

7.3. Uzelda vagon oqimlari va poyezdlar harakatini tashkil etish

Uzellarda tranzit vagon oqimlarini tashkil etish poyezdlar tuzish rejası bilan belgilanadi. Qator uzellarda uzel bekatlari va unga birikuvchi uchastkalarda ortiqcha vagonlardan tashqari ko'p miqdorda mahalliy vagon oqimlari to'planib qoladi. Bunday vagon oqimlaridan samarali foydalanish uzellar ishini bir me'yorda tashkil etish, vagonlarning qayta ishlanishlarini va turish vaqtlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Uzellarda mahalliy vagon oqimlarini tashkil etish yo'nalishlar bo'yicha yuk ortishni kalender rejalashtirish va vagon oqimlarini chiqish saralash bekatlariga kelishilgan jadvallar bo'yicha keltirishga asoslanadi.

Uzel ishi texnologik jarayonini marshrutlar ortish uchun bo'sh vagonlarni uzatishga tayyorlovchi, zinasimon marshrutlar yig'uchi va tuzuvchi bekatlar belgilaydilar. Uzelning bekatlarida tuziluvchi har bir marshrut va vagonlar guruhi uchun tarkibning og'irlilik va uzunlik me'yorlari, guruhlarni uzatuvchi poyezd tarkibiga kiritish tartibi belgilanadi.

Uzel bekatlariga yuk tushirish uchun kelayotgan vagonlar butun marshrut bo'lib bir bekat manziliga yoki poyezdlar tuzish rejasiga asosan tarqatiluvchi poyezdlar tarkibida keladi. Yuk tushiruvchi bekatlar ixtisoslashtirilganda yuk tushirish uchun kelayotgan marshrutlar soni keskin oshadi. Uzelda yuki tushirilgan va temir yo'llarga uzatilishi kerak bo'lgan vagonlar ham belgilangan bekatlarda mujassamlanadi.

Uzelda vagon oqimlarini tashkil etishda bekatlarning yuk ortish va tushirish, poyezd tuzish va tarqatish bo'yicha texnikaviy imkoniyatlari hisobga olinadi. Uzel aniq ishlashining asosi poyezdlar harakati grafigi hisoblanadi. Uzel ichki poyezdlar harakati grafigi va bekatlar ishining kundalik reja-grafiklari poyezdlarni qabul qilish, o'tkazish va jo'natish asosiy amallari bo'yicha o'zaro bog'lanadilar. Uzel ichki poyezdlar harakati grafigi uzelga kiruvchi barcha yo'nalishlar, texnikaviy va yuk bekatlari ishini muvofiqlashtiruvchi asosiy texnikaviy hujjat hisoblanadi. Bunday grafik har bir uchastka va biriktiruvchi liniyalar uchun uzoq yo'nalishdagi poyezdlar harakatini va uzel ichidagi uzatuvchi

poyezdlar harakatini muvofiqlashtirgan holda tuziladi. Bunday grafikda, odatda, ma'lum yo'nalishlar va manzillar poyezdlari uchun ixtisoslashgan jadvallar hamda uzel dispatcherlari tomonidan foydalaniluvchi ixtisoslashmagan zaxira jadvallari ko'zda tutiladi.

Uzel bo'yicha harakatlanuvchi, uzatuvchi poyezdlarni, vagonlarni yig'ishda ko'p turib qolmasligi uchun ularni og'irligi va uzunligi bo'yicha to'liq bo'lmasdan tuzish mumkin. Vagonlarni yig'ishda uzatuvchi poyezdlar tarkibining kamayishi ularning turish vaqtini qisqartiradi, lekin lokomotivlarning yurishi masofasini ko'paytiradi.

Demak, umumiyl foydalanish sarf-xarajatlarini kamaytirish uchun uzatuvchi poyezdlar uchun qulay poyezdlar sonini va ularga to'g'ri keladigan tarkibni aniqlash zarur. Uzatuvchi poyezdlarning sonini aniqlaganda foydalanish sarf-xarajatlaridan tashqari bog'laydigan liniyalarning va uzel bekatlarining o'tkazish qobiliyati e'tiborga olinadi.

Uzatuvchi poyezdlarning samarali sonini aniqlash uchun masalani yechish usuli quyidagicha. Agar vagonlarni yig'ish bo'yicha umumiyl harakat $C \cdot m \cdot C_{v-s}$ ga teng bo'lsa, unda uzatma-

larning harakati bo'yicha umumiyl harakat $\frac{n}{m} \cdot C_u$ ga teng bo'ladi.

Bunda: C — to'planish parametri;

m — tarkibdagi vagonlar soni;

C_{v-s} — bitta vagon-soatning narxi;

C_u — bitta uzatma harakatining narxi.

Qiymatlar o'rniga qo'yilganda uzatuvchi poyezd tarkibidagi vagonlar sonini quyidagicha topish mumkin:

$$m = \sqrt{\frac{n \cdot C_u}{C \cdot C_{v-s}}} \text{ vagon.}$$

Misol: Berilgan: $n=200$ vagon, $C=8$ soat, $C_{v-s}=1300$ so'm, $C_u=8000$ so'm.

Unda: $m = \sqrt{\frac{200 \cdot 8000}{8 \cdot 1300}} \approx 40 \text{ vagon.}$

$$N_{uz} = \frac{200}{40} = 5 \text{ uzatuvchi poyezdar.}$$

Katta uzellarda uzatuvchi poyezdlarga xizmat qilish uchun lokomotivlar ma'lum bir rayonlarga biriktiriladi. Uzelda uzatuvchi poyezdlarga xizmat qiluvchi lokomotivlar parki, bu poyezdlarning soni va safar davomiyligining me'yori bo'yicha topiladi:

$$M = \frac{1}{24} (N_1 T_1 + N_2 T_2 + \dots + N_k T_k) \text{ lokomotiv}.$$

Bunda: N_1, N_2, N_k — alohida manzillar bo'yicha uzatuvchi poyezdar soni;

T_1, T_2, T_k — ma'lum manzildagi bitta poyezdga lokomotivning xizmat qilish davomiyligini me'yori.

Uzatuvchi poyezdar sonini va ularga xizmat qiluvchi foydalananidan lokomotiv parkini topish bilan bog'liq bo'lgan hisoblar rejali vagonlar oqimi asosida uzelning poyezdar harakati grafigini tuzishdan oldin bajariladi.

Uzel ishini tezkor boshqarishni bevosita MTU ga bo'ysinuvchi uzel dispetcheri olib boradi. Uzel ishining tezkor rejasi, temir yo'lning boshqa bo'limmalaridagidek, kun va smenaga tuziladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Temir yo'l uzeli deb nimaga aytildi?
2. Uzeldagi qurilmalarning o'zaro joylashuvni nimalarni ta'minlashi kerak?
3. Uzeldagi qurilmalarning o'zaro joylashuviga qarab, ularning qaysi turlari bor?
4. Uzel turlarining afzalliklari va kamchiliklari nimada?
5. Uzeldagi bekatlar orasida ishlar qanday taqsimlanadi?
6. Uzelda vagonlar oqimi va poyezdar harakati qanday tashkil etiladi?
7. Uzeldagi uzatuvchi poyezdlarning tarkibidagi vagonlar soni qanday topiladi?
8. Uzatuvchi poyezdar soni qanday topiladi?
9. Uzatuvchi poyezdlarga xizmat qiladigan lokomotivlar soni qanday topiladi?

VIII BOB. YO'LOVCHILAR HARAKATINI TASHKIL ETISH

8.1. Yo'lovchilar tashishning ahamiyati

Yo'lovchilar tashish bo'yicha asosiy vazifalar aholining harakatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yo'lovchilarga vokzallarda madaniy xizmat qilishni tashkil etish, ular uchun poyezdlarda zaruriy bo'lgan qulayliklarni yaratishdan iborat.

Bunday vazifalarni yechish uchun quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi:

- yo'lovchilarning poyezdda yurish vaqtini qisqartirish va yurish tezliklarini oshirish, poyezdlarning texnik zaruriyat uchun to'xtashlarini qisqartirish, bagaj va pochtalarni tushirish va yuklash, yo'lovchilarni o'tqazish va tushirish, ko'chib o'tirishsiz yo'nalishlar sonini oshirish, vagonlarni ulash va yo'lovchilar ko'chib o'tirish punktlarida turgan poyezdlarning kelish-ketish vaqtlarini muvofiqlashtirish hisobiga qisqartirish;

- yo'lovchilarga vokzallarda va poyezdlarda ko'p miqdordagi qulayliklarni yaratish (yurish hujjalarni sotib olish uchun kam vaqt sarflash, dam olishni ta'minlab beruvchi jihozlar, tezkor ma'lumotlar olish, to'shak jildlarini olishlik imkoniyatlari va boshqalar);

- harakatlanuvchi tarkib (lokomotiv va vagon)larni, bekat va vokzal qurilmalarini samarali ishlatish, tarkiblar aylanish grafiklarini ustalik bilan tuzish, asosiy va aylanish punktlarida ishlov va ekipirovka vaqtlarini qisqartirish, poyezdlarning yo'il davomida turishlarini kamaytirish, vokzal ishlarida qulay jarayonlarni tuzish;

- yo'lovchi va yuk harakatini muvofiq ravishda olib borish (asosan yuk tashishlar ko'p bo'lgan liniyalarda, yo'lovchi poyezdlarining grafikda joylashishi natijasida yuk poyezdlarining bir tekis joylashishi);

- yo'lovchilarni maqsadga muvofiq tashish uchur, turli xildagi transportlarni uyuştirish;

- aralash temir yo'l, daryo, dengiz, avtomobil va havoda tashishlarni tashkil etish;
- yo'lovchilar tashish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarni tejash, ularning tannarxini kamaytirish va ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish.

Bunda birinchi o'rinda poyezdlarning harakat xavfsizligi va yo'lovchilarning shaxsiy xavfsizligi ta'minlanishi zarur.

8.2. Yo'lovchilar tashish turlari va yo'lovchi poyezdlar toifalari

MDH temir yo'llarida tashiladigan yo'lovchilar oqimi uch toifaga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri, mahalliy va shahar atrofi yo'nalishlarida.

To'g'ridan-to'g'ri (uzoq masofa) yo'nalish — bu kamida ikki temir yo'l bo'yicha va 700 km dan ortiq masofaga yo'lovchilar tashish;

150 dan 700 km gacha masofaga bitta temir yo'l doirasida tashishni tashkil etish mahalliy yo'nalishga kiradi;

150 km gacha masofada, yirik shahar, sanoat markazlariga tutashgan uchastkalarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish shahar atrofi yo'nalishiga kiradi.

MDH temir yo'llarida tashiladigan yo'lovchilarning 90% i shahar atrofi poyezdlari hissasiga to'g'ri keladi. Ammo shahar atrofi yo'lovchilarini tashish uncha uzoq masofada bo'lmagani sababli, ularning solishtirma miqdori umumiy yo'lovchilar aylanishi yoki yo'lovchi-kilometrlar miqdorining faqat 25% ga to'g'ri keladi. Shahar atrofi liniyalarini elektrlashtirish yo'lovchilar tashish miqdorining o'sishiga sezilarli ta'sir etadi. Bu shahar atrofi poyezdlar harakati tezligini va aylanishini oshiradi.

Yo'lovchi poyezdlar harakat tezliklari bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi:

Tezyurar poyezdlar — oshirilgan texnik tezlik va yo'nalishda to'xtashlar sonini eng kam miqdorgacha kamaytirish hisobiga yuqori marshrut harakat tezligiga ega bo'lgan poyezd. Tezyurar poyezdlar asosan katta bekatlarda to'xtaydi. Bunday poyezdlar yirik markaziy va kurort shaharlari o'rtasida qatnaydi va yuqori qulayliklarga ega bo'lgan vagonlardan tuziladi.

Yo'lovchi poyezdlar texnik tezligi past va to'xtashlar soni ko'p bo'lgani uchun marshrut tezligi tezyurar poyezdlarga nisbatan kam. Shahar atrofi harakati bo'lman uchastkalarda yo'lovchi poyezdlari uchun nafaqat katta bekatlarda, balki oraliq bekatlarida to'xtashlar ham tayinlanadi. Bu poyezd tarkibiga pochta va bagaj vagonlari qo'shiladi.

Pochta-bagajli vagonlar, pochta va bagajlar tashish uchun tayinlanib, asosiy yo'nalishlarda harakatlanishadi. Ba'zi holatlarda bu poyezd tarkibiga yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan vagonlar ham qo'shiladi.

Shahar atrofi poyezdlari shahar atrofi liniyalarida qatnaydi, nafaqat ajratish punktlarida, balki maxsus qurilgan yo'lovchi to'xtash punktlarida ham to'xtaydilar.

Yuk-yo'lovchi poyezdlar, yo'lovchilar oqimi kam bo'lgan kam harakatli liniyalarda tayinlanadi.

Sayohat poyezdlari sayohatchilarni mamlakat ichkarisidagi marshrutlar bo'yicha va xalqaro yo'nalishlarda tashish uchun tayinlanadi. Sayohatchi poyezdlar uchun uch qavat ma'ruza, kino va sport o'yinlari uchun zali bor kupeli vagonlar, poyezd tarkibi bo'yicha ovqatlar tashish uchun oshxona-vagonlar ajratiladi. Muhim markazlarni va davolanish muassasali shaharlarni bog'lovchi bosh yo'llarda «O'zbekiston» singari firma poyezdlari qatnaydi. Ular yuqori qulayliklarga ega bo'lgan vagonlardan tuziladi.

Yo'lovchi poyezdlari muntazamligi doimiy va qo'shimcha zaruriyat bo'yicha harakatlanuvchi turlarga bo'linadi.

8.3. Yo'lovchi poyezdlar tarkibi

Yo'lovchi poyezdlari belgilangan og'irlikka va o'zgarmas tarkibga ega. Ular toifalariga muvofiq ma'lum turdag'i vagonlardan tuziladi. Yo'lovchi poyezdlarda turli xildagi vagonlarning joylashishi shiga tarkib kompozitsiyasi yoki tuzish chizmasi deyiladi. U chipta sotishni tashkil etish va yo'l davomida poyezd tarkibidagi bo'sh joylar haqidagi ma'lumotlarni berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarkib kompozitsiyasi xizmat jadvali kitobchasida aks ettiriladi va uni o'zgartirish mumkin emas.

Tarkib kompozitsiyasini tanlaganda, yo'lovchilar oqimining quvvati va xarakteri, tarkibga qo'shiladigan vagonlar turi va belgilangan og'irlik me'yori e'tiborga olinadi, asosiy ahamiyat yo'lovchilar uchun yaxshi qulayliklar ta'minlab berishga qaratiladi. MDH temir yo'llarida yo'lovchilar tashishni tashkil etishdagi tajribaga asoslanib, yo'lovchilar oqimi eng ko'p oshgan vaqtga ko'ra tezkor poyezdga 12–15, tezyurarga 16–17, yo'lovchi (uzoq va mahalliy) 17–20 vagonlar ulash maqsadga muvofiq. Yo'lovchi poyezdlarni tuzish chizmasi 8.1-jadvalda keltirilgan.

Ko'p liniyalarda mahalliy poyezdlar tarkibiga viloyatlararo yumshoq o'rindiqli vagonlar qo'shiladi.

Alohiba poyezd belgilash uchun yo'lovchilar oqimi bo'lган shaharlar o'rtasida qatnaydigan yo'lovchi poyezdlar tarkibiga yo'l davomida ko'chib o'tirmaydigan vagonlar ulanadi va uziladi.

8.4. Yo'lovchilar tashishni rejalashtirish

Yo'lovchilar tashish rejası (yo'lovchi-kilometr) temir yo'l transporti uchun asosiy topshiriq hisoblanadi. Yo'lovchilar tashishni rejalashtirish negizida yo'lovchilar oqimini iqtisodiy rejalashtirish yotadi, uning asosida esa harakatning yo'nalishi va quvvati aks etadi.

Yo'lovchilar tashish rejasini tuzish yuklar tashishga nisbatan birmuncha qiyinroq. Agar yuk tashish rejası ishlab chiqarish va undan foydalanish balansi asosida tuzilsa, yo'lovchilar tashish rejasini tuzishda yo'lovchilar oqimining kattaligi va ularning harakat yo'nalishi hisobga olinadi, qaysiki u aholining harakatlanish ehtiyojiga ko'p marta bog'liq.

Yo'lovchilar oqimini rejalashtirishda hisobga olinadigan asosiy omillar quyidagilar:

- yirik shaharlarda, qishloq aholi punktlarida va ba'zi rayonlarda aholi sonining o'sishi va zichligi;
- aholining moddiy va madaniy darajasi doimiy o'sishi;
- ba'zi tumanlar va butun bir mamlakat bo'yicha xalq xo'jalingin o'sishi;
- shahar atrofi rayonlarining, kurortlarning, dam olish zonalarining va shaharlarning rivojlanishi;

Tezyurar va yo'lovchi poyezdlar kompozitsiyasi

| Vagon turi | Tezyurar | | | | Yo'lovchi | | | |
|----------------------------------|---------------|------------------------|-----------------|------------------------|-----------------|---------------|------------------------|-----------------|
| | Vagonlar soni | Vagonndagi joylar soni | Vagon og'irligi | Yumumiy o'rinalar soni | Umumiy og'irlik | Vagonlar soni | Vagonndagi joylar soni | Vagon og'irligi |
| Bagajli | 1 | — | 60 | — | 60 | 1 | — | 60 |
| Pochtali | — | — | — | — | — | 1 | — | 60 |
| Qattiq, ochiq plaskart bo'lmagan | — | — | — | — | — | 3 | 87 | 59 |
| Qattiq, ochiq plaskart bo'lmagan | 4 | 58 | 57 | 232 | 228 | 4 | 58 | 57 |
| Qattiq kupeli | 2 | 38 | 56 | 68/8 | 112 | 1 | 38 | 56 |
| Yumshoq | 2 | 32 | 59,5 | 64 | 119 | 1 | 32 | 59,5 |
| Vagon-restoran | 1 | — | 60 | — | 60 | — | — | — |
| Qattiq kupeli | 4 | 38 | 56 | 148/4 | 224 | 1 | 38 | 56 |
| Qattiq kupeli bufeti bilan | — | — | — | — | — | 1 | 26 | 56 |
| Qattiq, ochiq plaskart | 3 | 57 | 57 | 174 | 171 | 2 | 58 | 57 |
| Qattiq, ochiq plaskart bo'lmagan | — | — | — | — | — | 4 | 87 | 59 |
| Umumiy | 16/17 | — | — | 686/12 | 974=1000 | 17/19 | — | — |
| | | | | | | | 1081/10 | 1082,5=-1000 |

- yangi temir yo‘l liniyalarining qurilishi va temir yo‘l texnik jihozlarining kuchaytirilishi;
- boshqa turlardagi transportni rivojlantirish;
- turizmni va xalqaro yo‘nalishlarni rivojlantirish.

Rejalahshtirishda tashkil etiladigan ommaviy yo‘lovchilar tashish bilan bog‘liq (sport musobaqalari, festival, ko‘rgazmalar va boshqa) tadbirlar hisobga olinadi. Yo‘lovchilar oqimining quvvatini va harakat yo‘nalishini aniqlash uchun yordamchi manba bo‘lib o‘tgan yillardagi asosiy vokzallar bo‘yicha yo‘lovchilar oqimi haqida tezkor va statistik ma’lumotlar hisoblanadi. Yo‘lovchilar oqimini rejalahshtirish uchun qo‘sishimcha ma’lumotlar qo‘llaniladi, ya’ni poyezdlarning sig‘imidan foydalanish bo‘yicha poyezdlar brigadasi yoki maxsus tashkil etilgan brigada hisoboti.

To‘g‘ri rejalahshtirish uchun yirik shaharlar va aholi punktlari o‘rtasidagi haqiqiy yo‘lovchilar oqimini o‘rganish zarur.

Tuzilgan rejali yo‘lovchilar oqimi rasmiylashtiriladi yoki jadval ko‘rinishda har bir bekat bo‘yicha kelgan va ketgan yo‘lovchilar ko‘rsatiladi yoki katakli jadval deb nomlanadigan ko‘rinishda bo‘lib, bekatlar orasidagi yo‘lovchilar oqimi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. (8.2- jadval). Bu jadvallardagi ma’lumotlardan harakatlar sonini aniqlash uchun va tashishni tashkil etish bo‘yicha ko‘pgina boshqa savollarni yechish uchun foydalilaniladi. Katak jadvallar bo‘yicha yo‘lovchilar oqimining diagrammasi tuziladi (8.1- rasm).

Yo‘lovchilar oqimining soni juft va toq yo‘nalishlarda bir xil bo‘lgani uchun diagrammani bitta harakat yo‘nalishiga tuzish bilan kifoyalanish mumkin. Yo‘lovchilar oqimining diagrammalari yoki katakli jadvallari yo‘lovchilar harakati sonini hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.


Shahar atrofi yo‘lovchilar oqimini rejalahshtirish asosan o‘sha faktorlar bo‘yicha aniqlanadi, ya’ni uzoq va mahalliy yo‘nalishlardiyo yo‘lovchilar oqimi singari, birinchi o‘rinda aholining madaniy ehtiyojlarini oshirish va iqtisodiy farovonligini yaxshilash. Ular bilan birgalikda yana shahar atrofi yo‘lovchilar oqimining soniga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillar ham bor:

Shuning uchun shahar atrofi harakatini rejalahshtirishda qo‘sishimcha shahar atrofi aholisini tashishda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi:

- shahar atrofi yo'lovchilarining qisqa masofaga borishi va ularning yalpiligi;
- bitta yo'lovchiga yil davomida to'g'ri keladigan safarlar sonining ko'pligi;
- shahar atrofi yo'nalishidagi yo'lovchilarni katta muhim ma'muriy va sanoat markazlarida xizmat qilish uchun uzellarga to'plash;
- tashishlarning qisqa masofadaligi;
- bosh bekatdan uzoqlashgan sari, uchastkadagi shahar atrofi yo'lovchilari sonining keskin kamayishi;

8.2- jadval

| ga dan | Manzillari | | | | | |
|---------------|------------|-----|-----|------|------|---------|
| | A | B | D | E | F | Hammasi |
| A..... | — | 400 | 600 | 500 | 3500 | 5000 |
| B..... | — | — | 300 | 400 | 700 | 1400 |
| D..... | — | — | — | 200 | 300 | 500 |
| E..... | — | — | — | — | 600 | 600 |
| Hammasi | — | 400 | 900 | 1100 | 5100 | 7500 |



8.1- rasm. Yo'lovchilar oqimining diagrammasi.

- shahar atrofi yo'lovchilar oqimining mavsum, oy, kun va sutkadagi soatlar bo'yicha ko'pgina notekisligi (bayram va dam olish kunlarida keskin o'zgarishi);

— shahar atrofi yo'lovchilarining bevosita shahar atrofi yo'naliishlarida hosil bo'lishi.

8.5. Uzoq va mahalliy yo'lovchilar harakatini tashkil etish

8.5.1. Yo'lovchi poyezdlarning sonini va manzilini aniqlash

Yo'lovchi poyezdlar sonini to'g'ri aniqlash temir yo'lning texnik jihozlaridan hamda harakat tarkibidan samarali foydalanish imkonini beradi. Harakatlar sonini topish uchun: yo'lovchilar oqimining quvvati, yo'lovchi poyezdlarning og'irlik me'yori va ularning sig'imi, poyezd tarkibidagi joydan foydalanish darajasi, poyezdlarni turli kategoriyalarga bo'lish zaruriyati dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi.

Yil davomida o'zgarmaydigan yo'lovchilar oqimiga xizmat ko'rsatish uchun tezyurar poyezdlar tayinlanadi.

Yo'lovchilar oqimi qishga nisbatan yoz davrida ko'proq bo'lgani uchun yo'lovchi poyezdlarning harakat soni ularning turlari bo'yicha alohida yoz davri uchun va alohida qish davri uchun belgilanadi.

Uzoq va mahalliy yo'lovchi poyezdlarining harakat soni umumiy ko'rinishda quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$N_{yo'l} = \frac{A_{max}}{a} \text{ poyezd.}$$

Bunda: A_{max} — ko'rileyotgan punktlar orasidagi eng ko'p oyning o'rtacha kunlik yo'lovchilar oqimi;

a — poyezd tarkibining sig'imi.

Tezyurar va yo'lovchi poyezdlar harakatining soni quyidagi shart bo'yicha topiladi:

$$N_{tyu} = \frac{A_{max} \beta_{tyu}}{a_{tyu}}, \quad N_y = \frac{A_{max} (1 - \beta_{tyu})}{a_y} \text{ poyezd.}$$

Bunda: β_{tyu} — tezyurar poyezdlarga to'g'ri keladigan yo'lovchilar oqimining hissasi;

a_{tyu}, a_y — tezyurar va yo'lovchi poyezdlarning sig'imi.

Agar kunlik yo'lovchilar oqimi poyezdlar sig'imiga to'g'ri kelmasa, unda poyezdlar soni ularning turlari bo'yicha kunora harakatlanadigan poyezdlar tayinlanib o'zgartiriladi.

Misol: agar kuniga *A* bekatidan *B* bekatiga 5700 ta yo'lovchi jo'nasa, poyezdning o'rtacha sig'imi 620 yo'lovchiga teng bo'lsa, unda yo'lovchilar oqimini tashish uchun:

$$N_y = \frac{5700}{620} = 9,2 \text{ poyezd}$$

zarur bo'ladi (har bir yo'nalish bo'yicha). Hozirgi holda 9 juft poyezd tayinlash mumkin, faqat ba'zilarining sig'imi qo'shimcha vagon ulash yoki ko'p joyli vagonlar qo'yish bilan oshiriladi. Poyezdlar harakat grafigini va jadvalini qurishda bunday hisoblar kamlik qiladi. Yo'lovchilar oqimining miqdoriga qarab poyezdlar sonini turlariga va manzillariga bo'lib aniqlash zarur.

8.5.2. Uzoq va mahalliy yo'lovchi poyezdlarning harakat grafigi va jadvalini tuzish

Yo'lovchi poyezdlarning harakat grafi va jadvalini tuzishda, temir yo'l o'tkazish qobiliyatidan, harakat tarkibidan samarali foydalanishni va tashish tannarxini kamaytirishni ta'minlash uchun yo'lovchi va yuk harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur. Uzoq va mahalliy yo'lovchi poyezdlarining yangi harakat jadvalini tuzishda dastlabki variant sifatida o'tgan vaqt davomidagi jadval olinadi. Avvalgi jadvalning kamchiliklarini bartaraf etish va yo'lovchilarining takliflarini qanoatlantirish maqsadida tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Uzoq va mahalliy yo'lovchi poyezdlarining harakat jadvali yo'lovchilar harakatining bir qator xususiyatlarini hisobga olishi va quyidagilarni ta'minlab berishi zarur: a) poyezdlarning yuqori harakat tezligini, yo'lovchilarga a'lo sifatli xizmat qilishni, harakat tarkibidan, o'tkazish qobiliyatidan samarali foydalanishni va foydalanish xarajatlarini kamaytirishni. Shuning uchun yo'lovchi poyezdlarning jadvalini to'g'ri tuzishda, asosan, ularni grafikni quvib o'tmasdan joylashtirishni va iloji boricha quvib o'tishdag'i to'xtashlarni qisqartirishni nazarda tutishi zarur. Uzoq va mahalliy poyezdlarni grafikda joylashda shahar atrofi poyezdlarini joylash-

tirilishi bilan bog'lash shart; b) tarkiblarning va lokomotivlarning tez aylanishini, harakat tezliklarining yuqoriligini ta'minlash zarur; d) yuk va yo'lovchi harakatlarini ma'qul bog'lash yuk poyezdlarini quvib o'tishda va kesishishda ko'p turib qolishlarini yo'qotadi, sutkaning ayrim vaqtlarida yo'lovchi poyezdlar sonining ko'pligi saralash va uchastka bekatlarining ish maqomi buzilishiga olib keladi. Yuk va yo'lovchi harakatining bog'lanishi magistralning o'tkazish qobiliyatidan foydalanishning yuqori darajadalilagini ta'minlab berish uchun yo'lovchi harakati katta bo'lgan liniyalarda yo'lovchi poyezdlarini pachka yoki paketda o'tkazish zarur.

Temir yo'l uzellarida yo'lovchi poyezdlar harakatining jadvali ba'zi alohida liniyalar bilan muvofiqlashtirilishi kerak. U o'tish punktlarida boshqa turdag'i yo'lovchi transporti jadvali bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Jadval poyezdlarning bosh bekatdan ketish vaqtini va ularning oxirgi punktlarga kelishi ko'proq qulay bo'lishini nazarda tutishi kerak. Yirik aholi punktlarida yo'lovchilar poyezdlarga ko'chib o'tirishlariga kam vaqt sarflashlari uchun poyezdlarning qulay kelishi va ketishlarini hisobga olish, katta bekatlar bo'yicha uzoq va mahalliy poyezdlar jadvalini muvofiqlashtirish zarur.

Har bir yo'naliш va butun bir temir yo'l bo'yicha batafsil harakat grafigi tuzilgunga qadar yo'lovchi poyezdlarning harakat grafigi chizmali tarzda tayyorlanadi. Bu grafiklar bo'yicha quyidagilar aniqlanadi: yo'lovchi poyezd harakatining ko'rsatkichlari; ko'chib o'tirish punktlarida va to'g'ri yo'naliшlarning vagonlarini ulash punktlarida poyezdlar muvofiqlashtirilishi; jadval tarkiblari aylanishi grafiklari bilan bog'lanishi; ba'zi bekatlarning poyezdlar bilan bandlik darajasi va boshqalar.

Chizma grafiklar tahlil qilingandan va ularga tuzatishlar kiritilgandan so'ng poyezdlar harakati grafigi batafsil tuziladi. Unda har bir poyezdning harakat jadvaliga aniqlik kiritiladi. Ba'zida umumiy grafik tuzish shartlari bo'yicha jadvalga tuzatishlar kiritishga ruxsat beriladi. Tuzilgan yo'lovchi poyezdlar harakatining jadvali yo'lovchilar xabardor bo'lishi uchun va temir yo'l transportining ishchilar xizmatlarida foydalanishlari uchun e'lon qilinadi.

8.5.3. Yo'lovchilar tashishning asosiy ko'rsatkichlari

Temir yo'l transportining texnik vositalaridan foydalanish sifatining tahlili (lokomotivlar, vagonlar, uchastkaning o'tkazish qobiliyati) va bajarilgan ishlarning hajmini aniqlash uchun yo'lovchilar harakatining ko'rsatkichlari zarur bo'ladi. Ularni ikki asosiy guruhga — son va sifatga bo'lish mumkin.

Yo'lovchilar tashish bo'yicha ishlarning hajmini xarakterlovchi asosiy son ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1. **Yo'lovchilar tashish hajmi** tashilgan yo'lovchilar soni bilan topiladi:

$$\sum A = A_1 + A_2 + \dots + A_n \text{ yo'lovchi/yil,}$$

temir yo'l bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni jo'natilgan A_j , kelgan A_k va tranzit bo'lib o'tgan A_{tr} yo'lovchilar yig'indisiga teng:

$$A_{TY} = A_j + A_k + A_{tr} \text{ yo'lovchi.}$$

Temir yo'l bo'yicha jo'natilgan yo'lovchilar soni chipta kassalaridagi sotilgan chiptalar sonidan hisobot ma'lumotida e'tiborga olinadi.

2. **Yo'lovchi aylanmasi** bajarilgan yo'lovchi-kilometrlar bilan xarakterlanadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\sum Al = A_1 l_1 + A_2 l_2 + \dots + A_n l_n \text{ yo'lovchi - km / yil.}$$

Bu va boshqa ko'rsatkichlar umumiy va alohida yo'nalishlar turlari bo'yicha rejalashtiriladi va hisobga olinadi.

3. **Bir yo'lovchining o'rtacha safar uzunligi** har bir kategoriyadagi yo'lovchini tashiladigan masofasi bo'yicha xarakterlanadi:

$$l_y^{o'r} = \frac{\sum Al}{\sum A} \text{ km.}$$

4. **Yo'lovchilar harakatining zichligi** berilgan liniya (peregon, uchastka)dan ma'lum bir vaqt oraliq'ida (kun, oy yoki yil davomida) o'tadigan yo'lovchilar soni:

$$A = \frac{\sum Al}{l} \text{ yo'lovchi.}$$

Yo'lovchilar tashishda temir yo'l ishining sifat tomonlarini xarakterlaydigan ko'rsatkichlari quyidagilar:

1. **Tarkib aylanmasi** yo'lovchi vagon-tarkibning ro'yxatga olingan bekatidan reysga ketish paytidan shu bekatdan keyingi reysga ketish paytigacha amallar siklini bajarish uchun sarflanadigan vaqt. Bu vaqt-tarkibning yo'nalishlar bo'yicha harakat yo'lida bo'lgan vaqtidan, ro'yxatga olingan va aylanish bekatlarida turgan vaqlaridan yig'iladi.

$$\vartheta_t = \frac{l_y}{v_m^I} + \frac{l_y}{v_m^{II}} + t_{as} + t_{ay} \text{ soat};$$

yoki

$$\vartheta_t = t^I + t^{II} + t_{as} + t_{ay}, \text{ soat}.$$

Bunda: l_y — yo'nalishning umumiy uzunligi, km;

v_m^I , v_m^{II} — yo'lovchi poyezdlarning yo'nalishlar bo'yicha o'rtacha marshrut harakat tezligi.

Agar marshrut tezligi yo'nalishlar bo'yicha bir xil bo'lsa, unda:


$$\vartheta_t = \frac{2l_y}{v_m} + t_{as} + t_{ay} \text{ soat}.$$

Tarkib aylanmasi sutkada ifodalanadi, unda:

$$\vartheta_t = \frac{1}{24} \left(\frac{2l_y}{v_m} + t_{as} + t_{ay} \right) \text{ sutka.}$$

Tarkib aylanmasi 8.2- rasmida ko'rsatilgan.

ro'yxatga olgan bekat aylanish bekti.



8.2 -rasm. Yo'lovchi tarkib aylanmasining grafigi.

Turlari bo'yicha poyezdlarga xizmat qiluvchi zarur tarkib sonini aniqlash quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$n_v = \vartheta_t \cdot N_y \text{ tarkib.}$$

Bunda: N_y — berilgan kategoriya bo'yicha poyezdlar haraka-tining soni.

2. Vagonlar (tarkib)ning o'rtacha kundalik bosib o'tgan masofasi — sutka davomida yo'lovchi park vagonning bosib o'tgan o'rtacha masofasi kilometrlarda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_v = \frac{2l}{\vartheta_t} \text{ km / sutka.}$$

Bu formula bo'yicha o'rtacha kundalik bosib o'tilgan masofani yo'lovchi poyezd tarkibidagi biror-bir vagon bilan aniqlash mumkin.

Bekatda (MTU, temir yo'lida) ro'yxatdan o'tkazilgan barcha vagonlar uchun yoki tarmoq bo'yicha harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlarining barcha vagonlari uchun bu ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_v = \frac{\sum n S_v}{n_v} \text{ km / sutka.}$$

Bunda: $\sum n S_v$ — bekat (MTU, temir yo'l, tarmoq)da ro'yxatdan o'tkazilgan barcha yo'lovchi vagonlarining bosib o'tgan yo'li, km;

n_v — ko'rilibotgan qismdagi yo'lovchi vagonlarining ishchi parki.

Shahar atrofi yo'nalishida o'rtacha kunlik bosib o'tilgan masofa quyidagicha:

$$S_{sha} = \frac{l_t}{\vartheta_t} \text{ km / sutka.}$$

Bunda: l_t — shahar atrofi poyezdining to'liq reysi;
 ϑ_t — shahar atrofi tarkibining kunlik aylanishi.

3. Vagonning o‘rtacha yo‘lovchi zichligi bitta vagonga to‘g‘ri keladigan yo‘lovchilarning o‘rtacha soniga teng. Bu ko‘rsatkich yo‘lovchi-kilometrlarini vagon-kilometrlariga bo‘linmasidan topiladi:

$$a_0 = \frac{\sum Al}{\sum nS_v} \text{ yo‘l / vagon.}$$

4. Yo‘lovchi poyezdining o‘rtacha brutto og‘irligi quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$Q_{br}^{o'r} = \frac{\sum Q_{br} l_y}{\sum Nl_y} \text{ tonna.}$$

Bunda: $\sum Q_{br} l_y$ — jami yo‘lovchi poyezdlarning tonna-kilometr bruttosi;

$\sum Nl_y$ — jami yo‘lovchi poyezdlarning kunlik bosib o‘tgan masofasi.

5. Marshrut tezligi — yo‘lovchi poyezdlar harakatining o‘rtacha tezligidir. Bunda butun yurish yo‘li davomida barcha bekatlarda turish vaqtini hisobga olingan.

U ko‘proq sutka davomidagi kilometrlarda o‘lchanadi, ba’zi hisoblarda kilometr-soatda. Marshrut tezligi quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$v_m = \frac{\sum Nl_y}{\sum NT + \sum NT_f} \text{ km/sutka yoki km/soat.}$$

Bunda: $\sum NT$ — poyezdlarning to‘xtashi hisobga olinmaydi, faqat tezlanish va sekinlanish vaqtлari hisobga olingan liniyadagi poyezd-soatlar;

$\sum NT_f$ — yo‘nalishdagi barcha ajratish punktlarida va bekatlarda poyezdlarning to‘xtashi uchun sarflangan poyezd-soat.

8.6. Shahar atrofi yo'lovchilar harakatini tashkil etish

8.6.1. Shahar atrofi yo'lovchilarini tashish haqida umumiylumotlar

Shahar atrofi yo'lovchilarini tashish ishlari qisqa masofalarda (150 km gacha) bajariladi va yirik shaharlarga, sanoat markazlariga va aholi punktlariga tutashgan uchastkalarda tashkil etiladi. Bu shaharlarning tezkor rivojlanishi, shahar atrofi rayonlarining shiddatli qurilishi, shahar atrofida dam olish joylari va sport-sog'lom-lashtirish muassasalari tashkil etilishi, mehnatkashlarning moddiy farovonligi va madaniy darajasining yuksalishiga bog'liq. Katta shaharlarga tutashgan ko'pgina uchastkalar ikki yo'lli, avtoblo-kirovka bilan jihozlanib, elektrlashtirilgan. Shahar atrofi liniyalari-da shinam harakat tarkiblari — yuqori harakat tezligini ta'minlab beruvchi motor vagonli elektropoyezdlar va dizelpoyezdlar qatnaydi.

Boshqa yo'lovchilar tashishlari turlariga nisbatan shahar atrofi yo'lovchilarini tashish quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Tashishning yalpiligi, (bunda ko'pchilik yo'lovchilar qisqa masofaga, odatda, bosh bekatda 10 dan 50 km gacha yuri-shadi);
2. Harakatning sutkadagi soatlar, kunlar, haftalar, oylar va mavsum bo'yicha notekisligi. Ko'pgina katta uzellar uchun sutkali notekislik asosan dam olish, bayram va bayramoldi kunlarida $1,5 \div 2,5$ koeffitsiyentlar bilan ifodalanadi;
3. Yo'lovchilar oqimining shaharlardan uzoqlashgani sari kamayishi. Kamayish joylari asosan katta aholi punktlariga to'g'ri keladi va shahar atrofi harakatida zonalar chegarasi bo'lib qoladi.
4. Yo'lovchilar o'tirishi va tushishi uchun tez-tez to'xtash punktlarining zarurligi. Shunday to'xtash punktlari uchastkaning bosh qismida har 2—3 km da, juda yirik uzellardagi ba'zi shahar atrofi uchastkalarida 1—2 km da bo'ladi. Uzoq zonalardagi to'xtash punktlari orasidagi farqli masofa 3—5 km ni tashkil etad.
5. Yo'lovchilarning poyezd kutish vaqtlarini qisqartirish uchun harakat oralig'ining qisqaligi.

8.6.2. Shahar atrofi yo‘nalishlarida qulay zonalarning sonini aniqlash

Yo‘lovchilar oqimining shahardan uzoqlashishi aholi punktlarida aholi sonining keskin kamayishi munosabati bilan shahar atrofi uchastkasini bo‘laklarga bo‘lishga to‘g‘ri keladi va buni **zonalar** deb ataladi.

Bu yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga imkon beradi, harakat tarkibini ishlatalish samarasini oshiradi va shahar atrofi yo‘lovchilarini tashish tannarxini kamaytiradi. Umuman zonalibekatlar yo‘lovchilar oqimi keskin kamaygan punktlarda belgilanadi (8.3- rasm).

Har bir zona bekatni harakatni tugatgan poyezd uchun aylanish punkti bo‘lib xizmat qiladi. Qulay zonalar sonini tanlash uchun bir necha variantlar bor, bular quyidagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi:

- yo‘lda yurish va poyezdni kutish uchun yo‘lovchi-soat xarajatlari bo‘yicha;
- poyezdlarning yo‘l yurish miqdori bo‘yicha;
- doimiy qurilmalar (zona bekatlari) va harakat tarkibi uchun xarajatlar bo‘yicha;
- foydalanish uchun sarflangan xarajatlar (shtatga oid, amortizatsiya uchun) va hokazolar bo‘yicha.

Taqqoslash natijalariga ko‘ra uchastkani zonalarga bo‘lishning qulay varianti aniqlanadi.

Shahar atrofi yo‘lovchilari talablarini qondirish va kam transport harakatlarini hisobga olgan holda shahar atrofi uchastkalaridagi qulay zonalar sonini professor I.I.Vasilyev formulasiga asosan hisoblash mumkin:

$$K = P \sqrt{\frac{A_y \cdot \tau}{a}} \text{ zona.}$$

Bunda: P — uchastkadagi umumiy to‘xtash punktlar soni;

τ — bir to‘xtash punktiga to‘xtash, sekinlatish va tezlanish uchun to‘g‘ri keladigan vaqt;

A_y — to‘xtash punktidagi o‘rtacha soatdagisi yo‘lovchilar oqimi;

a — poyezdning hisobli sig‘imi.

8.6.3. Shahar atrofi poyezdlar sonini aniqlash va ularni sutkadagi vaqtlar bo'yicha taqsimlash


Harakatlar soni yo'lovchilar oqimining quvvatiga va poyezdning qabul qilingan sig'imiga nisbatan aniqlanadi. Bu ma'lumotlarga binoan shahar atrofi poyezdlar soni quyidagicha topiladi:

$$N = \frac{A_{pr}}{a_{pr}} \text{ poyezd.}$$

Bunda: A_{pr} — sutkadagi o'rtacha shahar atrofi yo'lovchilar oqimi; a_{pr} — shahar atrofi poyezdining hisobli zichligi.

Sutkali yo'lovchilar oqimidan berilgan har bir soatdagi foizda kelgan va ketgan yo'lovchilar sutkadagi soatlar bo'yicha taqsimlanadi. Bu avval zonalar bo'yicha zarur poyezdlar sonini taxminiy topish, zonalar bo'yicha umumiyl poyezdlar sonini sutkali yo'lovchilar oqimidan tegishli ulushiga ko'paytirish yo'li bilan bajariladi. Jadvalda ko'rsatilganidek, bu hisob yaxlit bo'l-magan poyezdlar sonida beriladi. Shuning uchun poyezdlar sig'imidan to'liq foydalanish maqsadida har bir soatdagi poyezdlar sonini bir necha zonaga xizmat qilish uchun «sekin yuruvchini» tayinlashni hisobga olib belgilash zarur. Bunda harakatning ma'lum bir oraliq'i saqlanishi lozim.

Misol: sutkali yo'lovchilar oqimidan oylik notekislikni hisobga olib, sutkadagi soatlar bo'yicha zarur bo'lgan shahar atrofi poyezdlar sonini aniqlash (8.3- rasm). Uchastkada ER seriyali elektropoyezd harakatlanadi, barcha zonalar uchun uning o'rtacha zichligi 1100 yo'lovchi. Umumiy sutkali yo'lovchilar oqimidan sutkadagi soatlar



8.3- rasm. Shahar atrofi sutkali yo'lovchilar oqimining diagrammasi.

Sutkadagi soatlar bo'yicha shahar atrofi harakatining miqdori

A dan ketishi

| Sutkadagi soatlar | Sutkali yo'lovchilar oqimining foizi | Har bir zona uchun xarakatlar soni | | | | | | A dan ketishi | | | | | |
|-------------------|--------------------------------------|------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| | | Taxminiy | | | Aniq | | | Taxminiy | | | Aniq | | |
| | | 1- zona | 2- zona | 3- zona | 1- zona | 2- zona | 3- zona | 1- zona | 2- zona | 3- zona | 1- zona | 2- zona | 3- zona |
| 5—6 | 2,5 | 0,8 | 0,6 | 0,4 | — | — | 1* | 2 | 0,6 | 0,5 | 0,3 | 1 | — |
| 6—7 | 4 | 1,2 | 1,0 | 0,6 | 1 | — | — | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 2 | 1* |
| 7—8 | 5,5 | 1,6 | 1,4 | 0,8 | 2 | 2 | 1 | 8 | 2,4 | 2,0 | 1,2 | 2 | 1 |
| 8—9 | 5,5 | 1,6 | 1,4 | 0,8 | 2 | 2 | 1 | 8,5 | 2,5 | 2,1 | 1,3 | 3 | 2 |
| 9—10 | 5,5 | 1,6 | 1,4 | 0,8 | 2 | 1 | 1* | 7,5 | 2,2 | 1,9 | 1,1 | 2 | 1 |
| 10—11 | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 2 | 1 | 1* | 5,5 | 1,6 | 1,4 | 0,8 | 2 | 1 |
| 11—12 | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1 | 1* | 5,0 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 2 | — |
| 12—13 | 3 | 0,9 | 0,7 | 0,5 | 1 | 1 | 1* | 4,0 | 1,2 | 1,0 | 0,6 | 1 | 1 |
| 13—14 | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1 | 1* | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1* |
| 14—15 | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1 | — | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1* |
| 15—16 | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 1 | 1 | 1* | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 1 | 1* |
| 16—17 | 6 | 1,8 | 1,5 | 0,9 | 2 | 2 | — | 5 | 1,5 | 1,2 | 0,8 | 2 | 1* |
| 17—18 | 8 | 2,4 | 2,0 | 1,2 | 2 | 2 | — | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 2 | 1 |
| 18—19 | 8,5 | 2,5 | 2,1 | 1,3 | 3 | 2 | 1 | 6 | 1,8 | 1,5 | 0,9 | 2 | — |
| 19—20 | 6,5 | 1,9 | 1,6 | 1,0 | 2 | 2 | 1 | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1* |
| 20—21 | 6 | 1,8 | 1,5 | 0,9 | 2 | 2 | 1 | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1* |
| 21—22 | 5 | 1,5 | 1,3 | 0,7 | 2 | 1 | — | 4,5 | 1,4 | 1,1 | 0,7 | 1 | 1* |
| 22—23 | 3,5 | 1,1 | 0,9 | 0,5 | 1 | 1 | 1 | 4 | 1,2 | 1,0 | 0,6 | 1 | — |
| 23—24 | 3 | 0,9 | 0,7 | 0,5 | 1 | 1 | 1* | 2,5 | 0,7 | 0,6 | 0,4 | 1 | 1* |
| 0—1 | 2,5 | 0,8 | 0,6 | 0,4 | 1 | 1 | — | 3 | 0,9 | 0,7 | 0,5 | 1 | — |
| 1—2 | 1,5 | 0,4 | 0,4 | 0,2 | — | 1 | 1** | 1,5 | 0,4 | 0,4 | 0,2 | — | 1** |
| Jami | 100 | 30 | 25 | 15 | 30 | 25 | 15 | 100 | 30 | 25 | 15 | 30 | 15 |

* Oldingi zonaga xizmat qiladi. ** Oldingi ikkita zonaga xizmat qiladi.

bo'yicha yo'lovchilarning kelishi va ketishi foiz hisobida 8.2-jadvalda berilgan.

Yechimi: berilgan poyezd zichligi bo'yicha har bir zonadagi poyezdlar soni quyidagilarga teng:

$$1\text{- zona uchun } N_1 = \frac{77000 - 44000}{1100} = 30 \text{ poyezd};$$

$$2\text{- zona uchun } N_2 = \frac{44000 - 16500}{1100} = 25 \text{ poyezd};$$

$$3\text{- zona uchun } N_3 = \frac{16500}{1100} = 15 \text{ poyezd.}$$

Har bir zona uchun topilgan sutkadagi poyezdlar soni sutkadiagi soatlar bo'yicha taqsimlanadi. Hisoblar bo'yicha belgilangan taxminiy va hal qiluvchi sutkadagi soatlar bo'yicha harakatlar soni, sutkali oqimdan kelgan va ketgan shahar atrofi yo'lovchilarining soatlar bo'yicha ulushi 8.2-jadvalda keltirilgan.

Shahar atrofi harakatining qabul qilingan soni quyidagicha aniqlanadi:


Misol uchun soat 5 dan 6 gacha 1- zonaga 0,8 poyezd kelishi kerak (yaxlitlab 1 poyezd qabul qilish mumkin), 2- zonaga 0,6, 3- zonaga 0,4 poyezd. 2 va 3- zonalarga 1 dan poyezd belgilash to'g'ri kelmaydi, negaki, elektropoyezdlarning sig'imidan to'liq foydalanim bo'lmaydi.

Bu zonalarga $0,6+0,4=1$ poyezd belgilash mumkin, 2- va 3-zonalar bo'yicha to'xtab o'tishi zarur. Xuddi shu tartibda shahar atrofi poyezdlar soni sutkadagi boshqa soatlar uchun topiladi.

8.6.4. Poyezdlar harakati grafigi va shahar atrofi uchastkasining o'tkazish qobiliyatি

Shahar atrofi harakati parallel, shaxmatsimon, archasimon yoki nopalallel grafiklarni qo'llash orqali tashkil etiladi.

Parallel grafigida jami shahar atrofi poyezdlari bir xil yurish vaqtlariga va to'xtash punktlaridagi to'xtashlarga ega (8.4- rasm). Bu grafik shahar atrofi harakati sonlari kam bo'lgan uchastkalarda qo'llaniladi.



8.4- rasm. Parallel shahar atrofi grafigi.

Yo‘lovchilar oqimi ko‘plab kamaygan shahar atrofi uchast-kalarining ba’zi punktlarini zonalarga bo‘lish va zonali parallel grafigini qo‘llash ma’qul. Parallel grafigining asosiy afzalligi, uni amalga oshirish uchun kam o’tkazish qobiliyati zarurligidir.

Bu grafik bo‘yicha o’tkazish qobiliyati quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$N = \frac{60}{I} \text{ poyezd / soat.}$$

Bunda: I — bir tomonga boruvchi shahar atrofi poyezdlari orasidagi interval, daqiqa.

«Shaxmatsimon» grafik-parallelning bir turi parallelga o‘x-shash holatlarda ishlataladi. Faqat yo‘lovchilar oqimining zonalalararo aloqalari uchun vaqt-vaqt bilan 8.5- rasmda ko‘rsatilganidek «sekin yuruvchi» o’tkaziladi.


Bu grafikda turishlar soni ikki baravariga kamligi tufayli uchastka tezligi parallelga nisbatan yuqori. Shaxmat grafikning davri tengligi quyidagicha:

$$T_{\max} = 2I + t_f + \tau_{ts},$$

unda soat davomidagi o’tkazish qobiliyati quyidagicha topiladi:


$$N = \frac{60K}{T_d} = \frac{60 \cdot K}{2I + t_f + \tau_{ts}} \text{ poyezd/soat.}$$

Bunda: K— davrdagi poyezdlar soni.



8.5- rasm. Shaxmatsimon shahar atrofi grafigi.


«Archasimon» grafik ham parallel grafikning bir turi (8.6-rasm). Uni bir yo'lli shahar atrofi liniyalarida qo'llash mumkin. Unda ma'lum bir vaqt oralig'ida poyezdlar o'tkazishni faqat bir yo'nalishda tashkil etiladi.



8.6- rasm. Archasimon shahar atrofi grafigi.

Zonali nopalallel grafik (8.7- rasm) bo'yicha poyezdlar o'zining aniq zonasiga xizmat qiladi va uning har bir to'xtash punktida to'xtab, boshqa zonalardan to'xtamasdan o'tadi. Poyezd bir yoki bir nechta zonalardan to'xtamasdan o'tsa, «tez yuruvchi», shu zonada to'xtashlari bor poyezd «sekin yuruvchi» deyiladi.

Yo'lovchilar oqimi kamaygan davrda shahar atrofi uchastkasi ichida yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida birinchidan to oxirgi zonalardagi barcha punktlarda to'xtaydigan poyezdlar tayinlanadi. Bu grafik bo'yicha soatdag'i o'tkazish qobiliyati quyidagi formula bo'yicha ifodalanadi:



8.7- rasm. Noparallel zonali shahar atrofi grafigi.

$$N = \frac{60 \cdot K}{K \cdot I + \Delta_z} = \frac{60}{I + \frac{\Delta_z}{K}} \text{ poyezd/soat.}$$

Bunda: K — paketdagи poyezdlar soni;

Δ_z — zonali interval «tez yuruvchi» va «sekin yuruvchi» poyezdlarining yurish vaqtлari farqiga teng.

Noparallel zonali grafiklarni yo'lovchilar oqimi katta bo'lganda qo'llash ma'qul. U bir qator afzalliklarga ega: a) harakat tezligi oshadi, ikkinchi va keyingi zonalardagi yurish vaqtлari qisqaradi; b) harakat tarkibining aylanishi tezlashadi; d) yo'lovchilar oqimi poyezdlar bo'yicha bir tekis taqsimlanadi, ular zonalar bo'yicha maxsuslashtirilgan bo'lib, bu vokzallar ishini yengillashtiradi; e) ortiqcha to'xtashlar yo'qotiladi, natijada elektroenergiya va yoqilg'i tejaladi.

Birinchi zonaga xizmat qilish oralig'inining kamayishi hamda zonali intervallar hisobiga zaruriy o'tkazish qobiliyatining birmuncha oshishi bu zonaning kamchiliklaridan hisoblanadi.

Zonali parallel grafikda o'tkazish qibiliyatini oshirish uchun harakatning zo'raygan davrida eng kam zonali intervallar soniga ega bo'lish maqsadida poyezdlarni zonalar bo'yicha guruhlash zarur.

Shahar atrofi liniyalarida yo'lovchilar harakati ko'p bo'lgan katta shaharlarga xizmat ko'rsatishda to'liq yoki qisman noparallel zonali grafikni qo'llash maqsadga muvofiq.

8.6.5. Shahar atrofi poyezdlarining jadvalini tuzish

Jadvalni tuzishda quyidagilarni nazarda tutish shart: yo'lovchilar poyezdlar kutish vaqtlarini kam sarflashlari uchun harakatning zarur bo'lgan ketma-ketligini ta'minlash; ertalabki soatlarda yo'lovchilarni o'z vaqtida ishga tashishni; kechki vaqt-larda turar joylariga yetkazilishi; shahar atrofi poyezdlarini boshqa turdag'i transport ishlari bilan muvofiqlashtirishni; yo'lov-chilar oqimining zonalararo aloqasini ta'minlab berishni; vaqt-vaqt bilan butun bir uchastka bo'yicha grafikda «sekin yuruvchi» poyezdlarni o'tkazishni; agar yo'lovchilar oqimi sutkadagi soatlar bo'yicha taqsimlansa, ish kundagi yo'lovchilar oqimidan katta farq qilsa, dam olish, bayram va bayramoldi kunlari uchun maxsus jadvallarni, eng kam harakatdagi tarkib zaruratini.

Harakatlar sonini sutka boshida to'liq ta'minlash uchun shahar atrofi tarkiblarining bir qismi uzoq zonadagi zonali bekatlarda goldiriladi.

Shahar atrofi poyezdlarining harakat grafigi asosida tarkibning aylanish grafigi tuziladi va tarkiblar, vagonlar, lokomotivlar hamda poyezd brigadalariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi.

Ko'pgina uzellarda shahar atrofi poyezdlarining mayatnikli harakati qo'llaniladi.

Uning mohiyati poyezdlarni uzel bo'yicha bitta shahar atrofi liniyasidan boshqasiga o'tkazishdan iborat. Mayatnikli harakat yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi, ular tez va qulay shahar atrofi poyezdlarida shahar transportidan foydalangandek harakatlanishadi.

Bu bilan shahar transporti va vokzallar ishi yengillashtiriladi. Mayatnikli harakatda harakat tarkibiga ehtiyoj qisqaradi va tarkibning o'rtacha sutkali yurishi oshadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yo'lovchilar tashish bo'yicha asosiy vazifalar nimalardan iborat?
2. Yo'lovchilarni tashish bo'yicha qaysi tadbirlarni amalga oshirish zarur?
3. Yo'lovchilar tashishning qanday turlari bor?

4. Yo 'lovchi poyezdlar toifalari qanday?
5. Yo 'lovchilar tashish qanday tartibda rejalashtiriladi?
6. Yo 'lovchi poyezdlar soni qanday topiladi?
7. Yo 'lovchi poyezdlarning harakat grafigi va jadvali qanday tuziladi?
8. Yo 'lovchilar tashishning asosiy ko 'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
9. Shahar atrofi yo 'lovchilar harakati qanday tashkil etiladi?
10. Zonalar sonini qanday aniqlash mumkin?
11. Shaharatrofi poyezdlar harakati grafigining qanaqangi turlari bor?
12. O 'tkazish qobiliyati nima va u qanday topiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov.* Asarlar, 8-jild. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 y.
2. Концепция развития Государственной Акционерной Железнодорожной Компании «Ўзбекистон темир йўллари» на 1999—2010 г.
3. *K.U. Ульжабаев.* «Экономическая реформа на железнодорожном транспорте». Ташкент, «Мехнат», 1999 г.
4. Инструкция по движению поездов и маневровой работе на железных дорог Республики Узбекистан. Ташкент, 2001 г.
5. Правила технической эксплуатации железных дорог Республики Узбекистан. Ташкент, 2001 г.
6. Положение о железнодорожной станции. Ташкент, 2000 г.
7. «Железнодорожные станции и узлы». Под. ред. *Акулиничева В.М.*, М.: Транспорт, 1992 г.
8. *P.Z. Нурмухамедов.* «Управление эксплуатационной работой железных дорог». Ташкент, «Ўқитувчи», 1990 г.
9. *V.A. Кудрявцев, A.K. Угрюмов.* «Технология эксплуатационной работы на железных дорогах». Москва, «Транспорт». 1994 г.
10. *Ф.С. Гоманков, А.Д. Омаров, З.С. Бекжанов.* «Технология и организация перевозок на железнодорожном транспорте». Алматы, 2002 г.

MUNDARIJA

| | |
|---------------------------------|---|
| K i r i sh..... | 3 |
| O'zbekiston temir yo'llari..... | 4 |

I bob. Temir yo'llardan foydalanish ishlarini boshqarish asoslari

| | |
|--|----|
| 1.1. Temir yo'l transportida tashish ishlarining tashkil etilishi va texnologiyasi..... | 7 |
| 1.2. Temir yo'l transportida yuk va yo'lovchi tashish texnologiyasining asosiy tamoyillari..... | 8 |
| 1.3. «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksionerlik temir yo'l kompaniyasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi..... | 10 |
| 1.4. Temir yo'llardan foydalanish ishlarining asosiy son va sifat ko'rsatkichlari..... | 13 |

II bob. Bekatlar va ularning ishini tashkil qilish bo'yicha umumiy tushunchalar

| | |
|---|----|
| 2.1. Ajratish punktlari haqida tushuncha. Bekatlar turlari..... | 22 |
| 2.2. Bekatlar va ularning texnologik jarayonlari haqida umumiy tushunchalar..... | 24 |
| 2.3. Bekatni boshqarish tizimi..... | 27 |
| 2.4. Bekatlar ishini tashkil etish bo'yicha asosiy hujjatlar..... | 28 |
| 2.5. Razyezdлarning ish texnologiyasi..... | 31 |
| 2.6. Quvib o'tish punktlarining ish texnologiyasi..... | 33 |
| 2.7. Oraliq bekatlarning ish texnologiyasi..... | 34 |
| 2.8. Uchastka bekatlarning tuzilishi va vazifalari..... | 38 |
| 2.8.1. Tranzit poyezdlar bilan ishlashning texnologik jarayoni.. | 41 |
| 2.8.2. Qayta ishlanuvchi poyezdlar bilan ishslash texnologiyasi..... | 43 |

| | |
|--|----|
| 2.8.3. Bekatda tuzilgan poyezd bilan ishlash texnologiyasi... | 44 |
| 2.9. Saralash bekatlarining vazifalari va ularning asosiy qurilmalari..... | 47 |
| 2.9.1. Saralash tepaliklari va ularning ishini tashkil qilish... | 48 |
| 2.9.2. Saralash tepaliklarida poyezdlarni tarqatish-tuzish... | 51 |
| 2.10. Saralash tepalik ishining ko'rsatkichlari..... | 53 |
| 2.11. Saralash bekatini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (SBBAT)..... | 55 |
| 2.12. Bekat texnologik markazining ishini tashkil etish..... | 57 |
| 2.13. Bekat ishini tezkor rejalaشتirish..... | 58 |
| 2.14. Bekat ishining sutkali reja-grafigi..... | 60 |
| 2.15. Bekat ishining asosiy ko'rsatkichlari..... | 61 |
| 2.16. Bekat ishining tahlili..... | 66 |
| 2.17. Bekat ishini jadallashtirish..... | 67 |

III bob. Manevr ishlari

| | |
|--|----|
| 3.1. Asosiy tushunchalar..... | 70 |
| 3.2. Manevr ishlarining turlari..... | 71 |
| 3.3. Tortish yo'lida manevrlarni boshqarish texnologiyasi..... | 72 |
| 3.3.1. Manevrlarning joylash usuli..... | 72 |
| 3.3.2. Manevrlarning bir guruhli turtki usuli..... | 73 |
| 3.3.3. Manevrlarning ketma-ket turtki usuli..... | 73 |
| 3.3.4. Manevrlarning ko'p guruhli turtki usuli..... | 75 |
| 3.3.5. Vagonlarni beto'xtov saralash usuli..... | 77 |
| 3.4. Manevr ishlarini tashkil etish..... | 77 |
| 3.5. Manevr ishlari nazariyasi asoslari..... | 80 |

IV bob. Vagon oqimlarini tashkil etish

| | |
|---|----|
| 4.1. Yuk oqimlari va vagon oqimlari haqida tushuncha..... | 85 |
| 4.2. Vagon oqimlarini tashkil etishning vazifalari..... | 87 |
| 4.3. Yuk poyezdlarining turlari..... | 87 |
| 4.4. Poyezdlar tuzish rejası..... | 89 |
| 4.5. Poyezdlar tuzish rejasini ishlab chiqish tartibi..... | 90 |
| 4.6. Jo'natuvchi marshrutlarni tashkil etish..... | 91 |
| 4.7. Texnikaviy bekatlarda vagon oqimlarining tashkil etilishi.... | 93 |
| 4.8. Vagonlarning to'planish jarayoni haqida tushuncha..... | 95 |
| 4.9. Vagonlarni texnikaviy bekatlardan qayta ishlovsiz tranzit poyezdlarda o'tkazishning foydasini hisoblash..... | 98 |

| | |
|--|-----|
| 4.10. Poyezdlar tuzish rejasini hisoblash usullari..... | 99 |
| 4.11. Bir guruhli poyezdlar tuzish rejasining hisobi..... | 100 |
| 4.12. Ko‘p guruhli poyezdlar tuzish..... | 102 |
| 4.13. Uchastka, terma va chiqaruvchi poyezdlarni belgilash..... | 105 |
| 4.14. Bo‘s h vagon oqimlarini tashkil etish..... | 105 |
| 4.15. Poyezdlar tuzish rejasini rasmiylashtirish..... | 106 |
| 4.16. Poyezdlar tuzish rejasiga tezkor o‘zgartishlar kiritish..... | 108 |
| 4.17. Poyezdlar tuzish rejasining bajarilishini ta’minlash..... | 110 |

V bob. Poyezdlar harakati grafigi

| | |
|--|-----|
| 5.1. Poyezdlar harakati grafigining ahamiyati..... | 113 |
| 5.2. Poyezdlar harakatini grafikda ifodalash..... | 114 |
| 5.3. Poyezdlarni raqamlash..... | 116 |
| 5.4. Poyezdlar harakati grafigining turlari..... | 117 |
| 5.5. Grafiklarning iqtisodiy tavsifi..... | 120 |
| 5.6. Poyezdlar harakati grafigining elementlari..... | 120 |
| 5.6.1. Peregonlarda yurish vaqtি..... | 121 |
| 5.6.2. Bekat intervallarining turlari va ularni hisoblash usuli..... | 121 |
| 5.6.3. Bekatlarda poyezd va lokomotivlarning turish vaqtłari..... | 125 |
| 5.7. Poyezdlar harakati grafigini tuzish tartibi..... | 126 |
| 5.8. Poyezdlar harakati grafigining ko‘rsatkichlari..... | 127 |

VI bob. Temir yo‘l tarmoqlarining o‘tkazish qobiliyati

| | |
|---|-----|
| 6.1. Temir yo‘l tarmoqlarining poyezd va yuk o‘tkazish qobi- liyatları haqida tushuncha..... | 128 |
| 6.2. Parallel grafiklarning o‘tkazish qobiliyati..... | 129 |
| 6.3. Ikki bosh yo‘lli peregonlarning o‘tkazish qobiliyati..... | 130 |
| 6.4. Noparallel grafiklarning o‘tkazish qobiliyati..... | 132 |
| 6.5. Temir yo‘l tarmoqlarining yuk o‘tkazish qobiliyati..... | 132 |
| 6.6. Temir yo‘l yo‘nalishlarining o‘tkazish qobiliyatini oshirish..... | 133 |
| 6.7. Tashkiliy-texnikaviy tadbirlar..... | 133 |
| 6.8. Rekonstruktiv tadbirlar..... | 134 |

VII bob. Temir yo‘l uzellari ishining texnologiyasi

| | |
|--|-----|
| 7.1. Uzel chizma va qurilmalarning umumiy tavsifi..... | 136 |
| 7.2. Uzeldagi bekatlar orasida ishni taqsimlash..... | 141 |

| | |
|---|-----|
| 7.3. Uzelda vagon oqimlari va poyezdlar harakatini tashkil etish..... | 143 |
|---|-----|

VIII bob. Yo'lovchilar harakatini tashkil etish

| | |
|---|-----|
| 8.1. Yo'lovchilar tashishning ahamiyati..... | 146 |
| 8.2. Yo'lovchilar tashish turlari va yo'lovchi poyezdlar toifalari..... | 147 |
| 8.3. Yo'lovchi poyezdlar tarkibi..... | 148 |
| 8.4. Yo'lovchilar tashishni rejalashtirish..... | 149 |
| 8.5. Uzoq va mahalliy yo'lovchilar harakatini tashkil etish..... | 153 |
| 8.5.1. Yo'lovchi poyezdlarning sonini va manzilini aniqlash. | 153 |
| 8.5.2. Uzoq va mahalliy yo'lovchi poyezdlarning harakat grafigi va jadvalini tuzish..... | 154 |
| 8.5.3. Yo'lovchilar tashishning asosiy ko'rsatkichlari..... | 156 |
| 8.6. Shahar atrofi yo'lovchilar harakatini tashkil etish..... | 160 |
| 8.6.1. Shahar atrofi yo'lovchilarini tashish haqida umumiy ma'lumotlar..... | 160 |
| 8.6.2. Shahar atrofi yo'nalishlarida qulay zonalarning sonini aniqlash..... | 161 |
| 8.6.3. Shahar atrofi poyezdlar sonini aniqlash va ularni sutkadagi vaqtlar bo'yicha taqsimlash..... | 162 |
| 8.6.4. Poyezdlar harakati grafigi va shahar atrofi uchastkasining o'tkazish qobiliyati..... | 164 |
| 8.6.5. Shahar atrofi poyezdlarining jadvalini tuzish..... | 168 |
| Foydalilanigan adabiyotlar | 170 |

M.X. RASULOV, G.A. MIRZAYEVA

**TEMIR YO'L TRANSPORTIDA
HARAKATNI TASHKIL
QILISH VA BOSHQARISH**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir To'lqin Alimov

Rassom Shuhrat Odilov

Badiiy muharrir Aziz Tillaxo'jayev

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhiha Mahmuda Usmonova

Bosishga ruxsat etildi 21. 12. 2006. Bichimi 60×90^{1/16}, Tayms TAD garniturasi.
Shartli b.t. 11,0. Nashr b.t. 11,61. Sharhnomha № 124-2006. 1000 nusxa.
Buyurtma № 21.

Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100128. Toshkent,
U.Yusupov ko'chasi, 86.

39.2

R 25

Rasulov M.X.

Temir yo'l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/
M.X. Rasulov, G.A. Mirzayeva; O'z Res. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.
– T.: Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
– 176 b.

Mirzayeva G.A. /muallifdosh/

BBK 39.2ya722